

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ГУЛИСТОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

Shukurova O'.

KASB PSIXOLOGIYASI

ФАНИДАН

маърузалар матни

GULISTON-2015

MUNDARIJA

Kirish.....	4
Kasb psixologiyasi фани бўйича таълим технологияларини ишлаб чиқишнинг концептуал асослари.....	5
Fan bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari.....	8
Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi.....	9
Kasb psixologiyasidan test savollari.....	19
Kasb psixologiyasi fanining predmeti.....	21
Kasb psixologiyasi fanining tadqiqot metodlari.....	27
Kasblar va ularning klassifikatsiyasi.....	33
Shaxs psixologiyasi va kasbiy shakllanish.....	39
Kasbiy motiv va motivatsiya	44
Diqqat va kasb tanlash masalalari.....	49
Idrok va kasbga yo'llash.....	54
Xotira va kasbiy maslahat.....	60
Tafakkur va kasbni egallash	67
Shaxsning hissiy-irodaviy sohasi va kasbga moslashish.....	75
Qobiliyatlar va shaxsning kasbiy shakllanishi.....	82
Nutq va kasb.....	87
Temperament va kasbni egallash masalalari.....	90
Xarakter va kasbiy sifatlar.....	94
Shaxsni kasbiy kamoloti.....	98
Nazorat savollari.....	105
O'tilgan mavzular bo'yicha yakuniy xulosalar.....	
Fan bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar.....	
Barcha mavzular bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari.	
Informatsion uslubiy ta'minot..	
Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati.....	
Glossariy.....	

KIRISH.

Ma'lumki, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tadqiqot etishga mo'jallangan fanlardan bittasi psixologiya hisoblanadi. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tatbiq etish ko'lamini kengayib borishi uning mas'uliyati va nufuzi ortayotganligidan dalolat beradi. Xuddi shu bois psixolog bilimlarga ega bo'lish barcha soha mutaxassislariga hozirgi zamon talablaridan biri bo'lmoqda.

Mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimov asarlarida, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi qonun»ida, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da, "Milliy g'oya va milliy istiqloq mafkurasi" hujjatida mutaxassislar oldiga ulkan talablar va mas'ul vazifalar yuklamoqda.

MA'RUZALAR

1-mavzu: “Kasb psixologiyasi fanining predmeti” mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs,
1	Tayyorlov bosqichi: 1.1. Dars maqsadi: 1.Kasb psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini tushuntirish. Kasb psixologiyasi fanining shakllanish tarixini bayon qilish. Kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan bog'liqligini asoslash. Kasb psixologiyasining amaliy asoslarini so'zlash. O'quv fanlari tizimida kasb psixologiyasining o'rnini belgilash. Kasb psixologiyasi mutaxassislik fani sifatida ekanligini tavsiflash. 1.2.Identiv o'quv maqsadlari. 1.Kasb psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini tushuntiradi. 2. Kasb psixologiyasi fanining shakllanish tarixini bayon qiladi. 3. Kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan bog'liqligini asoslaydi. 4. Kasb psixologiyasining amaliy asoslarini so'zlaydi. 5. O'quv fanlari tizimida kasb psixologiyasining o'rnini belgilaydi. 6. Kasb psixologiyasi mutaxassislik fani sifatida ekanligini tavsiflaydi. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: kasbiy shakllanish mexanizmi, qonuniyat, kasblar psixodiagnostikasi, “inson kasb” tushunchasi, psixik jarayonlar, irodaviy jarayonlar, motiv, motivatsiya, intilishlar, hissiy jarayonlar. 1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza	O'qituvchi

	1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs, videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, taqdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarqatma materiallar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali materiallar.	
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga kasb psixologiyasi fanining predmeti, maqsadiga oid muammoli savol beriladi. 3.2. Talabalarining kasb psixologiyasining metodlari mavzusiga oid fikri eshitiladi va boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Talabalarining fikri tinglanib, umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Kasb psixologiyasining metodlari haqida umumiy xulosani o'qituvchi bayon qiladi.	O'qituvchi-talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 1. Kasb psixologiyasi fanining shakllanish tarixini ta'riflang ? 2. Kasb psixologiyasining amaliy asoslarini o'qing va o'rganing. Psixologik testlarni tuzib taqdim qiling. 3. Kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan bog'liqligini asoslang.	O'qituvchi, 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi, 10 minut

Asosiy savollar

1. Kasb psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari,
2. Kasb psixologiyasi fanining shakllanish tarixi.
3. Kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Kasb psixologiyasining amaliy asoslari, o'quv fanlari tizimida kasb psixologiyasi.
4. Kasb psixologiyasi mutaxassislik fani sifatida.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: kasbiy shakllanish mexanizmi, qonuniyat, kasblar psixodiagnostikasi, "inson kasb" tushunchasi, psixik jarayonlar, irodaviy jarayonlar, motiv, motivatsiya, intilishlar, hissiy jarayonlar.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga kasb psixologiyasi fanining maqsadini tushuntirish, vazifalarini aniqlashni o'rgatish, predmetini ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Kasb psixologiyasi fanining maqsadini tushuntiradi.
 2. Kasb psixologiyasi fanining vazifalarini aniqlaydi.
- Kasb psixologiyasi fanining predmetini ta'riflaydi.

Kasb psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari,

1- savolning bayoni :

Kasb psixologiyasining predmeti - shaxsning kasbiy shakllanish mexanizmi, konuniyatlari xamda psixologik xususiyatlarini o'rganishdir.

Bundan kelib chikkan xolda kasb psixologiyasi - bu shaxsda kasbiy maqsadlarni tanlash, kasb egallash, mutaxassisning kasbiy rivojlanishiga doir konuniyatlarni, shuningdek, shaxsning mehnatga layokatlik darajalarini o'rganuvchi psixologiya fanining soxalaridan biridir, - deb aytish mumkin.

“ Kasb psixologiyasi ” kasbiy faoliyatning psixologik mexanizmlarini, to'g'ri kasb tanlash malakalarini shakllantirishning nazariy asoslarini hamda bu boradagi muammolarini o'z ichiga qamrab oladi. Kasb psixologiyasi shaxsda kasbga doir bilim, ko'nikma, malakalarni, ulardagi mavjud tushuncha, tasavvurlarni boyitishga xizmat qiladi.

Kasb psixologiyasi fanini o'qitishdan maqsad – talabalarga fan sohasidagi psixologik tushunchalar, kasblar haqida tushuncha, tasavvurlar zahirasini shakllantirish, shuningdek, kasb tanlash va kasbga yo'naltirish yuzasidan nazariy, amaliy malumotlar manbaini talabalarga berishdir.

Kasb psixologiyasi fanining vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

talabalarni ilmiy malumotlar bilan tanishtiradi, kasb tanlash va shaxs xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni asoslaydi, kasblar psixodiagnostikasi haqida tushuncha beradi, shaxs psixikasining rivojlanish bosqichlarida kasbiy rivojlanish masalalarini ko'rib chiqadi.

“ Kasb psixologiyasi “ fanini o'zlashtirish natijasida bakalavrlar kasb psixologiyasi fanining mazmun va mohiyati haqida, kasbga yo'naltirishning tarkibiy qismlari, kasb psixologiyasining metodologik asoslari, kasb psixologiyasining metodlari, faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi, kuzatish metodi, test metodini , Longityud kesimli kabi metodlarni o'zlashtirib oladilar

Kasb psixologiyasining ob'ekti - shaxsning kasb bilan xamkorligi yoki o'zaro bog'likligidan iborat.

Kasb psixologiyasi psixologiya fanining mustaqil sohasi bo'lib, u o'zining tadkikot predmeti va ob'ektiga ega. Shu jixatdan aynan u mehnat psixologiyasi, muxandislik psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlarining ob'ekti va predmetidan farkanadi.

Mexnat psixologiyasi-inson psixik faoliyatining takomillashishi va konuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi bo'lib, u mexnat jarayonida shaxsdagi jarayon, holatlar va xususiyatlarni o'rganadi. Mexnat psixologiyasi

vazifalariga psixologiyaning mehnat faoliyatini psixologik muammolarini, mehnat unumdorligini o'rtirishning psixologik shart sharoitlari mehnat va dam olish rejimi, mehnat turlarini psixologik tahlil qilish, kadrlarni ularning individual psixologik xususiyatlariga qarab tanlash xamda joy-joyiga qo'yish ning psixologik sabablari kabi masalalar kiradi.

Kasb psixologiyasi shaxsning kasbiy shakllanishining psixologik qonuniyatlarini o'rganadi. Kasb psixologiyasining tadqiqot ob'ekti shaxsning "inson kasb" tizimida kasbiy rivojlanishi hisoblanadi.

Kasb psixologiyasining vazifalari

Kasb psixologiyasining predmetining ta'rifiga asoslanib, uning qo'yidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish maksadga muvofik:

1. Shaxsning kasbiy shakllanishi asosiy tushunchalari va tadqiqot metodlarini va o'zining faoliyatiga tegishli usullarini asoslash;
2. Kasb psixologiyasi predmetiga mos bo'lgan tadqiqot metodlarini ishlab chiqish va o'ziga xos uslublarini tuzish;
3. Kasblarning tavsifiy tuzilmasini psixologik tahlil qilish;
4. Kasblarni klassifikatsiya qilish usullarini ishlab chikish;
5. Shaxsning kasbiy shakllanishi konuniyatlari va psixologik mexanizmlarini tadqiq etish.
6. Kasbiy shakllanishdagi inkirozlarni taxlil etish;
7. Shaxsning kasbiy faoliyatga bo'lgan layoqatini pasayishini aniqlash;
8. Shaxsning kasbiy rivojlanish monitoringni yuritish; bu borada psixodiagnostik vositalarni ishlab chiqish hamda mutaxassislarni attestatsiyadan o'tkazish;
9. Shaxsning kasbiy shakllanishiga psixologik yordam berish hamda insonning kasbiy hayoti davomida yordam berish, qo'llab-qo'vvatlash;
10. Kasbiy maslaxat;

Kasb psixologiyasining metodologik asoslari

Kasb psixologiyasining metodologik asosi - bu shaxsning kasbiy shakllanish kontseptsiyasidir. Mazkur kontseptsiyaning asosiy mohiyati shundaki, kasb tanlash jarayonida shaxs miqdor va sifat jihatidan rivojlanib boradi ya'ni ular o'z yo'nalishini boyitib boradi, shu orqali tajriba va salohiyat shakllanadi. Kasbiy shakllanish jarayonida inkirozlar, to'knashuvlar, destruktiv o'zgarishlar bo'lib o'tishi mumkin. Bu jarayonning tezligi biologik va ijtimoiy omillarga, shuningdek tasodifiy holatlarga, hayotiy muhim kasbiy voqealarga bog'lik bo'ladi.

Kasbiy shakllanish — bu shaxs rivojlanishining katta bir qismini o'z ichiga olib, u kasbiy maqsadlarning tarkib topishidan boshlab, kasbiy hayotning tugallanguncha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

1-savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Kasb psixologiyasi fanining maqsadini tushuntirib bering ?
2. Kasb psixologiyasi fanining vazifalarini sanab bering ?
3. Kasb psixologiyasi fanining predmetini bayon qiling ?
4. Shaxsning kasbiy shakllanish kontseptsiyasini tushuntiring?
5. Kasb psixologiyasining metodologik asoslarini ta'riflab bering ?
6. Kasbiy shakllanishni tushuntiring ?

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga kasb psixologiyasi fanining shakllanish tarixini tushuntirib berish, vazifalarini aniqlashni o'rgatish, predmetini ta'riflash. bixeviorizm va psixoanalizm maktablarining vujudga kelishini yoritish

Identiv o'quv maqsadlari.

Kasb psixologiyasi fanining shakllanish tarixini tushuntirib beradi.

Kasb psixologiyasi fanining vazifalarini aniqlaydi.

Kasb psixologiyasi fanining predmetini ta'riflaydi.

Bixeviorizm va psixoanalizm maktablarining vujudga kelishini yoritadi.

Kasb psixologiyasi fanining shakllanish tarixi.

2- savolning bayoni

Psixologik bilimlar juda uzoq o'tmish tarixga ega bo'lsada, lekin u fan sifatida falsafadan XIX asrga kelib ajralib chiqdi. Psixologiyani alohida fan sifatida ajralib chiqishga o'sha davrda kishilik jamiyatida yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar sabab bo'ldi, chunki bular ijtimoiy zaruriyatning taqozosi edi. Amerikada bixeviorizm, Venada Z.Freydning psixoanalizm kabi psixologiya maktablarining vujudga kelishi psixologiya fanining rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shdi. Shu maktablarning hammasi o'zining nuqtai nazariga asoslanib, psixologiya fanining tarkibiy qismlarini o'rganishga harakat qildi.

2-savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Kasb psixologiyasi fanining shakllanish tarixini gapirib bering ?
2. Kasb psixologiyasi fanining vazifalarini ajrating ?
3. Kasb psixologiyasi fanining predmetini ta'riflang ?
4. Bixeviorizm va psixoanalizm maktablarini qiyosiy solishtiring ?
5. Shaxsning kasbiy shakllanish kontseptsiyasini tushuntiring?
6. Kasb psixologiyasining metodologik asoslarini ta'riflab bering ?
7. Kasbiy shakllanishni tushuntiring ?

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan bog'liqligini tushuntirish. Kasb psixologiyasining amaliy asoslarini belgilash, o'quv fanlari tizimida kasb psixologiyasining o'rnini aniqlash.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Kasb psixologiyasi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligini tushuntiradi.
2. Kasb psixologiyasi fanining amaliy asoslarini belgilaydi.
3. Kasb psixologiyasi fanining o'quv fanlari tizimida o'rnini aniqlaydi.

Kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Kasb psixologiyasining amaliy asoslari, o'quv fanlari tizimida kasb psixologiyasi.

3- savolning bayoni

Umumiy psixologiya - umumiy psixologik qonuniyatlar, mexanizmlar, murakkab ichki bog'lanishlar, nazariy va metodologik printsiplar, ilmiy tadqiqot metodlar, psixikaning filogenetik va ontogenetik o'zgarishlarini, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiqot qiladigan soha. Umumiy psixologiya fani asosiy kategoriyalar, tushunchalar, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, individual-tipologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

1. Psixik jarayonlar: sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol va boshqalar.

2. Irodaviy jarayonlar: motiv, motivatsiya, ehtiyojlar, intilishlar, qaror qabul qilish kabilar.

3. Hissiy jarayonlar: his-tuyg'ular, emotsiya, kayfiyat, emotsional ton, stress, affekt singarilar.

Eksperimental psixologiya - bu soha eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qiladi. Psixologiyaning fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida eksperimental tadqiqotlar o'tkazish asosiy rol o'ynagan. XIX asrning o'rtalarida psixologik hodisalar ustidan ilk bor amaliy eksperimental-psixologik tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu fiziologik laboratoriyalarda elementar funktsiyalarni o'rganish orqali, ya'ni ilk bor sezgi va idrokni o'rganish bilan boshlangan. Eksperimental psixologiya fan sifatida ajralib chiqishiga V.Vundt o'zining katta hissasini qo'shgan. Tadqiqotlarning ko'pchiligi T.L.Morgan, E.L.Torndayklar tomonidan olib borilgan..

Mehnat psixologiyasi – bu soha insonning mehnatga munosabatini, mehnat faoliyatining qonuniyatlari va rivojlanishini tadqiq qiladi. Mehnat psixologiyasining ob'ekti ishlab chiqarishda va mehnatda shaxsning faoliyati hisoblanadi. Mehnat psixologiyasi G.Myunsterbergning «Psixologiya va ishlab chiqarish unumdorligi» (1913) va «Psixotexnika asoslari» (1914) kitoblari chiqqan davrdan boshlab alohida soha sifatida vujudga kelgan. Mehnat psixologiyasining asosiy vazifasi ishlab chiqarish munosabatlarini ijobiylashtirish, mehnatkashlarga zarur shart-sharoit yaratib berish, kasbiy kasalliklarning, ishlab chiqarishda jismoniy falokatlarning, psixologik zo'riqishlarning oldini olishdir.

Muhandislik psixologiyasi –bu soha inson va mashina o'rtasidagi munosabatni, insonga mashinaning psixologik ta'sirini va insonning mashina bilan munosabati jarayonining psixologik qonuniyatlarini tadqiqot metodlari yordami bilan o'rganadi. Muhandislik psixologiyasi fan-texnika revolyutsiyasi ta'sirida vujudga kelgan.

Pedagogik psixologiya –bu soha tarbiya va ta'lim muammolarini tadqiq qiladi. Pedagogik psixologiya shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi.

Tibbiyot psixologiyasi - kasallarning davolanishi, gigiena, profilaktika, diagnostika jabhalarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Tibbiyot psixologiyasida tadqiqotlar tizimiga kasalliklarning kechishi, ularning shaxs psixologiyasiga ta'siri o'rganiladi.

Harbiy psixologiya - harbiy faoliyatining inson psixikasiga ta'siri, harbiy faoliyatning xususiyatlarini psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi, tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Jangchi shaxsining psixologik faktorlarini tekshirish harbiy psixologiyasning asosiy muammolaridan biridir.

Sport psixologiyasi sport musobaqalari va mashqlanish faoliyatida inson psixikasining rivojlanishi, guruhiiy munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Sport psixologiyasining asosiy vazifasi sportchilarning psixik va jismoniy kamolotga ta'sir o'tkazuvchi muhim shart-sharoitlarni yaratib berishdir.

Savdo psixologiyasi. Savdo psixologiyasi savdo-tijorat reklamalari, modalar psixologiyasi va shu kabi masalalarni tadqiq qiladi. Ayniqsa, sotuvchi-xaridor munosabati, kishilarga ta'sir o'tkazish, ularda iliq his-tuyg'u, ishonch uyg'otish mexanizmlari, mantiqan ularni muomala jarayonida ishontirish, qiziqtirish, ijtimoiy ahamiyatini tushuntira bilish, nizoli holatlarning oldini olish, xizmatda muloqot madaniyati va uning treninglaridan unumli foydalanish, xaridorlarning psixologik xususiyatlarini anglagan holda munosabatda bo'lish qonuniyatlarini tadqiq etadi.

Yosh psixologiyasi - shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlarini inson tug'ilishidan to umrining oxirigacha bo'lgan davrni, ya'ni ontogenezni o'rganadigan psixologiya sohasi. Yosh psixologiyasi bolalar psixologiyasi sifatida XIX asrning oxirida vujudga kelgan Yosh psixologiyasi hozirgi zamonda bolalar psixologiyasi, o'smirlik va o'spirinlik psixologiyasi, etuklik psixologiyasi, gerontopsixologiyadan iboratdir. Yosh psixologiyasining asosiy vazifalaridan biri bolani psixik rivojlanishining ijobiy shaklda tashkil etilishi, yosh davrlari inqirozi bosqichlari, jarayonlari va paytlarida psixologik yordam ko'rsatish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Ijtimoiy (sotsial) psixologiya bu soha odamlarning ijtimoiy guruhlariga birlashishini va shu guruhlarining tavsifni, shaxsning guruhiiy faoliyati va xulq-atvorini, ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar, holatlar, hodisalar, ijtimoiy ustanovka kabilarni tadqiqot qiluvchi psixologiya sohasi. Sotsial psixologiya bir necha sohalarni o'z ichiga qamrab oladi: din psixologiyasi, oila psixologiyasi, muomala psixologiyasi, kichik guruh psixologiyasi, katta guruh psixologiyasi, modalar psixologiyasi, insonni inson tomonidan idrok qilish psixologiyasi, etnopsixologiya va boshqalar.

Din psixologiyasi - psixologik va ijtimoiy psixologik omillarning diniy ong bilan shartlanganligini, dinning insonga ta'sirini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Din psixologiyasi XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida vujudga kelgan bo'lib, insonni ibodat qilishdagi, diniy an'analarni, rasm-rusumlarni bajarishdagi hissiyot holatlarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Oila psixologiyasi - oilaning psixologiyasini o'rganuvchi psixologiya sohasi sanaladi. Oila psixologiyasi oilaning psixologik muammolarini o'rganadi, u oilaga ta'sir qiluvchi omillarni, oiladagi rollar taqsimlanishi, er-xotin munosabati, shaxslararo munosabat, yosh xususiyatlariga asoslanib muloqotga kirishish kabilarni o'rganadi.

3-savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Psixik jarayonlar va hissiy jarayonlarni ajrating ?

2. psixologik hodisalar ustidan ilk bor amaliy eksperimental-psixologik tadqiqotlar qachon va kim tomonidan o'tkazilgan ?
3. Umumiy psixologiyaning tarmoqlarini ta'riflang ?
4. Kasb psixologiyasining boshqa fanlar bilan bog'liqligini tushuntirib bering
5. Kasb psixologiyasining amaliy asoslarini asoslab bering ?
6. Umumiy psixologiyaning tarmoqlarida kasb psixologiyasining tutgan o'rnini aniqlang ?

To'rtinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga kasb psixologiyasining mutaxassislik fani sifatida ekanligini tushuntirish. Kasb psixologiyasining amaliy asoslarini belgilash, o'quv fanlari tizimida kasb psixologiyasining o'rnini aniqlash. Kasb psixologiyasining muxim aspektlarini ya'ni kasbiy faoliyatning tahlilini, kasbiy maqsadlarni, vaziyatlarni ko'rib chiqish. Kasb psixologiyasida kasbiy talablarni aniqlash.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Kasb psixologiyasining mutaxassislik fani sifatida ekanligini tushuntiradi.
2. Kasb psixologiyasining amaliy asoslarini belgilaydi.
3. Kasb psixologiyasining o'quv fanlari tizimida o'rnini aniqlaydi.
4. Kasb psixologiyasining muxim aspektlarini ya'ni kasbiy faoliyatning tahlilini, kasbiy maqsadlarni, vaziyatlarni ko'rib chiqadi.
5. Kasb psixologiyasida kasbiy talablarni aniqlaydi.

4- savolning bayoni

Kasb psixologiyasi mutaxassislik fani sifatida.

Mexnat psixologiyasi va kasb psixologiyasi predmetlarini fardai alohida ta'kidlash lozim. E.A.Klimov, mexnat psixologiyasiga qo'yidagicha tavsif beradi: mehnat psixologiyasi fan sifatida bu insonning sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatishi va shakllanishi sohasidagi vazifalarni echish usullari, yo'llari va sharoitlarini o'rganuvchi psixologiya yo'nalishidir.

Kasb psixologiyasi shaxsning kasbiy jixatdan shakllanishini o'rganadi. Bunda shaxs rivojlanishi kasbiy shakllanishi sifatida ko'rib chiqiladi. Kasb psixologiyasi mexnat psixologiyasining kasblarni psixologik komponentlarini yoki muayyan kasbda ishlovchilarga nisbatan qo'yiladigan psixologik talablarni o'rganish hamda ilmiy tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi bo'limidan iborat.

Mutaxassislikning turli ijtimoiy - madaniy va ijtimoiy-iktisodiy karashlarida kasbiy xulq muxim ahamiyatga ega. Shaxsning psixomotor motivatsion va kognitiv sifatlariga e'tibor berilgan xolda kasbiy yutuklarga asosiy e'tibor karatiladi. Inson va uning kasbi o'rtasidagi, shuningdek, kasbiy vazifasi va kasblar olami tuzilmasi o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi.

Kasb psixologiyasi inson uchun kasbiy faoliyatning ahamiyatini o'rganib, shaxsning kasbiy shakllanishini tadqiq etadi, shuningdek, yoshlikda kasbiy tasavvurlarni rivojlanishini, kasbiy etuklik determinantalarini ayniqsa, kasbga kirishish va uning hayotga bo'lgan ta'sirini o'rganadi.

Kasb psixologiyasining muxim aspektlari - bu kasbiy faoliyatning tahlili, kasbiy maksadlar, vaziyatlar, qiyinchiliklarini o'rganishi, kasbiy talablarni aniqlashdan iborat.

4-savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Kasb psixologiyasining mutaxassislik fani sifatida ekanligini tushuntirib bering ?
2. Kasb psixologiyasining amaliy asoslarini tushuntiring ?
3. o'quv fanlari tizimida kasb psixologiyasining o'rnini nimalardan iborat deb o'ylaysiz tushuntiring ?
4. Kasb psixologiyasining muxim aspektlaridan kasbiy maksadlarni belgilashni qanday tushunasiz, ta'riflang ?
5. Kasb psixologiyasida kasbiy talablarni yoritib ?

2 mavzu: “Kasb psixologiyasi fanining tadqiqot metodlari” mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi
1	Tayyorlov bosqichi: Dars maqsadi: Kasb psixologiyasining tadqiqot metodlarini tushuntirish. Genetik metodlarni ta'riflash. Praksimetrik metodlarni tavsiflash. Psixosemantik metodlarni ajratish. Eksperimental metodlarni bayon qilish Rangli assotsiativ test metodlarini ko'rsatish. Identiv o'quv maqsadlari. 1. Kasb psixologiyasining tadqiqot metodlarini tushuntiradi. 2. Genetik metodlarni ta'riflaydi. 3. Praksimetrik metodlarni tavsiflaydi. 4. Psixosemantik metodlarni ajratadi. 5. Eksperimental metodlarni bayon qiladi. 6. Rangli assotsiativ test metodlarini ko'rsatadi. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: genetik metodlar, praksimetrik metodlar, psixosemantik metodlar, eksperimental metodlar, sub'ektiv tamoyil, ob'ektiv tamoyil, langityut metodi, biografik metod, psixobiografiya, professiografiya. 1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza 1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs, videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, taqdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarqatma materiallar, vedio tasmlar, slaydlar, vedio proektor, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali materiallar.	O'qituvchi

2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga Kasb psixologiyasining tadqiqot metodlari mavzuga oid muammoli savol beriladi. 3.2. Talabalarning kasb psixologiyasining metodlari haqida fikri eshitiladi va boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Talabalarning genetik metodlar haqida fikri tinglanib, umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosani o'qituvchi bayon qiladi.	O'qituvchi-talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 1. Praksimetrik metodlarni ta'riflang ? 2. Eksperimental metodlarni o'qing va o'rganing. 3. Rangli assotsiativ test metodlarini belgilang.	O'qituvchi, 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi, 10 minut

Asosiy savollar

1. Kasb psixologiyasining tadqiqot metodlari
2. Genetik metodlar.
3. Praksimetrik metodlar.
4. Psixosemantik metodlar
5. Eksperimental metodlar.
6. Rangli assotsiativ test metodlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: genetik metodlar, praksimetrik metodlar, psixosemantik metodlar, eksperimental metodlar, sub'ektiv tamoyil, ob'ektiv tamoyil, langityut metodi, biografik metod, psixobiografiya, professiografiya.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni kasb psixologiyasi fanining tadqiqot metodlari bilan tanishtirish, metodologik tamoyillarni ta'riflash, kasb psixologiyasining metodlarini ajratish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Talabalarni kasb psixologiyasi fanining tadqiqot metodlari bilan tanishtiradi.
2. Kasb psixologiyasining metodologik tamoyillarini ta'riflaydi.
3. Kasb psixologiyasining metodlarini ajratadi.

1-savolning bayoni

Kasb psixologiyasining tadqiqot metodlari
 Kasb psixologiyasi fani quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanadi.

Tadqiqot metodlari (usullari) - bu psixikaning xususiyatlari, qonuniyatlari va mexanizmlari haqidagi yangi ob'ektiv bilimlar olishga yo'naltirilgan maxsus tarzda tashkil topgan faoliyat usullaridir.

Kasb psixologiyasi metodlari asosan ikkita metodologik tamoyillarga asoslanadi:

Sub'ektiv tamoyil - o'zini o'zgartirishga qaratilgan kasbiy shakllanishga erishishni ta'minlovchi tamoyil.

Ob'ektiv tamoyil - psixik xodisalarni tashqi tomonlama anglashning turli tadqiqiy vositalari orqali kasbiy shakllanish belgilarini o'rganishni nazarda tutuvchi tamoyil.

Kasb psixologiyasining metodlari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

№	Tadqiqot usullari guruhi	Tadqiqot metodlari	Tadqiqotning vazifalari.
I	Genetik metodlar.	1.Langityut metodi, 2.biografik metod, 3.psixobiografiya, 4.tahlil qilish metodi	Shaxsning kasbiy shakllanishining psixologik xususiyatlarini tasvirlash.
II	Praksimetrik metodlar.	1.topshiriqlarni tahlil qilish. 2.Hujjatlarni o'rganish. 3. professiografiya 4. kuzatilayotganlarni savol javob orqali o'rganish	Kasblarni psixologik tavsiflash va kasblarning psixologik mazmunini tadqiq etish.
III	Psixosemantik metodlar	1. Maxsus qobiliyatlar testi. 2. muvaffaqiyatlarni o'rganish testi. 3. qiziqishlar bo'yicha savol javoblar. 4.Ta'lim diagnostikasi	Muhim kasbiy ko'rsatkich faoliyat va shaxs belgilarini o'lchash
IV	Eksperimental metodlar	1.Tabiiy eksperiment. 2.laboratoriya eksperimenti. 3.shakllantiruvchi metodlar	Shaxsning kasbiy shakllanishining xususiyatlarini qonuniyat va mexanizmlarini tushuntirish
VI	Rangli assotsiativ test metodlari.		

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni kasb psixologiyasi fanining tadqiqot metodlaridan biri bo'lgan genetik metodlar bilan tanishtirish, Longityud metodini ta'riflash, kasb psixologiyasining metodlarini ajratishni

o'rgatish, kavzometriya va psixobiografiya haqida tushuncha berish. Kasbiy analitik metodni ko'rib chiqish

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Kasb psixologiyasi fanining tadqiqot metodlaridan biri bo'lgan genetik metodlar bilan tanishtiradi.
2. Longityud metodini ta'riflaydi.
3. Kasb psixologiyasining metodlarini ajratishni o'rgatadi.
4. Kavzometriya va psixobiografiya haqida tushuncha beradi.
5. Kasbiy analitik metodni ko'rib chiqadi.

Genetik metodlar.

2-savolning bayoni

Genetik metodlar uzoq vakt davomida shaxs kasbiy rivojlanishining o'zgarishlarini tadqiq etish uchun mo'ljallangan. Kasb psixologiyasida longityud metodi, psixobiografiya, biografik metod, tahlil qilish metodi insonlardagi turli xususiyat va sifatlarni o'rganish maqsadida yillar davomida o'tkaziladi. Longityud metodi psixologiyada XX asrning 20-yillarida shakllana boshladi va asosan psixik jarayonlarning kattalar va bolalarning psixik pragnozini ilmiy jihatdan asoslab berish uchun qo'llanilgan.

Longityud metodi - kasbiy shakllanishda individual yo'lni o'rganishga yordam beradi. Mazkur metod yordamida shaxsning obro' orttirishi uning faoliyatidagi turli xildagi tanqidiy holatlarini aniqlaydi.

Keyingi yillarda (20-30 yil davomida o'tkazilgan) davomli longityud tadqiqotlari jarayonida deyarli qo'llanilmagan.

Longityud metodi bir vaqtning o'zida boshqa metodlarni qo'llanilishini ham nazarda tutadi. Jumladan, kuzatish, savol-javoblar, test, psixografiya kabi. Longityud metodi yordamida olingan natijalar shaxsning yoshiga, ish stajiga, tadqiqot o'tkazilgandagi ijtimoiy iktisodiy sharoitlariga hamda kasbiy faoliyat turiga bog'lik bo'ladi. Longityud metodini kasb psixologiyasida qo'llash orqali shaxs kasbiy shakllanishining individual o'zgarishlarini o'rganish imkonini beradi shuningdek, kasbiy faoliyatda rivojlanish, obrue'tibor qozonishning yo'l-yo'riq. va vositalarini aniklashtiradi.

Longityudni qo'llashdagi qiyinchiliklardan biri sinovda ishtirok etayotganlarni tanlash hamda ularning sonining ko'pligi va kamligida aniqlashdir. Keyingi muammo o'lchovlar o'rtasidagi oralik masofalar farqlanadi. Bu metod orqali insonlarda tadqiqotlar gohida bir yil ayrim ishlarda esa undan ham uzoq vaqtlar oralig'ida o'tkazilgan.

Longityud metodidagi muammolardan biri uning davriyligini kuzatish bo'lib bunda u 5-yildan 50 yilgacha davom etishi mumkin.

Biografik usul - shaxs hayot yo'lini o'rganish va loyihalashtirish usullari, hayotiy dasturlar, kasbiy rejalar, kasbiy shaxsiy shakllanishining yo'nalishlarini ishlab chikishga yunaltirilgan. Biografik usullarga tarjimai hol, ma'lumotlarni o'rganish, kasbiy mehnatdan qoniqish va boshqalarni kiritish mumkin.

Kavzometriya - E.I.Golovaxa va A.A.Kromiklar tomonidan taklif etilgan usul bo'lib, u shaxsning psixologik vaqti va hayotiy sub'ektiv holatlarini tahlilini tadqiq etish metodi hisoblanadi. Bu intervyu qo'yidagi jihatlarni o'z

ichiga oladi: biografik savol-javob, muhim voqealar ruyhatini tuzish, voqealarni keltirib chiqargan sabablarini aniqlash va boshqalardir. Intervyu natijalari kavzometriya shaklida tasvirlanadi. Kavzometriya kasbiy muammo va inqirozlarni echish uchun qo'llaniladi. **Psixobiografiya** -shaxslarning xayot yulini psixologik urganish metodi xisoblanadi. Avval psixobiografiya siyosatchilarining obru-e'tiborini, kishilarning individual kasbiy biografiyalarini o'rganish maqsadida qo'llanilgan. Kasb psixologiyada psixobiografiyani qo'llash orkali shaxsning kasbiy maqsadlarining paydo bo'lishi, kasbiy shakllanishdagi inqiroz hakida qimmatli ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Analitik metodlar - bu insoning mehnat sub'ekti sifatida rivojlanish tarixi haqidagi ma'lumotlarni yig'adi. Bu usul E.A.Klimov tomonidan batafsil ko'rib chiqilgan. Kasbiy analitik metod turi mehnat motivlarini o'rganish tanqidiy voqealarni aniqlash, kasbiy faoliyatda obru-e'tibor qozonishni oldindan tashhis qilishda qo'llaniladi.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni kasb psixologiyasi fanining tadqiqot metodlaridan biri bo'lgan praksimetrik metodlar bilan tanishtirish, Topshiriqlar tahlilini ta'riflash, kasb psixologiyasining metodlarini ajratishni o'rgatish, kuzatishning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rib chiqish. Kasbiy taxlilning muammolaridan biri kritik voqealar metodi haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Kasb psixologiyasi fanining tadqiqot metodlaridan biri bo'lgan praksimetrik metodlar bilan tanishtiradi.
2. Topshiriqlar tahlilini ta'riflaydi.
3. Kasb psixologiyasining metodlarini ajratishni o'rgatadi.
4. Kuzatishning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rib chiqadi.
5. Kasbiy taxlilning muammolaridan biri kritik voqealar metodi haqida tushuncha beradi.

Praksimetrik metodlar.

3-savolning bayoni

Praksimetrik metodlar faoliyat mahsulotlari va jarayonlarini tahlil etish yo'llari bo'lib, bu metodga B.G.Ananov xronometriya, profesioografiya, bajarilgan ishlar va buyumlar bahosini izohlashlarni kiritadi. Kasb psixologiyasining bu guruxida quyidagi usullar muhim ahamiyatga ega.

Topshiriqlar tahlili - bu metod kuzatilayotgan inson va uning yashirin kasb xulkinging yo'nalganligini psixologik jihatlarini tadqiq kiladi. Topshiriqlarni tahlil etish metodini F.Teylor tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, tasvirlash va tahlil etish maqsadida qo'llaniladi.

Topshiriqlarni tahlil etish hamda bajarilgan ishlarni tahlil etish metodi xam muxandislik psixologiyasida keng qo'llaniladi.

M: yozma topshiriqni ko'rsatmasiga asoslangan hollarda bajarish, klaviaturadan foydalanish, konsultatsiyalarda qo'l ostidagi ishchilarning

mikdorini va boshkalar. Bundan tashqari bu metod ishchilarni tanlash muammosini hal etishda qo'llaniladi.

Kasbiy taxlilning yana bir muammosi kritik voqealar metodidir. Uning mohiyati shundaki, tadqiqotchi ishchining qoniqarsiz xulqini kuzatadi va tasvirlaydi.

Hujjatlarni o'rganish metodi - mehnat jarayonida ishchilarning tarkibini aniqlash ularning kasbiy tayyorgarligi va malakasi to'g'risidagi ob'ektiv ma'lumotlarni yig'ish metodi xisoblanadi. Bu ma'lumotlar quyidagi hujjatlardan olinadi:

- ♦ Ishchilarning harakatlarini tasvirlovchi texnologik kartalar, ishning bajarilish usullarini sifatiga qo'yiladigan talablar;

Insonga psixofiziologik va psixologik ta'sir ko'rsatadigan asboblarning texnik tavsifnomasi;

- ♦ Yoshi, staji, ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi, kadrlar qo'nimsizligining sabablari va hokazolar haqidagi ma'lumotlar;

- ♦ Ishlab chiqarishdagi avariya va travmalar shuningdek, ishchilar sog'lig'i ularning ish jarayonidagi holati to'g'risidagi ma'lumot.

Mehnat metodi - bu kasbiy faoliyatni to'g'ridan-to'g'ri ish joyida kuzatishga qaratilgan tadqiqot metodidir. Bu usullarning afzalligi kasbiy realikka minimal darajada yaqin bo'lishidir.

KUZATISH – ma'lumotlarni, psixik hodisalarning qayd etish yo'llarini aniqlash va ularni gruppalashdan iborat. Kuzatish ikki turda bo'ladi: formallashtirilgan kuzatuv va erkin kuzatuv. Erkin kuzatuv tadqiqotning boshlang'ich bosqichlarida o'tkaziladi, bu esa o'rganilayotgan masala mohiyatiga chuqurroq kirib borish imkonini beradi.

formallashtirilgan kuzatuv standart dastur asosida olib boriladi hamda unutilayotgan voqealar bayonnomada qayd etilgan xolda alohida elementlarga bo'linadi.

Kuzatishning tadqiqot metodi sifatidagi xususiyati shunda-ki, ma'lumotlarni to'plash, turli sezgi organlari yordamida amalga oshiriladi, masalan! ko'rish, eshitish, hid bilish va xokazo. Chunki kasbiy faoliyatda xidlar, shovqinlar va shunga o'xshash holatlar tez kuzatiladi va ular sinovdagilarning psixik holatiga hamda faoliyat maxsuldorligiga, mehnatdan qoniqishlariga ta'sir etadi.

Kuzatilayotgan jarayonda tadqiqotchining ishtirok etish darajasiga ko'ra, **kiritilgan kuzatish** va **tomonli kuzatishga** ajratiladi. Kiritilgan kuzatuvda tadqiqotchi guruh tarkibiga kirib, shu guruhning barcha faoliyat turlarini ajratadi. Tomonli kuzatishda tadqiqotchi kuzatilayotgan xodisalardan chetda turib kino yoki videokameraga tushirgan xolda psixik xodisalarni tahlil qiladi.

Kasb psixologiyasining tadqiqot metodi sifatida kuzatish ish o'rnini tashkil etish va umuman faoliyatdagi vaziyatga baho berish, sinovdagilarning kirishimlilik xususiyatlarini tahlil qilish, uning kasbiy xulki, kasbiy ta'limi va malakasiga baho berishda qo'llaniladi.

Kuzatishning salbiy tomoni olingan ma'lumotlarning etarli darajada ishonchli emasligi hisoblanadi, chunki, tadqiqot paytida ba'zi xodisalar kup uchraydi va kuzatilayotgan voqealarga aralashib ketish ehtimoli mavjud

bo'ladi. Kuzatish paytida sinovdagilarga tadqiqot vazifalari haqida ma'lumot berishga to'g'ri keladi, bu esa ularning kasbiy xulki va faoliyatiga o'zgartirish kiritishlariga olib keladi. Undan tashqari, ishchilar, rahbarlar ham tadqiqot natijalari ularning ish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishidan qo'rqishadi.

To'rtinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni kasb psixologiyasi fanining tadqiqot metodlaridan biri bo'lgan psixosemantik metodlar bilan tanishtirish, Psixosemantik metodlarning vazifalarini ajratish. Psixometrik usullarni ta'riflash, test metodini ko'rib chiqish. Test o'tkazish bosqichlarini bayon qilish. An'anaviy intellektual testlarni tasniflash.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Psixosemantik metodlar bilan tanishtiradi.
2. Psixosemantik metodlarning vazifalarini ajratadi.
3. Psixometrik usullarni ta'riflaydi.
4. Test metodini ko'rib chiqadi.
5. Test o'tkazish bosqichlarini bayon qiladi.
6. An'anaviy intellektual testlarni tasniflaydi.

Psixosemantik metodlar

4-savolning bayoni

Psixosemantik metodlar psixik voqea va xodisalarning mikdoriy tomonining nisbati va tavsiflarini o'rganadi. Psixosemantik metodlarga psixometriya kiradi. Psixometriyaning muhim belgisi psixik jarayonlarning individual farqlar, empirik dalillar dinamikasini parametrlarini o'lchash texnologiyasining standartlashganligi Psixometriya ishonchliligi bilan ajralib turuvchi psixodiagnostika metodikalarini yaratishga yo'naltirilgan. Psixometrik usullar tarkibiga psixologik testlar ham kiradi.

TEST - psixologik diagnostik metod bo'lib, u ma'lum ma'noga ega bo'lgan standart savol va masalalardan iborat. Test intellektual qobiliyatlarni, shaxsning psixofiziologik xususiyatlari va sifatlarining rivojlanishini, kasbiy layoqatini aniqlash, kasbiy ekspertiza va reabilitatsiya shuningdek, kasbiy maslahatlar jarayonida qo'llaniladi.

Test o'tkazish 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Test savolnomasini tanlash (tadqiqot masalasi bilan belgilanadi);
2. Test o'tkazishda etika normalariga rioya qilgan holda ko'rsatmalarga muvofiq tashkil etish;
3. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va natijalarni o'rganish. Kasb psixologiyasida maxsus qobiliyatlarning diagnostikasi va kasbiy yutuqlar muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy intellektual testlar akademik qobiliyatlarni o'rganishga qaratilgan. Bo'sh o'rinlarga nomzodlarning kasbiy tanlovlari uchun ishonchli usullarga bo'lgan ehtiyoj psixologlarning maxsus qobiliyatlarini diagnostika qilish uchun test ishlab chiqildi. Bu testni ishlab chiqishdan maqsad ishlab chiqarishning turli sohalarida ishchilarning oldiga o'ziga xos talablarni qo'yadigan kasbiy tanlov, kasbiy maslahat, kadrlarning joylashuvini, bo'sh o'rinlarni to'ldirish maqsadida muhim kasbiy

psixofiziologik xususiyatlarni psixologik sifatlarni, kasbiy malakalarni aniqlash imkonini beruvchi test yaratish edi.

Kasbiy yutuqlarni aniqlash testi faoliyatning ma'lum bir turini eg darajasini ulchash yoki kasbiy tayyorgarlik natijalarini tashxis kil maksadida kullaniladi.

Beshinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni kasb psixologiyasi fanining tadqiqot metodlaridan biri bo'lgan eksperimental metodlar bilan tanishtirish, eksperimental metodlarining sifatini ajratish. Eksperimental usulning 3 turini ta'riflash, test metodini ko'rib chiqish. Modellashtiruvchi eksperimentni bayon qilish. Laboratoriya eksperimentini va shakllantiruvchi eksperimentni qiyosiy solishtirish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Eksperimental metodlar bilan tanishtiradi.
2. Eksperimental metodlarining sifatini ajratadi
3. Eksperimental usulning 3 turini ta'riflaydi.
4. Test metodini ko'rib chiqadi.
5. Modellashtiruvchi eksperimentni bayon qiladi.
6. Laboratoriya eksperimentini va shakllantiruvchi eksperimentni qiyosiy solishtiradi.

Eksperimental metodlar.

5-savolning bayoni

Eksperimental metodlar - psixologik reallik mexanizmi va qonuniyatlarini o'rganish buyicha asosiy metodlar hisoblanadi. Eksperimental metodlarning asosiy mohiyati nazorat qilinadigan va boshqariladigan sharoitlarda yangi ilmiy bilimlarni olishga qaratilgan. Eksperimentning asosiy nomutaxassislik vazifasi — sabab va natija aloqalarini o'rganish va psixologik jarayonlar va xodisalarni tushuntirishdan iborat. Eksperiment o'tkazishda farq va rozilik kridasini qo'llaydilar (J.S.Mill)

Eksperimentning mazmuni shundan iboratki nazoratchi uchun muhim (shaxs qobiliyatlarini tashhis qilib beruvchi (diqqatni jamlay olish, mustaqillik, sensor farklash darajasi, keng fikrlash) test loyihalashtiriladi. Testda tanlovchilar orqali nazoratchilarning eksperimental guruhi tuziladi. Eksperimental va nazorat guruxi ishlarini korreksion tahlil qilish asosida tasdiqlash, testning samaraliligini va ishtirokchilarni tanlash va tayyorlash metodikasini aniklash imkonini beradi.

Psixologik tadqiqotlarda eksperiment natijalarini miqdoriy ifoda qilish masalasi eng qiyin masala hisoblanadi. Shuning uchun mikdoriy ma'lumotlar, odatda, absolyut emas, balki nisbiy ahamiyatga ega.

Eksperimentni o'tkazishda o'rganilayotgan jarayon o'tadigan sharoitlarni keng miqiyosda o'rganiladi o'rganish jarayonida o'zgaruvchan omillar ta'sirini ajratish, ularning o'zaro aloqasini aniqlash va shu tariqa psixik xodisalarning qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rgatish mumkin.

Eksperiment metodining muhim sifati shundaki-o'rganilayotgan jarayoniga to'g'ri baho berish, ma'lumotlarning miqdoriy hisobini olish imkonini beradi, bu esa tadqiqot natijalariga ishlov berish muhim statistik xulosa chiqarishga imkon beradi.

Eksperimental usulning 3 turi mavjud: tabiiy, modellashtiruvchi va laboratoriya eksperimentlaridir. Tabiiy eksperiment psixik xodisalarni odatiy tabiiy sharoitlarda o'rganishni nazarda tutadi (darsda, mehnat topshiriqlarini bajarish jarayonida va xokazo). Tabiiy eksperimentning afzalligi - tadqiqot maqsadlarining nisbatan yashirinligi, jarayonning norasmiy muhitda o'tishi va sinovdagilarning hayoti va faoliyatiga bevosita kirib borishi bilan belgilanadi.

Modellashtiruvchi eksperiment ayrim mehnat jarayonlarining nazariy dinamikasi va murakkabligi tufayli real texnik moslamalarni odatiy ish tartibidagi usullarni o'rganib bo'lmaganligi tufayli qullaniladi. Bu jarayonlar anglanilgan holda o'rganilayotgan mehnat jarayonida ishning muvaffaqiyatini belgilab beruvchi uning tarkibiy qismlariga ajratiladi, bu faoliyatni amalga oshirish uchun sun'iy sharoitlar yaratiladi va shu tariqa modellashtirilgan sharoitlarda murakkab mehnat jarayoni o'rganiladi. Modellashtiruvchi eksperiment shaxsning kasbiy shakllanish jarayonidagi muhim kasbiy sifatlarni o'rganishda qo'llaniladi. Laboratoriya eksperimenti tadqiqotlarni maxsus asbob-uskunalar bilan jihozlangan psixologik laboratoriyada o'tkazishni nazarda tutadi. Eksperimentning bu turi odatda elementar psixik funktsiyalarni o'rganish maqsadida qo'llaniladi ya'ni, sensor va motor reaksiyalari tanlov reaksiyalari va boshqalarni kiritish mumkin. Insonning ish-harakatlarini o'rganish borasida oxirgi 20 yil mobaynida videotexnika va turli antik mexanik moslamalar rivojlanishining yuqori darajasiga ko'tarilgan. Bu bir tomondan videoga tushirish kabi usullarni keng qo'llashga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomonda tayyorlov ishlari ya'ni, eksperimentni o'tkazish va materiallarni tahlil etish kabi ishlarni engillashtirishga xizmat qiladi.

Shakllantiruvchi eksperiment - bu usulning asosiy belgisi V.

Davidovning "psixikaning u yoki bu empirik shakllarining xususiyatlarini oddiygina ta'kidlab emas, balki ularni faol modellashtirib maxsus sharoitlarda namoyon etib, ular mohiyatini ochib berishi" kerak degan fikr bilan belgilanadi.

Shakllantiruvchi eksperiment usullarini qo'llash o'quv-kasbiy jarayonlarning ma'lum tavsiflarini o'zgartirish va shu o'zgarishning ta'lim oluvchilarning yosh, intellektual xususiyatlariga bo'lgan ta'siri bilan bog'liq mohiyatiga ko'ra, bu usul keng tadqiqot utkazish vositasi sifatida bosh usullarni kullash orkali o'tkaziladi.

3 Mavzu:

“ Kasblar va ularning klassifikatsiyasi ” mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruv chi shaxs,
1	Tayyorlov bosqichi:	O'qituv

	Dars maqsadi: Kasb tushunchasini berish. Shaxs qiziqishlari va kasbning o'zaro bog'liqligini tushuntirish. Kasblarni psixologik tizimlash. Professiografiyaning mohiyatini ko'rib chiqish va uning asosiy tamoyillarini bayon qilish. Professiografik tadqiqotlarni o'tkazishni o'rgatish. Identiv o'quv maqsadlari. 1. Kasb tushunchasini beradi. 2. Shaxs qiziqishlari va kasbning o'zaro bog'liqligini tushuntiradi. 3. Kasblarni psixologik tizimlaydi. 4. Professiografiyaning mohiyatini ko'rib chiqadi ish va uning asosiy tamoyillarini bayon qiladi. 5. Professiografik tadqiqotlarni o'tkazishni o'rgatadi. 1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Kasb klassifikatsiyasi, shaxs, mutaxassislik, kasb, mashg'ulot, inson – tabiat, inson - texnika texnik, mexanik, muxandis mexanik, muxandis elektrik, texnik texnolog inson – inson, ijtimoiy tizimlar, ahlokiy guruxlar, inson - belgilar tizimi. Tabiiy va sun'iy tillar, shartli belgilar, ramzlar, rakamlar, dasturchi, chizmach, inson - badiiy obraz dekarator, rassom - restavrator, gnostik kasblar, o'zgartiruvchi kasblar, qidiruvli kasblar. 1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs, videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, taqdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarqatma materiallar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali materiallar.	chi
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga kasbga oid muammoli savol beriladi. 3.2. Talabalarining kasblarga oid fikri eshitiladi va boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Talabalarining professiografiya haqida fikri tinglanib, umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosani o'qituvchi bayon qiladi.	O'qituvchi-talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 1. Kasb tushunchasini ta'riflang ? 2. Professiografiyaning psixologik xususiyatlarini o'qing va o'rganing. 3. Professiografik tadqiqotlarning rolini belgilang.	O'qituvchi, 15 minut

5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi, 10 minut
---	---	---------------------------------------

Asosiy savollar

1. Kasb tushunchasi. Shaxs qiziqishlari va kasb.
2. Kasblarni psixologik tizimlash.
3. Professiografiya haqida tushuncha.
4. Professiografiyaning mohiyati va uning asosiy tamoyillari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Kasb klassifikatsiyasi, shaxs, mutaxassislik, kasb, mashg'ulot, inson – tabiat, inson - texnika texnik, mexanik, muxandis mexanik, muxandis elektrik, texnik texnolog inson – inson, ijtimoiy tizimlar, ahlokiy guruxlar, inson - belgilar tizimi. Tabiiy va sun'iy tillar, shartli belgilar, ramzlar, rakamlar, dasturchi, chizmach, inson - badiiy obraz dekarator, rassom - restavrator, gnostik kasblar, o'zgartiruvchi kasblar, qidiruvli kasblar.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni kasb tushunchasi bilan tanishtirish. Shaxs qiziqishlarini va kasbning ahamiyatini tushuntirish. Kasb faoliyati ichida shaxslar o'rtasida o'rnatilgan ma'lum aloqalar va axloq normalarini ta'riflash. Mutaxassislik haqida tushuncha berish. Kasb klassifikatsiyasini bayon qilish. Shaxsning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorgarligi va shaxsning kasbiy faoliyatga bevosita ayni vaktdagi tayyorgarligini qiyosiy solishtirish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Kasb tushunchasi bilan tanishtiradi.
2. Shaxs qiziqishlarini va kasbning ahamiyatini tushuntiradi.
3. Kasb faoliyati ichida shaxslar o'rtasida o'rnatilgan ma'lum aloqalar va axloq normalarini ta'riflaydi.
4. Mutaxassislik haqida tushuncha beradi.
5. Kasb klassifikatsiyasini bayon qiladi.
6. Shaxsning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorgarligi va shaxsning kasbiy faoliyatga bevosita ayni vaktdagi tayyorgarligini qiyosiy solishtiradi.

1 savolning bayoni

Kasb tushunchasi. Shaxs qiziqishlari va kasb.

Kasb tushunchasi — kasbshunoslikning asosiy kontseptual bosh tushunchasidir. Kasb tushunchasiga adabiyotlarda xilma xil tavsiflar juda ko'p. Avvalambor kasb maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi, inson doim tajribadan o'tkazuvchi va unga yashash uchun manba bo'lib xizmat kiluvchi mashg'ulotdir. Kasb bir xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi kishilarni birlashtiradi. Kasb faoliyati ichida shaxslar o'rtasida ma'lum aloqalar va axloq normalari o'rnatiladi. Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolarini ijtimoiy birlashtirishning alohida shakli hisoblanadi. Kasbda shaxslarning hatti harakatlari va kasbiy ongi birlashadi.

Kasb" tushunchasi "mashg'ulot" tushunchasidan farq qiladi. "Kasb" atamasi kasbiy faoliyatning fakatgina yukori statusli turlariga nisbatan

ishlatiladi. Boshka faoliyat turlari mutaxassisliklarga yoki ish, mashg'ulot turlariga tegishli bo'ladi. Kasb mutaxassislikdan ko'ra kengroq tushuncha bo'lib, kasbiy salohiyatidan tashqari, muhim sifatlarga ham ega. Kasb odatda yaqin mutaxassisliklar guruxini birlashtiradi. Masalan, shifokorlik kasbi, quyidagi mutaxassisliklarni birlashtiradi - terapevt, pediatr akulist, urolog, onkolog muxandislik kasbi - mutaxassisliklari - konstruktor, texnolog, metallurg va xokazolar.

Mutaxassislik - kasbiy ta'lim, tayyorgarlik yo'li bilan ish jarayonidagi maxsus bilimlar, ko'nikma va malakalar kompleksi bo'lib, ular u yoki bu kasb doirasida ma'lum faoliyat turini bajarish uchun zaruriy xisoblanadi. Shunday kilib, mutaxassislik - kasb ichdagi kasbiy faoliyat turi bo'lib, u shaxsiy yutuklarga yoki o'ziga xos vaziyatlar orqali umumiy natijalarga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Kasb klassifikatsiyasi uchun asos qilib tanlangan belgi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Tanlangan kasb belgisi o'zgarmas, muntazam bo'lishi.
2. Tanlangan kasb belgisi barchaga tushunarli.
3. Tanlangan kasb belgisi aniq, yorqin bo'lishi.
4. Tanlangan kasb belgisi bitta belgi bo'yicha faqat bitta guruhga tegishli bo'lishi.

Ushbu talablarning biriga javob bera olmasa, bu kasb belgisini klassifikatsiya qilish uchun asos bo'la olmaydi.

Insoniyat rivojlanishida kasbiy faoliyat turlariga Misrda qadimiy Gretsiyada (Yunoniston), Rim imperiyasi va boshka rivojlangan davlatlarda ahamiyat berilgan. Bugungi kunda sanoatning rivojlanishi kasblar ro'yxatini yangilanishiga va kengayishiga olib keldi. Ma'lumotlarda ko'rsatilishicha 1965 yilda AQShda alifbo tartibida 21741 ta kasb va 400 ta mutaxassisliklar ruyxatga rlingan. Xalkaro kasblarni tizimlash standarti bo'yicha 1988 yilda 9333 kasb ruyxatga olingan. Yagona ta'rif malaka ma'lumotnomasi 7000 ga yaqin kasb va mutaxassisliklarni birlashtiradi. Bu maxsus xujjatlar ularning tizimli paytidagi kasbiy vaziyati aks ettiriladi. Vaqt o'tgan sayin kasblar dunyosi dunyosi doim uzgarib turadi, yangi kasblar paydo bo'ladi, kasblarning

Xarakterining o'zgarishi mehnat mazmunini yangilaydi, natijada, past malakali mehnat kasblari yo'qolib boradi. Kasblar nomi ko'pincha o'zgarib to'radi va o'zida yillar davomida shakllangan mehnat xarakterini aks ettiradi. Bizga ma'lumki ayrim kasblar va mutaxassisliklar nomini o'zgartirmasa ham bo'ladi: shifokor, o'qituvchi, muxandis, muxarrir, zargar, agronom va xokaza. Ularning mehnat mazmuni o'zgaradi, ammo kasbning nomi uning mohiyatini anglatadi va mehnat maxsuldorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yangi kasblar nomini kiritish zaruriyati kelib chiqadi. 1979 yildan buyon Ekaterinburg shaxrida kasb bilim yurtlari uchun mutaxassislar tayyorlanadi - ya'ni **muxandis pedagoglar** ammo rasmiy ma'lumotnomalarda bunday kasb yoki mutaxassislik mavjud emas.

Psixologlar M.I.Dyachenko va A.M.Stolyarenkolar mutaxassisning kasbiy tayyorgarligiga sabab ikkita uzaro bog'lik bo'lgan tomonlarni ko'rsatishgan

1. Shaxsning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorgarligi bu tayyorgarlikka kasbiy faoliyatning psixik asoslari, bilim, kunikma, malakalar, shaxsning sifatlari uning munosabati, mazmun va kadriyatlar, afzalliklari hamda umuman shaxsning zarur bo'lgan kasbiy imkoniyatlari

2. Shaxsning kasbiy faoliyatga bevosita ayni vaqtdagi tayyorgarligi. Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligining ushbu tomoni tezkorligi, o'zgaruvchanligi, har qanday holat va sharoitda aniq masalalarni echish, mutaxassisning ruhiy va jismoniy holati, jamoadagi ma'naviy psixologik muxitga bog'likligi.

Mutaxassisning bevosita psixologik tayyorgarligi dastlabki tayyorgarlikni faollashtirish natijasi sifatida ishtirok etadi. Mutaxassisning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorgarligi bevosita ayni vaqtdagi tayyorgarligining asosi hisoblanadi. Shuning uchun mutaxassislarni oliy o'kuv yurtida tayyorlash unda kasbiy faoliyat uchun etarli bo'lgan sifatlarni shakllantirish lozim.

Mutaxassis kasbiy tayyorgarligining asosiy va eng murakkab tomoni (psixologik tomoni) - mutaxassis ruxiyatining kasbiy tayyorgarligi xisoblanadi. Bu mutaxassisning psixikasi ruxiy kuchlarining kasbiy masalalarni hal etishga o'zining vazifalarini bajarishga tayyorligi va yo'nalganligi darajasidir. Hozirgi zamoy mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida uning kommunikativ tayyorligi alohida ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik mutaxassisda odamlar bilan kasbiy muhit o'rtasida yaqin aloqalar yaratishga, xodimlar va raxbarlar o'rtasida uzaro munosabatlarni o'rnatishga va rivojlantirishga qodirligi kuzda tutiladi. Shaxsning kommunikativ tayyorligi fakatgina etarlicha darajada rivojlanganligi u so'z va tildan to'g'ri foydalanishni bilganidagina mavjud bo'ladi. Shaxsning nutkiy madaniyati uning fikrlash madaniyati rivojlanganligining ko'rsatkichi hisoblanadi! Shuning uchun mutaxassisning shaxsiy va kasbiy kamol topishini muxim shartlaridan biri uning kasbiy nutkiy madaniyatini rivojlantirish xisoblanadi.

Mutaxassisning kommunikativ tayyorgarligi deganda uning empativligi, xushmuomalaligi, o'rtoqlik hissining shakllanganligi, jamoatchilikni rivojlantirishni bilishi, kasbdoshlari bilan o'zaro aloqalar hamda munosabatlarga tayyorligini va kodirligini, yuzaga kelgan kiyinchiliklarni to'g'ri xal eta olishni bilishi, ishda, xodimlar, kasbdoshlari bilan munosabatlarda murosaga kelishni bilishi kuzda tutiladi.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni kasblarni psixologik tizimlash tushunchasi bilan tanishtirish. Psixologik tizimlashning xususiyatini bayon qilish. Kasb turlarining mexnat ob'ktiga kura turlarini ajratish.

Gnostik kasblarni ko'rib chiqish. O'zgartiruvchi kasblar va qidiruvli kasblarni tasniflash.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Kasblarni psixologik tizimlash tushunchasi bilan tanishtiradi.
2. Psixologik tizimlashning xususiyatini bayon qiladi.
3. Kasb turlarining mexnat ob'ktiga kura turlarini ajratadi.

4. Gnostik kasblarni ko'rib chiqadi.
5. O'zgartiruvchi kasblar va qidiruvli kasblarni tasniflaydi.

2 savolning bayoni

Kasblarni psixologik tizimlash.

Kasblarni psixologik tizimlash kasbga yo'naltirish ishlari uchun mo'ljallangan. Kasblar olami juda keng bo'lib, unda 20 mingdan ortiq kasb va 40 mingga yaqin mutaxassisliklar mavjud. Ularning turli belgilariga ko'ra tizimlash mumkin. Psixologik tizimlashning xususiyati shuki, bunda ijtimoiy - iktisodiy va texnologik belgilardan voz kechiladi.

Kasblarni psixologik tizimlash kasbiy qiziqishlar, qobiliyatlar tashxisini ta'minlab berishi lozim. Shunda kasblarni guruhlariga birlashtiruvchi psixologik muammosi kelib chikadi. Asosiysi, kasblarni tizimlash shaxsining qoniqtiruvchisi kasb tanlash, ya'ni kasbiy tanlovini engillashtiradi. Bunga ko'ra anik bir faoliyatni bajara oladigan shaxslargina kasbiy tanlovni amalga oshirishi mumkin. Bunday yondashishlar ko'pgina psixologlarning tadqiqotlarida kuzatiladi.

Kasblarni tizimlashning muhim muammosi - bu kasbni tavsiflovchi ma'lumotlarni to'plash usullaridir. Ular kuzatish, faoliyatini mustakil bajarish (mexnat metod), ishchilar bilan savol-javob iborat.

Kasblarni tizimlash bo'yicha bir necha bor urinishlar bo'lgan. Dastlab, 1953 yilda D Paterson tomonidan ishlab chiqilgan.

Kasblarni tizimlashga to'xtalib o'tamiz. U juda keng tarkalgan bulib, tizimlash asosini 9 ta turli qobiliyatlar tashkil etadi. Kasbshunos psixologlar tomonidan 432 ta kasb tanlab olinib, qo'yidagi 7 ta guruxga ajratilgan. Akademik, mexanik, ijtimoiy, diniy, musikaviy, artistlik va jismoniy guruxlardir.

Mexnat ob'ktiga kura 5 ta kasb turlari ajratiladi.

1. Inson - tabiat (T). Bu tur namoyondalari o'simlik va hayvonot mikroorganizmlar va ular yashash sharoitlari bilan ishlashadi. Masalan, meva - sabzavot ustasi, agronom, zootexnik, vetenar, mikrobiolog.
2. Inson - texnika (T). Ishchilar jonsiz texnik mehnat ob'ektlar bilan ishlashadi; Masalan, texnik, mexanik, muxandis mexanik, muxandis elektrik, texnik texnolog va xakoza.
3. Inson - inson (I) bunda ijtimoiy tizimlar, ahlokiy guruxlar, turli yoshdagi insonlar bilan ishlash nazarda tutiladi. Masalan, oziq - ovqat maxsulotlarini sotuvchisi, sartarosh, shifokor, o'kituvchi va boshkalar.
4. Inson - belgilar tizimi. Tabiiy va sun'iy tillar, shartli belgilar, ramzlar, rakamlar, formulalar kasb turi namoyondalarini qiziktiruvchi predmetlar olami va boshkalar. Masalan, dasturchi, chizmach, matematik, tilshunos, nashriyot muxarriri.
5. Inson - badiiy obraz (B). Xodisalarni badiiy aks etishi dalillari mana shu narsalar bu kasb turi vakillarini kiziktiradi. Masalan, rassom dekarator, rassom - restavrator, musika asboblarini sozlovchi, balet artisti, kontsert ijrochisi, aktyor va boshkalar.

Bu beshta kasb turlari maksadlar beltisiga kura 3 ta sinfga bo'linadi.

1. Gnostik kasblar (G) (kadimgi yunonchadan "gnosiz" bilim);
2. O'zgartiruvchi kasblar;
3. Qidiruvli kasblar;

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga professiografiya haqida tushuncha berish, professiografiyaning mohiyatini yoritish. Professiografiyaning asosiy tamoyillarini tushuntirish tanishtirish. Profesiogrammaning muhim tarkibiy qismi – psixogramma haqida tushuncha berish. Professiografiyaning tuzilishini bayon qilish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Professiografiya haqida tushuncha beradi.
2. Professiografiyaning mohiyatini yoritadi.
3. Professiografiyaning asosiy tamoyillarini tushuntiradi.
4. Profesiogrammaning muhim tarkibiy qismi – psixogramma haqida tushuncha beradi.
5. Professiografiyaning tuzilishini bayon qiladi.

3 savolning bayoni

Professiografiya haqida tushuncha, professiografiyaning mohiyati va uning asosiy tamoyillari

1920 yillarning ikkinchi yarmida rus psixotexniklari tez suratlarda kasbiy faoliyatning tamoyil va usullarini ishlab chikdilar. Shu tadkikotlarni umumlashtirilishi natijasida psixotexnikada maxsus yondoshuv professiografiyani shakllanishiga olib keldi. Bu yondashuvning mohiyati - "kasblar tasviri"dir. Professiografiya kasbning psixologik tavsifi va loyixalashtirishini o'z ichiga oladi.

Professiografiyada ma'lum mehnat jarayonini tashkil etuvchi ob'ektlar belgilari, mehnat sub'ekti, mehnat predmeti vazifalari, vositalari va sharoitlari o'rganiladi.

Professiografiyaning asosiy tamoyillaridan biri kasbiy faoliyatni urganishda **differentsial yondashuv tamoyili** xisoblanadi. Bu tamoyilning mohiyati professiografiyaning anik amaliy masalalarini echishga bo'ysunishidir. Masalan, kasbiy konsultatsiya va kasbiy tanlov uchun shunday kasbiy muxim belgilarni ajratish kerakki, ular sinovdagilarning kasbiy layokatiga ko'ra farkanishi lozim. Malaka darajasini anikdash uchun mehnat vazifalari, kasbiy bilim, malaka, kunikma tavsifi mo'him ahamiyatga ega.

Professiografiyaning differentsial tamoyili kasbning o'rganish usullarini uning tavsif, mazmuni, shuningdek, qo'llanilish sohasi ya'ni professiografiya o'tkazish xususiyatlari uning maqsadlari bilan belgilanadi. Maqsadlari quyidagi faoliyat soxalari bilan bog'langan bo'lishi mumkin:

- 1) Ishchilar attestatsiyasi.
- 2) Ligi kasblar mutaxassisliklarni loyixalashtirish.
- 3) Optantlar profkonsultatsiyasi va mutaxassislar tanlovi.
- 4) Kasbiy ta'lim malaka tayyorgarligi va malaka oshirishni takomillashtirish.
- 5) Shaxs kasbiy rivojlanishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar.

Professiografiya natijalari professiogrammada aks etadi, u mehnat sharoitlari tasviri, ishchining xukuk va majburiyatlari, muhim kasbiy sifatlari shuningdek, sog'ligiga qarshi ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi.

Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi - psixogramma bo'lib, u mutaxassisning motivatsion, iroda va emotsional sohasining tavsifi hisoblanadi. Psixogramma - kasbning psixologik portreti bo'lib, u aniq kasbda dolzarb bo'lgan psixologik funktsiyalar guruhi bilan namoyon bo'ladi.

Psixogramma

1. Umumiy mehnat tavsifi:
2. Ish kuni va sur'ati.
3. Mehnat dinamik omillarining tasviri va baxolashi (ishga layokat, tolikish, ishonchlilik, xatosizlik va boshkalar).
4. Mehnat sharoitlarini ish jarayonining dinamik jarayonlariga ta'siri.
5. Ish joyi va mehnat xarakatlarining psixologik tavsifi.
6. Ishchining xato bajarilgan xarakatlarining psixologik tahlili.

Professiografiyaning tuzilishi :

1) Ishlab chiqarish jarayoni bilan umumiy tanishish uni o'rganish va tasvirlash.

2) Ish o'rinlarini tasvirlash, ish o'rnidagilarning faoliyatini psixologik tomondan kuzatish.

3) Ishxonada ish-xarakatlarining psixologik, fiziologik va antropometrik taxlili.

4) Mehnat jarayonining taxlili.

5) Ish kunining sur'ati xronometraj.

6) Faoliyatning individualligini o'rganish.

7) Xatoli xarakatlarni aniqlash va tahlil qilish.

8) Sanitariya - gigienik mehnat sharoitlarini baholash.

9) Bir smena, hafta, uzoq davr manbaida ish kobiliyatining dinamikasi.

Professiografiyalar turli mazmuniga ega. Bu ular nima maksadlarda

tuzilganligiga bog'lik.

E.M.Ivanova professiografiyaning 4 ta guruxini taklif etadi: ma'lumotli, diagnostik, prognostik va metodik.

Informatsion (ma'lumotli) professiografiya oktantlar, ya'ni, kasb tanlash zaruriyati oldida turgan shaxslar bilan kasbiy maslaxat ishlari uchun muljallangan. Ular katoriga ukuvchilar, kasb bilim yurtlari bitiruvchilari, ishsizlar va kasblarni almashtirmokchi bulganlar kirishi mumkin.

Informatsion professiografiya ishlari maxsus kasbiy adabiyotlarni taxliliy va xujjatlarni urganish orkali amalga oshiriladi.

Diagnostik professiografiyalash mehnat samaradorligining pastligi maxsulot sifatining pastligi, avariya xolati, travmatizm, kadrlar qo'nimsizligi sabablarini aniklash uchun utkaziladi.

4- mavzu:

“Shaxs psixologiyasi va kasbiy shakllanish” mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruv chi shaxs, vaqt
1	Tayyorlov bosqichi: Dars maqsadi: Shaxsning biogenetik va sotsiogenetik nazariyalarini o'rgatish. Shaxs faolligini tekshirish. Kasbiy shakllanish tarixini bayon qilish. Shaxsning kasbiy shakllanishi determinatsiyasini ishlab chiqish. Shaxsning kasbiy rivojlanishning bosqichlarini ko'rib chiqish. Identiv o'quv maqsadlari. 1. Shaxsning biogenetik va sotsiogenetik nazariyalarini o'rgatadi. 2. Shaxs faolligini tekshiradi. 3. Kasbiy shakllanish tarixini bayon qiladi. 4. Shaxsning kasbiy shakllanishi determinatsiyasini ishlab chiqadi. 5. Shaxsning kasbiy rivojlanishning bosqichlarini ko'rib chiqadi. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Biogenetik va sotsiogenetik kontseptsiya, ontogenez, filogenez, xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyatlar motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori 1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza 1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs, videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, taqdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarqatma materiallar, video tasmlar, slaydlar, video proektor, axborot texnologiyalari.	O'qituv chi
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituv chi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga shaxs faolligiga oid muammoli savol beriladi. 3.2. Talabalarning shaxsning biogenetik va sotsiogenetik nazariyalariga oid fikri eshitiladi va boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Talabalarning shaxsning biogenetik va sotsiogenetik nazariyalar haqidagi fikri tinglanib, umumiy xulosalar	O'qituv chi- talaba, 40 minut

	chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosani o'qituvchi bayon qiladi.	
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 1. Kasbiy shakllanish tarixini ta'riflang ? 2. Shaxsning kasbiy shakllanishi determinatsiyasini o'qing va o'rganing. 3. Shaxsning kasbiy rivojlanishning bosqichlarini belgilang.	O'qituvchi, 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi, 10 minut

Asosiy savollar

1. Shaxsning biogenetik va sotsiogenetik nazariyalari.
2. Kasbiy shakllanish tarixi.
3. Shaxsning kasbiy shakllanishi determinatsiyasi.
4. Shaxsning kasbiy rivojlanishning bosqichlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Biogenetik va sotsiogenetik kontseptsiya, ontogenez, filogenez, xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyatlar motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga shaxsning biogenetik va sotsiogenetik nazariyalari haqida tushuncha berish, Shaxs va individuallikni ta'riflash. Biogenetik va sotsiogenetik kontseptsiyalarini o'rgatish va qiyosiy solishtirish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Biogenetik va sotsiogenetik nazariyalar haqida tushuncha beradi.
2. Shaxs va individuallikni ta'riflaydi.
3. Biogenetik va sotsiogenetik kontseptsiyalarini o'rgatadi va qiyosiy solishtiradi.

1 savolning bayoni

1. Shaxsning biogenetik va sotsiogenetik nazariyalari.

Shaxs deb aniq bir kishini aytamiz. Har bir kishi jamiyat a'zosi bo'lib, tarixan tarkib topgan muayyan ijtimoiy munosabatlar sharoitida yashaydi va ishlaydi. Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri - bu uning individualligidir, ya'ni yakkaholligidir. Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyatlar motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari kiradi. Psixik xususiyatlarning birikmasini aynan o'xshash tarzda aks ettiruvchi inson mavjud emas. Masalan, yaqin odamdan ayrilganligi qayg'u-alam, uning bilan birga esa hayotda tiklab bo'lmovchi va boshqalarda takrorlanuvchi fazilatlar murakkab voqelikning manguqlikka yo'nalishi bilan

izohlash mumkin. Shaxs o'zining qadr-qimmatini va nuqsonlari bilan ijtimoiy turmushda faol ishtirok qilishi, ta'lim va tarbiya yordamida yuzaga kelgan o'zining kuchli va kuchsiz jihatlari bilan yaqqol, betakror oliy zotdir.

Odamlarning ijtimoiy qoidalarga murojaat qilishi ularda o'z xulq-atvori uchun mas'ullik hissinin uyg'otadi, harakatlari va qiliqlarining ushbu qoidalarga mos kelishi yoki mos kelmasligini baholagan holda ularni to'g'rilab borish imkonini to'g'diradi. sotsial jihatdan maqbullarini tanlab olish, nomaqbul shakllariga amal qilmaslik, o'zining boshqa odamlar bilan munosabatlarini yo'naltirib va boshqarib borish imkonini beradi. O'zlashtirilgan koidalardan odamlar o'zlarining xususiy xulq-atvorini o'zgalarning xulq-atvori bilan taqqoslaydigan mezon sifatida foydalanadilar.

Psixologiya tarixida shaxs rivojlanishi va takomillashuvini harakatlantiradigan kuchlar va manba masalasini hal etishning ikkita yo'nalishi mavjud bo'lgan. Bu yo'nalishlar rivojlanishning **biogenetik va sotsiogenetik kontseptsiyalari nomini olgandir**. Biogenetik qonunni F.Myuller va E.Gekkellar kashf qilishgan.

Biogenetik kontseptsiya inson shaxsining rivojlanishi biologik, asosan, nasliy omillar bilan belgilanishiga asoslanadi. Shuning uchun ham shaxsning rivojlanishi ichki sabab natijasida (o'z-o'zidan) sodir bo'lish xususiyatiga egadir. Jumladan, biogenetik qonunga ko'ra, shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g'oya yotadi.

Shu nuqtai nazarga binoan kishi tabiatan hissiy ta'sirotlarning ro'y berishidagi ba'zi bir xususiyatlarga, harakat sur'atining xususiyatlarigagina emas, balki sababiyatlarning muayyan kompleksiga ham moyil (birovlarda jinoyat qilishga, boshqalarda ma'muriyatchilik faoliyatida yutuqlar qozonishga moyillik va hokazo) bo'ladi. Kishida go'yo uning psixik faoliyati shakllarigagina emas, balki uning mazmuni ham tabiat tomonidan programmalashtirilgan, psixik rivojlanish bosqichlari va ularning ro'y berish tartibi oldindan belgilab ko'yilgan emish. Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko'rinishi - bu aksil qutbga joylashgan **sotsiogenetik nazariya** hisoblanadi. Sotsiogenetik yondashishga binoan, shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra, inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

E.Torndayk, B.Skinner va hokazo).

Sotsiogenetik kontseptsiya shaxsni tevarak-atrofdagi ijtimoiy muhitning bevosita ta'siri natijasi deb, muhitdan olingan nusxa deb hisoblaydi. Bunda ham xuddi biogenetik kontseptsiyadagi kabi rivojlanib borayotgan kishining xususiy faolligi inobatga olinmaydi, uning tevarak-atrofdagi vaziyatga moslashayotgan mavjudotga xos sust rol o'ynashigina mumkin deb hisoblanadi. Agar sotsiogenetik kontseptsiyaga amal qilinadigan bo'lsa, nima uchun ba'zi vaqtlarda bir xildagi ijtimoiy muhitlarda har xil odamlar etishib chiqishini tushuntirib bo'lmaydi.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga kasbiy shakllanish tarixi haqida tushuncha berish, shaxsning shakllanishida tarbiyaning o'rnini aniqlash. «Shaxsning shakllanishi»ni ta'riflash. «shaxsni loyihalash»

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Kasbiy shakllanish tarixi haqida tushuncha beradi.
2. Shaxsning shakllanishida tarbiyaning o'rnini aniqlaydi.
- 3.«Shaxsning shakllanishi»ni ta'riflaydi.
4. «Shaxsni loyihalash»ni o'rgatadi.

2- savolning bayoni

Kasbiy shakllanish tarixi.

Shaxsning shakllanishi uning jamoaga qo'shilganligi sharoitlarida ro'y beradi. A. S. Makarenko ta'kidlaganidek, shaxs yuksak darajada rivojlangan guruhdan iborat va shaxsning qimmatli fazilatlarini shakllantirish uchun eng qulay sharoitlarga ega bo'lgan jamoada va jamoa vositasida rivojlanadi. Individdning shaxs bo'lish, yangi jamiyatni qurishning faol ishtirokchisi bo'lish kabi ehtiyoji aynan jamoadagina to'laqonli qondiriladi.

Shaxsning shakllanishida unga maqsadga yo'naltirilgan tarzda ta'sir o'tkazish - tarbiyada etakchi rol o'ynaydi. Tarbiya shaxsning rivojlantirilishini jamiyat tomonidan qo'yilgan maqsadlarga muvofiq tarzda yo'naltirib boradi va uyushtiradi. Shu bilan birga tarbiya bola hayoti va faoliyatini muayyan tarzda uyushtirib va tartibga solib qolmasdan, balki mavjud pedagogik printsiplarga binoan konkret shaxs imkoniyatlarini eng yaxshi darajada ko'rsatadigan rivojlanishning maxsus muhitini, yoxud vaziyatini vujudga keltiradi, uni shakllantirgan va yo'naltirib borgan holda faolligini namoyon qilish uchun shart-sharoit yaratadi.

«Shaxsning shakllanishi» ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Birinchisi - shaxsning shakllanishi uning rivojlanishi, ana shu rivojlanish tushunchasi jarayoni va uning natijasi ekanligidir. Shu ma'nodagi shaxsni shakllantirish tushunchasi psixologik tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Uning vazifasi biror maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ta'sirlar otkazish sharoitida rivojlanayotgan shaxsda nimalar mavjudligini (mavjud bolgan, tajriba qoli bilan aniqlanadigan, namoyon boladigan) va nimalar bolishi mumkinligini aniqlashdan iboratdir. Bu shaxsning shakllanishiga nisbatan xususan psixologik yondashuv hisoblanadi.

Ikkinchi ma'nosi - shaxsni maqsadga qonaltirilgan tarzda tarbiyalash sifatidagi shakllantirish (agar shunday deb aytish mumkin bolsa, «qolipga solish», «yasash», «tuzash»; A. S. Makarenko bu jarayonni «shaxsni loyihalash» deb atagan. Xususan bu shaxsni shakllantirish vazifalari va usullarini ajratib olishga pedagogik yondashuvdir. Pedagogik yondashuv shaxsning jamiyat unga qhayayotgan ijtimoiy jihatdan taqozo etilgan talablarga javob beradigan bo'lishi uchun unda nimalar va qanday qilib shakllantirilishi kerakligini aniqlash zarur deb hisoblaydi.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga shaxsning kasbiy shakllanishi determinatsiyasi haqida tushuncha berish, biogenetik nazariyani mohiyatini yoritish, shaxsning shakllanishida taraqqiyotning bosh maqsadi - biologik determinantlarning o'rnini aniqlash. Nemis psixologi V.Shternning fikrini o'rganish

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Shaxsning kasbiy shakllanishi determinatsiyasi haqida tushuncha beradi.
2. Biogenetik nazariyaning mohiyatini yoritadi.
3. Shaxsning shakllanishida taraqqiyotning bosh maqsadi - biologik determinantlarning o'rnini aniqlaydi.
4. Nemis psixologi V.Shternning fikrini o'rgatadi.

3- savolning bayoni

Shaxsning kasbiy shakllanishi determinatsiyasi.

Biogenetik nazariyaning negizida insonning biologik etilishi bosh omil sifatida qabul qilingan bo'lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyoti ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o'zaro shunchaki aloqa tan olinadi, xolos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh maqsadi - biologik determinantlariga (aniqlovchilariga) qaratiladi va ularning mohiyatidan sotsial-psixologik xususiyatlar keltirilib chiqariladi.

Nemis psixologi V.Shternning fikricha, chaqaloq (yangi tug'ilgan bola) hali u odam emas, balki faqat sut emizuvchi hayvondir, u olti oylikdan oshgach, psixik taraqqiyoti jihatidan faqat maymunlar darajasiga tenglashadi, ikki yoshida esa oddiy odam holiga keladi, besh yoshlarda ibtidoiy poda holatidagi odamlar darajasiga etadi, maktab davridan boshlab ibtidoiy davrni boshidan kechiradi, kichik maktab yoshida o'rta asr kishilar ongiga va nihoyat etukli davrdagina (16-18 yoshlarda) u hozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga erishadi.

To'rtinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga shaxsning kasbiy rivojlanishning bosqichlari haqida tushuncha berish, psixodinamikaning mohiyatini yoritish, psixolog E.Eriksonning nazariyasini tushuntirish, Nazariyadagi shaxs rivoji davrlarini o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Shaxsning kasbiy rivojlanishning bosqichlari haqida tushuncha beradi.
2. Psixodinamikaning mohiyatini yoritadi.
3. E.Eriksonning nazariyasini tushuntiradi.
4. Nazariyadagi shaxs rivojlanishining davrlarini o'rgatadi va qiyosiy solishtiradi.

4-savolning bayoni.

Shaxsning kasbiy rivojlanishning bosqichlari.

Psixikaning irratsional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo'lmish emotsiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyandalaridan biri - bu amerikalik psixolog E.Eriksondir. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o'ziga xos betakror xususiyatga egadir.

Birinchi davr - go'daklik. Ushbu davrda go'dakda ongsizlikka asoslangan tashqi dunyoga nisbatan "ishonch" tuyg'usi vujudga keladi. Buning bosh sababchisi ota--onaning mehr-muhabbati, g'amxo'rliigi va jonkuyarligining nishonasidir. Agarda go'dakda ishonch negizi paydo bo'lmasa, balki borliqqa nisbatan ishonchsizlik hissi tug'lsa, u taqdirda voyaga etgan odamlarda mahdudlik, umidsizlik shaklida aks etuvchi xavf vujudga kelishi, ehtimol.

Ikkinchi davrda, ya'ni ilk bolalikda jonzodda yarim mustaqqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi shakllanadi yoki aksincha, ularning qarama-qarshisi bo'lmish uyat va shubha hissi hosil bo'ladi. Bolada mustaqillikning o'sishi, o'z tanasini boshqarishga keng imkoniyat yaratib, bo'lg'usida shaxs xususiyatlariga aylanuvchi tartib va intizom, mas'uliyat, javobgarlik, hurmat tuyg'ularini tarkib toptirishga puxta zamin hozirlaydi.

Uchinchi davr - o'yin yoshi deb atalib 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'ziga qamrab oladi. Mazkur davrda tashabbus tuyg'usi, qaysidir ishni amalga oshirish va bajarish maylini tarkib toptiradi. Mabodo unda xohish-istakni ro'yobga chiqarishning yo'li to'sib qo'yilsa, ushbu holatda bola o'zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur yosh davrida davra, ya'ni guruhii o'yin, tengqurlari bilan muloqotga kirishish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi, natijada bolaning turli rollar sinab ko'rishiga, xayoloti o'sishiga imkon yaratiladi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg'usi, uni tushunish mayli tug'ila boshlaydi.

To'rtinchi davr - maktab yoshi deb nomlanib, undagi asosiy o'zgarishlar ko'zlagan maqsadga erishish qobiliyati, uddaburonlik va mahsuldorlikka intilish tuyg'usi bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati - omilkorlik va mahsuldorlikdan iboratdir. Ushbu yosh davrining salbiy jihatlari (illatlari) ham ko'zga tashlanadi va ularning qatoriga ijobiy xislatlari etarli darajada bo'lmaganligi, ongi hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni echishda aql-zakovatning etishmasligi, bilimlarni o'zlashtirishda qoloqligi (sustligi) va hokazo. Xuddi shu davrda shaxsda mehnatga nisbatan individual munosabati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr - o'spirinlik - o'zining betakror xislati, individualligi va boshqa odamlar bilan keskin tafovutlanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, o'smirlik shaxs sifatida noaniqlik, muayyan rolni uddalamaslik, qat'iyatsizlik singari nuqsonlarga (illatlarga) egadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati "rolni kechiktirish"ning o'zgarishi hisoblanib, birmuncha taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishining daqiqasidir. Unda ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarining ko'lami kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyati mavjud bo'lmaydi, vaholanki bu kezda o'spirin rollarda o'zini sinab ko'rish bilan cheklanadi, xolos. Erikson o'spirinlarda o'z-o'zini anglashning psixologik mexanizmlarini batafsil tahlil qiladi, unda vaqtni yangicha his qilish, psixoseksual qiziqish, patogen (kasallik qo'zg'atuvchi) jarayonlar va ularning turli ko'rinishlari namoyon bo'lishini sharhlaydi.

Oltinchi davr - yoshlik boshqa odamga (jinsga) nisbatan psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati (uquvi) va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, jinsiy mayl bu sohada alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari,

yoshlik tanholik va odamovilik kabi bexosiyat xususiyatlari bilan tafovutlanadi.

Etinchi davr - etuklik davri deb atalib, hayot va faoliyatning barcha sohalarida (mehnatga, ijodiyotga, g'amxo'rlikda, pusht qoldirishda, tajriba uzatishda va boshqalarda) mahsuldorlik tuyg'usi unga uzluksiz ravishda hamroh bo'ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur davrda ayrim jihatlarida turg'unlik tuyg'usi nuqson (illat) sifatida hukm surishi ehtimoldan holi emas.

Sakkizinchi davr, ya'ni qarilik inson tariqasida o'z burchini uddalay olganligi, turmushning keng qamrovligi, undan qanoatlanganligi (qoniqqanligi) tuyg'ulari bilan tavsiflanadi. Salbiy xususiyat sifatida ushbu yoshda hayotdan, faoliyatdan noumidlilik, ulardan ko'ngil sovish his-tuyg'ularini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Donolik, soflik, gunohlardan forig' bo'lishlik bu yoshdagi odamlarning eng muhim jihati, saxovati hisoblanadi, binobarin, har bir alohida olingan holatga nisbatan shaxsiyat va umumiyat nuqtai nazardan qarash ularning oliy himmati sanaladi.

1. Inson rivojining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhitining omillari).

2. Insonning shaxsiy o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning rivojlanishi ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyutsion negizda kamol topish bosqichlari, barqarorlashuvi va involyutsiya (o'sishdan qaytish davri xususiyatlari).

5- mavzu :

“Kasbiy motiv va motivatsiya “ mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	Tayyorlov bosqichi: Dars maqsadi: Talabalarni kasb tanlash motivlari bilan tanishtirish. Pedagog kasbini tanlash motivlarini ajratish. Motivatsiyani boshqarish masalalarini ishlab chiqish. Kasbiy motivlarni shakllantirish yo'llarini o'rgatish. 1.2. Identiv o'quv maqsadlari. 1. Kasb tanlash motivlari bilan tanishtiradi. 2. Pedagog kasbini tanlash motivlarini ajratadi. 3. Motivatsiyani boshqarish masalalarini ishlab chiqadi. 4. Kasbiy motivlarni shakllantirish yo'llarini o'rgatadi. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Kasbiy motiv, motivatsiya, mexnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlari, ish joyini tanlash motivlari, dominant motivlar, vaziyat bilan	O'qituvch

	bog'liq motivlar, komformist motivlar. 1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza 1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs, videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, taqdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarqatma materiallar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali materiallar.	
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga motivatsiyaga oid muammoli savol beriladi. 3.2. Talabalarining motivatsiyaga oid fikri eshitiladi va boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Talabalarining pedagog kasbini tanlash motivlarini haqida fikri tinglanib, umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosani o'qituvchi bayon qiladi.	O'qituvchi-talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 1. Kasb tanlash motivlari ta'riflang ? 2. Kasbiy motivlarni shakllantirish yo'llarini o'qing va o'rganing. 3. Motivatsiyani boshqarish masalalarini belgilang.	O'qituvchi, 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi, 10 minut

Asosiy savollar

1. Kasb tanlash motivlari.
2. Pedagog kasbini tanlash motivlari.
3. Motivatsiyani boshqarish masalalari, kasbiy motivlarni shakllantirish

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Kasbiy motiv, motivatsiya, mexnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlari, ish joyini tanlash motivlari, dominant motivlar, vaziyat bilan bog'liq motivlar, komformist motivlar.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni kasb tanlash motivlari bilan tanishtirish. Mexnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlari ish joyini tanlash motivlari haqida tushuncha berish, mexnat faoliyati motivlarini ta'riflash, mehnat faoliyatining umumiy motivlarini ajratish, kasb tanlash motivlari haqidagi fikrlarni o'rganish va qiyosiy solishtirish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Kasb tanlash motivlari bilan tanishtiradi.

2. Mexnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlari ish joyini tanlash motivlari haqida tushuncha beradi.
3. Mexnat faoliyati motivlarini ta'riflaydi.
4. Mehnat faoliyatining umumiy motivlarini ajratadi.
5. Kasb tanlash motivlari haqidagi fikrlarni o'rganadi va qiyosiy solishtiradi.

1- savolning bayoni **Kasb tanlash motivlari.**

Kasbiy motiv va motivatsiya muammolari xorij psixologlari E.A.Klimov, V.A.Krutetskiy, A.N.Vasilkova, V.Vrum, M.V.Dmitriy va boshkalar tomonidan keng doirada tadqiq qilingan.

Shaxsning ish faoliyati bilan bog'lik motivatsiyalarni 3 guruhga ajratish mumkin;

- birinchisi - mexnat faoliyati motivlari,
- ikkinchisi - kasb tanlash motivlari
- uchinchisi- ish joyini tanlash motivlari.

Mexnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlari va ish joyini tanlash motivlari aniq faoliyatni tashkil qiladi. Ular o'zaro bir birlariga bog'liq bo'ladi ya'ni, bunda mehnat faoliyati motivlari kasb tanlash motivlarining shakllantirsa, shuningdek, qolgan ikkita motiv orkali esa ish joyini tanlash motivlari xam yuzaga keladi.

Mexnat faoliyati motivlari xilma-xil bo'lib, ular o'ziga xos omillar bilan belgilanadi.

Birinchi gurux omillariga jamoaviy xarakterning uyg'onishi bilan bog'liqlari motivlar kiritilib, bular jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa insonlarga yordam berish istagi, mehnat faoliyatida ijtimoiy ustanovkaning zarurligi va boshkalarga nisbatan tobelikni xoxlamaslik kabi motivlar xisoblanadi.

Ikkinchi gurux omillari o'zi va oilasi uchun moddiy mablag'ning orttirilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir.

Uchinchi guruxga o'zini o'zi faollashtirish, rivojlantirish, o'zini namoyon qilish ehtiyojlarining qondirilishi va shu kabi xususiyatlar kiradi. Ma'lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug'ullanmasdan turolmaydilar. Jamiyatda shaxs nafaqat iste'molchi bo'lib emas balki yaratuvchi bo'lib ham faoliyat yuritadi, yaratish jarayonida u ijoddan ilxom oladi. Bu guruxga mansub motivlar shaxs uchun jamiyat tomonidan ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog'likdir. Maktab o'kuvchilarining mehnat tarbiyasi ham shu motiv bilan bog'lik ravishda shakllantiriladi.

Mehnat faoliyatining umumiy motivlari aniq kasblar doirasida amalga oshadi. Jamiyatda shaxslar uchun kasb tanlash anchagina qiyin va motivatsion jarayon hisoblanadi. Chunki shaxsning to'g'ri kasb tanlashi ko'pincha insonning hayotdan qoniqishiga ham sabab bo'ladi.

Insonning qaysi faoliyatni tanlashi ko'prok tashqi omillar hakidagi qarorning qabul qilinishiga bog'liq bo'ladi. Bunga sabab asosan shaxsning tashqi holat

baholariga, o'zining imkoniyat va qobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog'likdir.

Tashqi holatini baholash, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, o'zida ishlab topiladigan pul miqdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxona, muassasaning yashash joyiga yaqin bo'lishi, transport aloqalarining qulayligi, ish joyi estetikasi va ishlab chiqarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iqlim, maqto'v va tartibga chaqirish kabilarni qamrab oladi.

O'z imkoniyatlarini baholash sog'lomligi, ishga yaroqliligi, kasbi bo'yicha muhim sifatlariga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori shovqinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni o'z ichiga oladi.

Qizikishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, shaxsning ayni vaqtda ishlayotgan muassasasi, ishlash jarayonida korxonadagi imkoniyat to'siqlari, ishni boshqarishi, kasbiy o'sishi, tashabbusning paydo bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ba'zan esa qiziqish bo'yicha ish joyini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ish joyini va kasbni tanlash motivlari E.S.Chuchunay tomonidan klassifikatsiya kilingan.

U kasb motivlarini quyidagicha guruhlariga ajratadi:

1. Dominant motivlar (kasbga qiziqishning ustun turishi).
2. Vaziyat bilan bog'liq motivlar (har doim insonni qiziqitirib kelgan shart sharoitlarni ro'yobga chiqarish).
3. Komformist motivlar.
4. Kasbiy motivlar (o'ziga yaqin ijtimoiy olamning ya'ni yaqinlarining, do'st va tanishlarining maslahatlari bilan).

A.P.Vasilev tibbiyot xodimi kasbini tanlashning quyidagi asosiy motivlarini keltirib o'tadi:

1. Shaxsda insonlarni davolash istagi.
2. Og'ir kasalliklar, qariya, yosh bolalarni og'riqlardan halos etish istagi.
3. O'z yaqinlarining sog'ligi haqida qayg'urish imkoniyati.
4. Ilmiy tibbiyot muammolarini hal etish.
5. O'z sog'ligi haqida qayg'urish.
6. Moddiy qiziqishlar.

Fapb psixologlaridan V.Vrum va E.Disi mehnat faoliyati motivatsiyasini quyidagicha ta'riflaydilar Ularning fikricha insonlar qanchalik o'z ishlaridan qoniqsalar, shunchalik ular o'z ishlarini bajarishga kuchliroq harakat qiladilar. Ular faoliyat jarayonida rag'batlantirilib borilsa, shunchalik qattiqroq ishlaydilar. Bunday yondashuvda amalga oshiriladigan rag'batlantirish ishchilar faoliyatida maxsuldorlikning oshishini keltirib chiqaradi. Bu kabi turli qo'shimcha imtiyozlar nafaqat ta'lim olish uchun intilishga shu bilan birgalikda yaxshiroq mehnat qilishga dam olishga harakat qiladilar. Bu jarayonda ular faoliyat ko'rsatadigan firma, kompaniya va tashkilotlardan kuch oladilar.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi:

Talabalarni pedagog kasbini tanlash motivlari bilan tanishtirish. pedagogik faoliyat haqida tushuncha berish, A.K.Baymetovning pedagogik faoliyat motivlari haqidagi fikrlarini o'rganish

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Pedagog kasbini tanlash motivlari bilan tanishtiradi.

2. Pedagogik faoliyat haqida tushuncha beradi.

A.K.Baymetovning pedagogik faoliyat motivlari haqidagi fikrlarini o'rgatadi.

2- savolning bayoni

Pedagog kasbini tanlash motivlari.

Pedagog kasbini tanlash motivlari pedagogik faoliyat bilan bog'lik buladi. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchilar maktab o'kituvchilari, bog'cha tarbiyachilari, kasb hunar kolleji o'qituvchilari, pedagoglar, psixologlar, mehribonlik uylari tarbiyachilari va boshqalar hisoblanadi. Kasb hunar kollejlari va pedagogik oliy o'quv yurtlariga kirgan talabalar bilan so'rovnomaga o'tkazilganda so'rovlar bo'yicha olingan natijalarda o'qituvchi kasbiga ijobiy munosabat bildirganlar. Taxminan 40 % ni u yoki bu narsa yoki predmetlarga qiziqqanlar 13 % ni o'kituvchilik faoliyatiga va na kasbiy fanga ijobiy munosabat bildirmaganlar, 22 % ni esa oliy o'quv yurtiga kirishdan maqsad ayni vaqtda harbiy xizmatdan olib kelingan tavsifnoma sababli imtiyozga ega ravishda oliy ta'lim nufuziga ega bo'lish istagidagilar tashkil qiladi. Ayrim talabalarning pedagogika o'quv yurtiga kirish sabablari shu dargohning ularning turar joyiga yaqinligi bo'ladi.

Ongli ravishda kasb tanlash insonning ijtimoiy mavqei bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Agar inson uchun asosiysi ijtimoiy nufuz hisoblansa, unda kasb hozirda mavjud bo'lgan qoidalar, shuningdek jamiyatdagi nufuzli kasblardan kelib chiqib tanlanadi. Ko'pchilik kasb tanlayotganda bu kasb ularga qanchalik moddiy rag'bat keltirishiga tayanadi;

A.K.Baymetov pedagogik faoliyat motivlarini o'rganib, ularni 3 guruhga ajratadi:

1. Muqarrarlik motivi (burchli);
2. O'qitilayotgan predmetlarning qiziqarliligi va e'tiborni tortish;
3. Bolalar bilan muloqatga kirishish.

Bu motivlarning ustunlik qilish xarakteriga ko'ra o'kituvchilar 4 guruxni :

Burch hissining ustunligi bilan 43 % ni, o'qitilayotgan fanlarga qiziqishning ustunligi 39 %ni, bolalar bilan muloqotga kirishish extiyojining ustunligi 11 %ni, o'z hohishlarini ruyobga chikarish istagi bilan 7 %ni tashkil qiladilar:

O'qituvchining mustaqil bilim egallashi deganda, uning o'z bilimlarini doimiy ravishda kasbiy va umummadaniy axborotlar bilan to'ldirib, o'zining individual ijtimoiy tajribasini keng miqyosda doimo yangilab borishi tushuniladi. Odatda aksariyat o'qituvchilar mustaqil bilim egallash zarurligini tushungan xolda, undan muvaffaqiyatli foydalanadilar.

O'qituvchining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishi va munosabatining quyidagi uslublari mavjud.

Avtoritar uslub: bu qattiqqo'llik bo'lib, bunda o'qituvchi o'quvchilarini so'zsiz o'ziga bo'ysunishlarini talab etadi. Lekin, nima uchun qattiqqo'llik

qilayotganini yoki o'quvchilariga nima uchun o'zlarini shunday tutishlari lozimligini tushuntirib bermaydi, O'qituvchi dars davomida o'quvchilaridan jim utirishini, savollarga doimo qo'l ko'tarib, o'qituvchining ruxsati bilan javob berishini, o'qituvchining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishini talab etadi.

Imperativ uslubdagi o'qituvchining o'quvchilari guruhda bo'lmagan vaqtlarda o'z-o'zini boshqarish malakasi bo'lmaganligi uchun ham intizomga mutlaqo bo'ysunmaydilar. Bu, asosan, to'polonda namoyon bo'ladi. Bu uslub o'qituvchining mustahkam irodasini ko'rsatadi, lekin bu irodada o'quvchiga nisbatan muhabbat hamda o'quvchining "ustozim meni yaxshi kuradi" degan fikri emas, balki kurkuv hissi mavjuddir.

Demokratik uslub o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilishiga asos bo'ladi. Darsdagi intizom majburiy emas, balki muvafakkiyatga erishish garovi sifatida o'quvchilar ijobiy emotsiyani, o'ziga ishonch, o'z muvafakkiyati, yutuqlaridan quvonishi, do'stlari bilan faoliyatda hamkorlik hissini beradi. Demokratik uslub o'quvchilarni birlashtiradi.

Liberal uslub kasbiy layoqati yo'q bo'lgan o'qituvchilarga xos bo'lgan uslubdir. Bunday o'qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil eta olmaydi. Bunday darslarda har bir o'quvchi o'z tarbiyalanganlik darajasiga qarab o'zini tutadi. O'quvchi o'z majburiyatlarini yaxshi his qilmaydi. Muomala munosabatdagi liberal uslub psixologiya va pedagogika fanlariga mutlak zid uslub hisoblanib, bolalar shaxsini shakllantirish va tarbiyalash jarayonida bu usulni qo'llab bo'lmaydi.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni motivatsiya tushunchasi bilan tanishtirish. Motivatsiyani boshqarish masalalarini o'rgatish. Kasbiy motivlarni shakllantirish. O'quv faoliyati motivatsiyasining xususiyatlarini o'rganishning 2 xil jixatlarini ko'rib chiqish va qiyosiy solishtirish ularning farqini ajratish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Motivatsiya tushunchasi bilan tanishtiradi.
2. Motivatsiyani boshqarish masalalarini o'rgatadi.
3. Kasbiy motivlarni shakllantiradi.
4. O'quv faoliyati motivatsiyasining xususiyatlarini o'rganishning 2 xil jixatlarini ko'rib chiqadi va qiyosiy solishtiradi ularning farqini ajratadi.

3- savolning bayoni

Motivatsiyani boshqarish masalalari, kasbiy motivlarni shakllantirish

Pedagog kasbini o'zlashtirishda kasbiy bilimlarga bo'lgan ehtiyoj oshadi. V.N.Nikitenko va B.Fidlerlarning ma'lumotiga ko'ra 25-30 yoshli o'qituvchilarda oliy o'quv yurtida o'qiyotgan chog'ida unchalik ahamiyat bermagan pedagogik va psixologik bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyoj uyg'onar ekan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning o'z kasbi va ish joyidan qoniqishi ba'zilarida birinchi navbatda maktabning moddiy bazasiga bog'lik bo'ladi, boshqalarida esa pedagogik faoliyatda yaxshi natijalarga erishishga, uchinchi xilida ma'muriyat bilan o'zaro aloqa o'rnatishga, to'rtinchi kishida oylik olish bilan bog'lik bo'ladi.

O'quv faoliyati motivatsiyasining xususiyatlarini o'rganishda 2 jixatni farqlab olish lozim:

Birinchi jihat - o'quv faoliyatini tanlash motivatsiyasi.

Ikkinchi jihat aynan shu faoliyatni o'rganib chiqishga qo'l o'rganining sababini aniklash.

Pedagogik faoliyat davomida har ikkala jihat ham hisobga olinadi

V. A. Krutetskiy o'quvchilarda uchrashi mumkin bo'lgan motivlardan quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tadi:

- biror o'quv faniga nisbatan o'spirinning qiziqishi;
- Vatanga foyda keltirish istagi;
- shaxsiy qobiliyatini ro'kach kilib ko'rsatish;
- oilaviy an'analariga rioya qilishi;
- do'stlari va o'rtoqlaridan o'rnak olganligi;
- ish joyining va o'quv yurtining uyga yaqinligi;
- moddiy ta'minlanganlik;
- o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishining

osonligi singari motivlardir.

Yukoridagi fikrlardan ko'rinadiki, o'spirinlik davrida kasbiy motivlarning shakllanishi bir qator tashqi va ichki omillarga bog'lik. Shuningdek, kasb tanlashga bo'lgan intilish ishtiyoqlar negizida kasbiy motiv motivatsiya shakllanadi. Aynan xorij psixologlari kasbiy motivlar tarkibini ishlab chikishda kasb tanlashgacha bo'lgan va kasb tanlab bo'lgandan keyingi jihatlarini ko'rsatib o'tadilar. O'quvchilarda qiziqish o'quv fanlarining mazmuni bilan ham, o'qitish metodlari bilan ham hosil qilinadi. Bolalarda bunday qiziqish dastlab bir qancha o'quv fanlariga birdaniga yoki oldinma-keyin tug'ilishi va so'ngra esa barchasiga baravar qiziqish paydo bo'lmog'i mumkin. O'quvchilarda hamma bilimlarga, umuman bilimga qiziqish mana shunday tug'iladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilardayoq kelgusida kim bo'lish masalasiga qiziqish ko'rina boshlaydi. Ulardagi bunday qiziqish o'z ota-onalari va katta yoshdagi maktabdoshlarining gaplari ta'siri bilan, shuningdek, turli kasbdagi kishilar: binokorlar, shifokor, o'qituvchilar, traktorchilar, kombaynchilar va boshqalarning qilgan ishlarini kuzatishlari natijasida paydo bo'ladi.

Kelgusida bunday kasb-hunar egasi bo'lish masalasi dastlab bolalarning faqat orzu-xayoli, bolalar ideali sifatida voqe bo'ladi. Boladagi kasbga bo'lgan dastlabki qiziqishlar hali ularning o'qib-o'rganayotgan fanlari bilan bog'lanadi. Shuning uchun ham ulardagi bunday qiziqish ularning dars o'zlashtirishlariga ta'sir ko'rsatmaydi.

Maktab o'quvchilaridagi qiziqishlarning o'sishi uchun o'quv mashg'ulotlari bilan bir qatorda, turli to'garaklarda: texnika, adabiyot, san'atshunoslik singari to'garaklarda o'tkaziladigan mashg'ulotlar ham katta ahamiyatga ega.

O'quvchilarda paydo bo'la boshlagan qiziqishlar ma'lum bir to'garakni tanlashda aniqlanadi, to'garaklardagi mashg'ulotlar vaqtida esa bu qiziqishlar o'sib mustahkamlanadi, ancha barqaror tus olib boradi. O'quvchilar maktab yoshida bilim va tajribalar to'plashi, umumiy aqliy saviyasining kengayishi munosabati bilan, atrofdagi kishilar bilan ancha va murakkab aloqa bog'lay boshlaydilar, hayotning turli sohalari va faoliyat turlari bilan tanishadilar,

xilma-xil qiziqishlarga ega bo'lgan kishilar bilan uchrashadilar va har xil kasblar bilan tanishadilar. Bularning hammasini o'quvchilar faqat o'zlarining bevosita kuzatishlari yo'li bilangina bilib qolmay, balki kattalarning hikoyalaridan, o'zlarining o'qigan kitoblaridan ham bilib boradilar.

9 sinf o'quvchilaridagi qiziqishlar hali uncha barqaror bo'lmaydi. Bunday qiziqish-havaslar ko'pincha birdaniga boshlanib ketadi va shuningdek, tez yo'qolib ham ketadi. Boladagi bir qiziqish o'rnini boshqa bir qiziqish egallaydi. Shuning uchun ham qiziqishlarni tarbiyalash, ya'ni bolada ijobiy barqaror qiziqish-havaslar paydo qilish zarurdir. Masalan, fizika darsida M.G.Davletshin tomonidan maxsus psixologik tajribalar o'tkazilib, bunda u fizikaning texnikada qo'llanishiga o'quvchilar etiborini jalb etish yo'li bilan maktab bolalarida texnikaga qiziqish ancha ortganligini ko'rsatadi. Texnikaga qiziquvchi o'quvchilar soni 14% ga oshdi. Shu bilan bir qatorda tajriba olib borilgan guruhdagi o'quvchilarning qiziqishi chuqur bo'lganligi va bundagi motivlar ham ancha ongli bo'lganligi aniqlangan. Fizika fanini o'qitishda bunday ishlar olib borilmagan guruh o'quvchilarida esa texnikaga qiziqish ancha past bo'lganligi aniqlangan. O'quvchilarda fanga qiziqishni paydo qilish va uning barqarorligini saqlab qolishda o'qituvchining fanga bo'lgan munosabati katta rol o'ynaydi.

**6 mavzu: “Diqqat va kasb tanlash masalalari”
mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi**

TG 'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	1.1.Tayyorlov bosqichi: Dars maqsadi: Diqqat turlarini aniqlash. Diqqatning xususiyatlarini belgilash. Shaxs diqqatining rivojlanishini tekshirish. Kasblarni shaxs diqqatiga qo'yadigan talablarini o'rgatish. 1.2.Identiv o'quv maqsadlari. 1. Diqqat turlarini aniqlaydi. 2. Diqqatning xususiyatlarini belgilaydi. 3. Shaxs diqqatining rivojlanishini tekshiradi. 4.Kasblarni shaxs diqqatiga qo'yadigan talablarini o'rgatadi. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: diqqatning fokusi, optimal qo'zg'alish nuqtasi, shartli reflekslar, dominanta, irodaviy diqqat, orientirovka, ko'chuvchanlik, diqqatning ko'lami, diqqatning kuchi, diqqatning barqarorligi. 1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza 1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs,	O'qituvchi

	videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, taqdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarqatma materiallar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali materiallar.	
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga diqqatga oid muammoli savol beriladi. 3.2. Talabalarning fikri eshitiladi va boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Talabalarning o'spirinlarning kasbga tayyorgarligi muammosi haqida fikri tinglanib, umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosani o'qituvchi bayon qiladi.	O'qituvchi-talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 1. Diqqatni ta'riflang ? 2. Shaxs diqqatining rivojlanishini o'qing va o'rganing. 3. Kasblarni shaxs diqqatiga qo'yadigan talablarini belgilang.	O'qituvchi, 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi, 10 minut

Asosiy savollar.

1. Diqqat turlari va ularning xususiyatlari.
2. Shaxs diqqatining rivojlanishi.
3. Kasblarni shaxs diqqatiga qo'yadigan talablari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: diqqatning fokusi, optimal qo'zg'alish nuqtasi, shartli reflekslar, dominanta, irodaviy diqqat, orientirovka, ko'chuvchanlik, diqqatning ko'lami, diqqatning kuchi, diqqatning barqarorligi.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Diqqatni ta'riflash. Diqqat turlarini ajratish. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatni belgilashni talabalarga tushuntirib berish. Diqqatning asosiy xususiyatlarini tushuntirish. Diqqatning ko'lamini aniqlash. Diqqatning ko'chuvchanligini o'rganib, belgilash. Diqqatning bo'linishini misollar yordamida tushuntirish

Identiv o'quv maqsadlari.

Diqqatni ta'riflaydi va tushuntirib beradi.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatni ajratadi.

Talabalarda diqqat mavzusini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Diqqatning asosiy xususiyatlarini tushuntiradi.

Diqqatning ko'lamini aniqlaydi.

Diqqatning ko'chuvchanligini o'rganadi va belgilaydi.
 Diqqatning bo'linishini tushuntiradi.
 Diqqatning kuchi va barqarorligini asoslaydi.

Birinchi savolning bayoni.

Diqqat turlari va ularning xususiyatlari.

Diqqat deb, ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obektga faol qaratilishiga aytiladi; **biz o'z faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavur** qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimizning qilgan ishlarimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning obekti bo'la oladi.

Diqqat paytida **ongning bir nuqtaga to'planishi ong doirasining torayishidan iborat bo'ladi**; bunda go'yoki ong doirasi anchagina tig'izlanadi. Ana shunday torayish va tormozlanish tufayli ong doirasi juda ham yorqinlashadi. Ongning eng tormozlangan va binobarin, eng yorqin nuqtasi diqqatning fokusi (ya'ni markazi) deb ataladi. Ana shu fokusga tushgan barcha narsalar (idrok qilinayotgan predmetlar, tasavurlar, fikrlar) juda to'la, yorqin hamda juda aniq aks ettiriladi.

Diqqat aqliy jarayonlarning sifatini ta'minlaydigan ichki faollikdir. Diqqat faolligi jihatidan ixtiyorsiz va ixtiyoriy deb farqlanadi. Diqqat asosan ikki turga, ixtiyorsiz va ixtiyoriy diqqat turiga ajratiladi. Biron tashqi sabab bilan va bizning xohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqatni *ixtiyorsiz* diqqat deyiladi.

Ixtiyorsiz diqqatni tug'diruvchi sabablar, avvalo, shaxsga ta'sir qiluvchi qo'zg'ovchilarning go'zalligi, yorqinligi, kuchi, kattaligi, harakatchanligi, uzoq davom etishi, to'satdan sodir bo'lishi, kontrastligi hisoblanadi. M: Qattiq tovush, momaqaldiroq, otilgan o'qning ovozi beixtiyor ravishda diqqatimizni o'ziga tortadi. Kutilmagan holda to'satdan sinfga uchib kirgan kapalak ixtiyorsiz ravishda talabalarning diqqatini o'ziga tortadi. Bundan tashqari, ixtiyorsiz diqqat bizning faoliyatimiz, turmush tajribamiz bilan bog'liq bo'lgan va ehtiyojlarimiz, qiziqishlarimizga javob bera oluvchi hamda bizda ma'lum bir hissiyot uyg'ota oluvchi narsalarning ta'siri bilan ham vujudga keladi.

Ixtiyorsiz diqqatning dastlabki fiziologik asosi **orientirovka** yoki tekshirish reflekslaridan iborat. Bu reflekslarni akademik I.P. Pavlov boshqacha nom bilan «bu nima ekan» refleksi deb ataydi.

Diqqatning qaratilishi lozim bo'lgan narsani oldindan belgilab olib, ongli ravishda qo'yilgan maqsad bilan ishga solingan diqqat **ixtiyoriy** diqqat deyiladi.

Bu diqqatning boshlanishi irodaning ishtirokini talab qiladi. Shuning uchun uni **irodaviy diqqat** deyiladi. Ixtiyorsiz diqqatning kuchi asosan qiyinchiliklarni engish bilan bog'liq bo'lgan irodaviy zo'r berish darajasi bilan xarakterlanadi.

Talabani tushuntirilayotgan yangi darsni eshitib o'tirishi shu ixtiyoriy diqqat bilan ishlashning misoli bo'la oladi. Bunda talaba «eshitib o'tiraman» deb, o'z oldiga maqsad qo'yadi va o'z diqqatini faqatgina o'qituvchining so'ziga qaratish uchun kuch sarf qiladi. Shuning bilan birga, talaba beixtiyor ravishda paydo bo'lib, o'qituvchining so'zini eshitishga xalaqit beruvchi idrok,

fikr, hissiyot, xayol kabi boshqa psixik jarayonlarni yo'qotish uchun ongli ravishda harakat qiladi. Ixtiyoriy diqqat, masalan, ninaga ip taqish kabi juda oddiy ishda, ayniqsa, ochiq ko'rinadi. Juda ko'p har xil ishlar borki, ular asosan, ixtiyoriy diqqatni talab qiladi, masalan: g'isht teruvchining ishi, ekskavatorlarda ishlash.

Ixtiyorsiz diqqat ham, ixtiyoriy diqqat ham o'zining yo'nalishiga ko'ra tashqi va ichki bo'lishi mumkin.

Kishilarning ongidan tashqarida bo'lgan diqqatga *tashqi diqqat* deb ataladi. Tashqi diqqat dastaval bizning idroklarimiz jarayonida namoyon bo'ladi. Tikuvchining ishida sodir bo'ladigan diqqat tashqi diqqatga misol bo'la oladi. O'quvchining kitob o'qishdagi, suratlarni ko'rishdagi va tabiat hodisalarini kuzatishdagi diqqati ham tashqi diqqatga misol bo'la oladi. Narsa va hodisalarni qaysi sezgi a'zolarimiz bilan idrok qilayotganimizga qarab, tashqi diqqatni ko'rish, eshitish va shuning bilan birga, tuyish, hid bilish va ta'm bilish turlariga ajratish mumkin.

Diqqatning ko'chuvchanligi. Diqqatning ko'chishi deganda, biz uning bir narsadan ikkinchi boshqa bir narsaga, faoliyatning bir turidan boshqa turiga o'tishini tushunamiz. Masalan, odam o'z diqqatini kitob o'qishdan surat ko'rishga, surat ko'rishdan esa o'z fikrlarini bayon etishga ko'chirishi mumkin. O'quvchilar o'z diqqatlarini bir fanni o'qishdan boshqa fanga ko'chiradilar, matematikadan tarixga, tarixdan rus tiliga va shuning kabilar. Diqqatning ko'chishi ixtiyorsiz va ixtiyoriy tarzda sodir bo'lishi mumkin.

Diqqatni ko'chirishning nerv-fiziologik asosi, asosan, ikkinchi signallar sistemasining signallari orqali bosh miyaning po'stida paydo bo'lgan optimal qo'zg'alish o'chog'ining o'rin almashtirishidir.

Diqqatning ko'chirilishi ko'p hollarda qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, ba'zan diqqatni bundan oldingi obektdan aj'ratish qi-yin bo'lsa, boshqa hollarda oldingi ishining ketidan qilinadigan yangi ishga kirishib ketish qiyin bo'ladi. Eng yaxshi diqqat, albatta, bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko'cha oladigan diqqatdir. Diqqatning mana shunday xususiyati tufayli, kishi atrofidagi muhitga tez moslasha oladi hamda o'zgaruvchan sharoitdagi turli elementlarning ahamiyatlarini tezlik bilan belgilay oladi.

Diqqatning bo'linishi. Ma'lum faoliyat jarayonida diqqat birgina narsaga emas, balki ikki va uch narsaga ham qaratilishi mumkin. Diqqatimiz ayni vaqtda ayrim faoliyat turlariga bo'lina oladi. Faqat birgina narsaga qaratilgan diqqatni **konsentratsiyalashgan** (yig'ilgan) yoki **to'plangan** diqqat deyiladi. Masalan, ninaga ip taqishdagi, qo'lda biror narsa tikishdagi, matematik masala echishdagi, ma'ruza eshitishdagi diqqatimiz shunday diqqatdir. Agarda diqqat faqat bir murakkab ish jarayonining o'zida ikki yoki uch narsaga qaratilgan va faoliyatning turli usullari bilan bog'liq bo'lsa, bunday diqqatni **bo'lingan** yoki **taqsim** qilingan diqqat deyiladi. Masalan, O'qituvchi darsni tushuntirish paytida o'z diqqatini o'quvchilar xulqiga, ko'rgazma qurollarni ko'rsatishga, sinf doskasiga va shu kabilarga taqsimlashi lozim.

Yuliy Sezar haqida shunday qissa saqlanib qolgan. U go'yoki bir vaqtning o'zida bir narsani yozib, boshqa narsa haqida o'ylash, uchinchi narsani eshitish

va to'rtinchi narsa haqida gapirish kabi murakkab ishlarni bajara olgan emish. Psixologiya nuqtayi nazaridan, bunday hodisaning bo'lishi mutlaqo mumkin emas. Har holda Yuliy Sezar diqqatini bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko'chirish qobiliyatiga ega bo'lgan bo'lsa kerak. Shu sababli, Yuliy Sezar o'z diqqatini bir vaqtning o'zida to'rt xil faoliyatga qarata oladi, deb o'ylaganlar.

Diqqatning ko'lami. Diqqatning ko'lami — diqqatga eng qisqa vaqt ichida (go'yoki birdaniga) sig'ishi mumkin bo'lgan narsalar soni bilan belgilanadi. Diqqat ko'lami jihatidan tor yoki keng bo'lishi mumkin.

Diqqatning ko'lamini aniqlash uchun taxistoskop degan maxsus asbob qo'llaniladi.

Diqqatning kuchi va barqarorligi. Diqqatning kuchi va barqarorligi uning muhim xossalardan hisoblanadi. Diqqatning kuchi turli darajada bo'lishi diqqat kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Diqqat qanchalik kuchli bo'lsa, u diqqat obektiga shunchalik ko'p to'planadi, boshqa, ayni vaqtda keraksiz bo'lgan narsalarga shunchalik kam chalg'iydi. O'quvchining diqqati har xil, hatto kuchsiz darajadagi chetki qo'zg'ovchilardan, chunonchi, qalamning tushib ketishiga, qo'shni partadagi o'rtoqlarining pichirlashganiga, koridorda bo'layotgan gaplarga chalg'ib ketaversa bu ayni vaqtda o'quvchining diqqati kuchsizligidan dalolat beradi.

Diqqatning barqarorligi. Diqqat ma'lum darajada barqaror va beqaror bo'lishi mumkin.

Uzoq muddatgacha bir narsaning o'ziga qaratilib tura oladigan diqqat **barqaror** diqqat deyiladi. Agar diqqat biron-bir faoliyat jarayonida boshqa narsalarga, keraksiz narsalarga chalg'iyversa yoki tez sustlashib va so'nib qolsa, bunday diqqat **beqaror** diqqat deyiladi.

Birinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Diqqat deb nimaga aytiladi ?
2. Diqqatni faolligi jihatidan nechta turga bo'lish mumkin ?
Tushuntirib bering ?
3. Diqqatning fokusini aniqlang ?
4. Irodaviy diqqat deb nimaga aytiladi ?
5. Ixtiyorsiz diqqatning fiziologik asosini ko'rsating ?
6. Tashqi diqqatni ta'riflang ?
7. Diqqatning paydo bo'lishida hissiyotning, fikrlarning, istaklarning ta'siri bormi ? Fikringizni bayon qiling ?
8. Diqqatning asosiy xususiyatlarini ajrating va tushuntiring ?
9. Diqqatning ko'lami deganda nimalarni bilasiz ? Gapirib bering ?
10. Diqqatni ko'chirishning nerv-fiziologik asosini isbotlang ?
11. Konsentratsiyalashgan diqqat haqida fikringizni bayon qiling ?
12. Diqqatning kuchi va barqarorligini asoslang ?
13. Diqqatning ko'lamini aniqlash uchun ishlatiladigan maxsus asbobni ta'riflang ?

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Diqqatning fiziologik mexanizmlari haqida ma'lumot berish. Bosh miya po'sti qismidagi «optimal qo'zg'alish nuqtasi»ni tushuntirib berish. Yangi shartli reflekslar haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Diqqatning fiziologik mexanizmlarini ta'riflaydi.
2. Bosh miya po'sti qismidagi «optimal qo'zg'alish nuqtasi»ni tushuntiradi.
3. Yangi shartli reflekslar haqida ma'lumot beradi.

Ikkinchi savolning bayoni: Diqqatning fiziologik mexanizmlari.

Diqqatning fiziologik asosini bosh miya po'sti qismidagi «optimal qo'zg'alish nuqtasi» tashkil qiladi. Bunday joyni yaqqol qilib ko'rsatish uchun I.P. Pavlov shunday tasvirlaydi: «Agar bosh suyagiga qaraganda uning ichidagi miya ko'rinadigan bo'lsa, agar katta miya yarim sharlarida optimal qo'zg'alish uchun eng yaxshi sharoit tug'ilgan nuqtasi yiltillab ko'rinadigan bo'lsa edi, ongi sog'lom bo'lib, bir narsani o'ylab turgan odamning miyasiga qaraganimizda, uning miyasining katta yarim sharlarida juda g'alati jimjimador shakl bo'lib, surati va hajmi har lahzada bir o'zgarib, turlanib, jimir-jimir qilib turuvchi yorug' narsaning u yoqdan-bu yoqqa yugurib qimirlab turganini va miya yarim sharining bu yorug' narsa atrofidagi boshqa erlari birmuncha xira tortib turganini ko'rar edi» (Polnoe sobranie sochineniy, 1-kitob, 248-bet).

Optimal qo'zg'alish nuqtasi manfiy induksiya qonuniga ko'ra, bosh miya po'stining boshqa joylarida tormozlanishni vujudga keltiradi.

«Miya yarim sharlarining optimal qo'zg'alishga ega bo'lgan qismida, - deydi I. P. Pavlov, - yangi shartli reflekslar engillik bilan hosil bo'ladi va differensirovkalar muvaffaqiyatli ravishda paydo bo'ladi. Shunday qilib, optimal qo'zg'alishga ega bo'lgan joy ayni chog'da bosh miya yarim sharlarining ijodga layoqatli qismi desa bo'ladi.

Dominanta printsipi.

Diqqatning fiziologik asosi bo'lmish optimal qo'zg'alish o'chog'i haqidagi I.P. Pavlov ta'limoti bilan akademik A.A. Uxtomskiyning olib borgan tekshirishlari bir-biriga to'g'ri keldi. Bu tekshirishlar natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi. Agar nerv sistemasiga bir qancha qo'zg'ovchilar bir vaqtda ta'sir etsa, bosh miya po'stida shu onning o'zida bir necha qo'zg'alish o'choqlari paydo bo'ladi. Shu bilan birga, har bir qo'zg'alish o'chog'i bosh miya po'stining hamma eriga tarqalishga, irradiatsiyalanishga moyildir. Shuning uchun ayrim qo'zg'alish o'choqlari o'rtasida to'qnashish va «kurash» sodir bo'ladi. Bu kurash natijasida qo'zg'alish o'choqlaridan biri hukmron (dominanta) bo'lib oladi. Mana shu hukmron bo'lib olgan qo'zg'alish o'chog'ini akademik Uxtomskiy «dominanta» deb ataydi. Uxtomskiyning bergan ta'rifiga ko'ra, dominanta - bu ayni chog'da markazda sodir bo'ladigan

reaksiyalar xarakterini bir qadar belgilab beruvchi hukmron qo'zg'alish o'chog'idir.

Dominantalar mavjud bo'lgan paytda boshqa qo'zg'alish o'choqlari («sub-dominantlari nisbatan kuchsiz qo'zg'alish o'choqlari») ko'pincha yo'qolib ketmaydilar. Ular dominantaga qo'shilib, uni kuchaytiradilar yoki dominantaga bilan kurasha boshlaydilar. Bu kurash jarayonida subdominanta dominantaga bo'lib olishi mumkin, ilgari dominantaga esa subdominanta bo'lib qolishi mumkin. Hukmron qo'zg'alish o'chog'i bo'lgan dominantaga diqqatimizning ma'lum narsaga yo'naltirilishi va to'planishining fiziologik asosidir.

Ikkinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. I. P. Pavlovning diqqat haqidagi fikrlarini bayon qiling.
2. Optimal qo'zg'alish nuqtasini misollar yordamida tushuntirib bering.
3. I.P. Pavlov ta'limoti bilan akademik A.A. Uxtomskiyning olib borgan tekshirishlarini o'rganing va qiyosiy solishtiring ? Fikringizni bildiring ?
4. «Dominanta» printsipini ta'riflang ?
5. Kuchsiz qo'zg'alish o'choqlari haqida nimalarni bilasiz ? Gapirib bering ?
6. Subdominantalarni ajratib va tushuntiring ?

Uchinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Bolalarda necha yoshdan boshlab diqqat rivojlana boshlaydi? Tushuntirib bering ?
2. Bolalarning o'yin faoliyatlarida, mehnatda va asosan o'qish jarayonida diqqatning qaysi xususiyatlarini kuzatish mumkin ?
3. Bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishida katta kishilarning ta'siri bormi ? Fikringizni bayon qiling ?
4. Diqqatni ta'riflang?
5. Diqqat turlarini sanang?
6. Diqqatning fiziologik mexanizmlarini bayon qiling?

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

Diqqat deb, ongning bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obektga faol qaratilishiga aytiladi; biz o'z faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimizning qilgan ishlarimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning obekti bo'la oladi. Diqqat turlarini talabalarga tushuntirib berish. Diqqatning fiziologik mexanizmlarini o'rganish. Diqqatning asosiy xususiyatlarini aniqlab berish. Diqqatning taraqqiy etishini gapirib berish.

7 mavzu:

“Idrok va kasbga yo'llash” mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs vaqt
1	Tayyorlov bosqichi:	O'qituvchi

	Dars maqsadi: Talabalarga idrokning xususiyatlarini tushuntirish. Appertseptsiyani ta'riflash. Vaqt, harakat va fazoni idrok qilishni ko'rib chiqish. Idrokning konstantligini belgilash. Kasbga yo'llashda idrok qonuniyatlarini hisobga olishni tavsiflash. 1.2. Identiv o'quv maqsadlari. 1. Idrokning xususiyatlarini tushuntiradi. 2. Appertseptsiyani ta'riflaydi. 3. Vaqt, harakat va fazoni idrok qilishni ko'rib chiqadi. 4. Idrokning konstantligini belgilaydi. 5. Kasbga yo'llashda idrok qonuniyatlarini hisobga olishni tavsiflaydi. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Idrokning predmetliligi, yaxlitligi, strukturaviyligi, konstantligi, anglanganligi, predmetliligi tanlovchanligi, analitik, sintetik. 1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza 1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs, videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, taqdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarqatma materiallar, video tasmlar, slaydlar, video proektor, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali materiallar.	hi
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituvchi 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga idrokning kasbga ta'siri haqida muammoli savol beriladi. 3.2. Talabalarining idrokning kasbga ta'siri haqida fikri eshitaladi va boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Talabalarining idrokning kasbga ta'siri haqida fikri tinglanib, umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosani o'qituvchi bayon qiladi.	O'qituvchi-talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 1. Idrokning xususiyatlarini ta'riflang ? 2. Appertseptsiyani o'qing va o'rganing. 3. Vaqt, harakat va fazoni idrok qilishni belgilang. 4. Kasbga yo'llashda idrok qonuniyatlarining psixologik asoslarini ta'riflang.	O'qituvchi 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi 10 minut

1. Idrok xususiyatlari.
2. Appertsepsiya. vaqt, harakat va fazoni idrok qilish.
3. Idrokning konstantligi.
4. Kasbga yo'llashda idrok qonuniyatlarini hisobga olish.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Idrokning predmetliligi, yaxlitligi, strukturaviyligi, konstantligi, anglanganligi, predmetliligi tanlovchanligi, analitik, sintetik, barqaror appertsepsiya, muvaqqat appertsepsiya, monokulyar, binokulyar.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni idrokning predmetliligi, yaxlitligi, ma'lum tartibda tuzilishi (strukturaviyligi), konstantligi, anglanganligi, predmetliligi (jismililigi), tanlovchanligi (saralanuvchanligi) kabi xususiyatlari bilan tanishtirish. Idrokning fiziologik asosini bayon qilish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Idrokning predmetliligi va yaxlitligini tushuntiradi.
2. Ma'lum tartibda tuzilishini (strukturaviyligi) va konstantligini o'rgatadi.
3. Anglanganligi, predmetliligi (jismililigi), tanlovchanligi (saralanuvchanligi) kabi xususiyatlari bilan tanishtiradi.
4. Idrokning fiziologik asosini bayon qiladi.

Birinchi savolning bayoni:

Idrokning xususiyatlari.

Idrok sezgi a'zolarimizga ta'sir qilib turgan narsalarning ongimizda bevosita aks etishidir. Biz narsa va hodisalarni yaxlit holicha idrok qilamiz, narsalarning ayrim xossalarini esa sezamiz. Masalan, quyoshni biz idrok qilamiz, uning yorug'ini esa sezamiz, og'zimizdagi chaqmoq qandni idrok qilamiz, uning shirinligini esa sezamiz. Ammo xossa va narsa bir-biridan ajralmasdir, shu sababli narsalarni idrok qilish ham sezgilardan ajralgan holda voqe bo'lishi mumkin emas. Biz bir narsani idrok qilayotganimizda uning ayrim xossalarini ham sezamiz.

Biror narsaning o'zini idrok qilmasdan hosil bo'ladigan sezgilar yangi tug'ilgan chaqaloq hayotining dastlabki kunlaridagina mavjud bo'ladi. chaqaloq narsaning o'zini idrok qila bilmasa ham undan hosil bo'ladigan sezgilarni ajratadi, masalan, yorug' va qorong'ini, shirin va nordonni sezadi. Sezgilar, odatda sodda, elementar psixik jarayonlar hisoblanadi, idrok esa murakkab psixik jarayondir. Biz idrok qilayotgan narsalar g'oyatda xilma-xildir. Bular jumlasiga, avvalo turli buyumlar, binolar, daraxtlar, jihozlar, texnika buyumlari va hokazolar kiradi.

Idrokning predmetliligi, yaxlitligi, ma'lum tartibda tuzilishi (strukturaviyligi), konstantligi, anglanganligi, predmetliligi (jismililigi), tanlovchanligi (saralanuvchanligi) uning eng muhim xususiyatlaridandir.

Idrokning muhim xususiyatlaridan biri – bu faol ravishda bevosita aks ettirish imkoniyatining mavjudligidir. Odatda insonning idrok qilish faoliyati uning o'zlashtirilgan bilimlari, to'plangan tajribalari, shuningdek, murakkab analitik, sintetik harakatlar tizimi zahirida yuzaga keladi. Bu holat idrok qilinishi zarur bo'lgan o'quv fani mohiyatiga bog'liq ilmiy faraz

yaratish, uni amalga oshirish borasida qaror qabul qilish yaqqol voqelik bilan tasavvur qilinayotganining o'zaro mosligini aniqlash singari bosqichma-bosqich o'zaro bir-birini taqozo etuvchi tarkibiy qismlardan iboratdir.

Idrokning faolligiga, avvalo unga *bog'liq* bo'lgan hissiy kechinmalar sabab bo'ladi. Bu his-tuyg'ular, avvalo shu paytdagi idrok tarkibiga kiradigan sezgilarning emotsional (hissiy) tomonidan iborat bo'ladi. Idrok qilinayotgan narsa va hodisalar to'g'risida o'tmishda tug'ilgan taassurot fikrlar bilan bog'liq hissiyot ham shu jumladandir. Ko'pincha odamning idrokiga shu paytda kechirayotgan bironta hissiyotining shodligi, xushchaqchqligi, g'amginligi, tajangligi va boshqa shu kabi tuyg'ulari ta'sir qilib, idrok qilinayotgan narsa yoki hodisaga ma'lum bir tus beradi. Shu sababli, kishining ta'bi xiralik vaqtida tabiat manzaralari unga allaqanday g'amgin, ma'yusdek ko'rinadigan bo'lsa, ta'bi chog' vaqtida gullar «kulib» to'rganday, hamma yoq «quvnoq» dek ko'rinadi.

Idrokning yana bir muhim xususiyati – uning umumlashgan holda narsa va hodisalarning aks ettirishidir. Ma'lumki, inson psixikasiga kirib borayotgan ko'pqirrali, ko'pyoqlama alomatlardan idrok qilish bilan cheklanib, chegaralanib qolmasdan, balki o'sha majmua aniq jism yoki hodisa sifatida baholanadi. Jismlarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash bilan qanoat hosil qilmasdan, balki mazkur narsalarni ma'lum ma'noviy qismlarga ajratadi. Jumladan, «soat», «bino», «hayvonot» va hokazo.

Idrokning navbatdagi xususiyati uning harakatchanligi va boshqaruvchanligidir. Masalan, toshko'mir yorug'likda yog'du sochadi, oq qog'ozdan ko'proq nur balqiydi. Lekin inson bu narsalarni «qora» va «oq» deb idrok qiladi, vujudga kelgan bevosita sub'ektiv taassurotlarga nisbatan o'zgartishlar, tuzatishlar kiritadi. Chunki idrok jarayoni inson oldida turgan maqsadga, maqsad qo'ya olishga, unga berilgan ustanovkaga (ongli, ixtiyoriy ko'rsatmaga) uzviy bog'liq holda irodaviy boshqarilish xususiyatiga egadir. Shuning uchun insonni idrok qilish (pertseptiv) faoliyatida ongli boshqariluv imkoniyati mavjud bo'lib, analitik, sintetik, harakatlar negizida verbal orqali amalga oshiriladi.

Bilish jarayonini taqozo etuvchi idrokning muhim xususiyatlaridan biri, ya'ni bittasi uni tuzilishga ega ekanligi, ya'ni strukturaviyligidir. Ushbu xususiyatsiz idrokning mag'zi hisoblanmish yaxlitlik haqida jonli mushohada bo'lishi mumkin emas. Chunki struktura qismlardan vujudga kelsa, alohidaliklar birikmasidan yaxlit tuzilma yaratiladi.

Idrok qo'zg'atuvchilarining ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farq qilib, narsani butunligicha, yaxlitligicha uning hamma xususiyatlari bilan birga aks ettiradi.

Idrok o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan hissiy bilishning sifat jihatdan yangi yuksakroq bosqichidir.

Idrokning fiziologik asosi bosh miya po'stining analiz-sintez faoliyatidan iborat bo'lib, bu faoliyat sezgi organlarimizga ta'sir qilib turadigan narsa yoki

hodisaning bitta xossasi Idrokning nerv-fiziologik mexanizmlari ham sezgilardagiga qaraganda ancha murakkabdir bilan emas, balki bu xossalarning jami, butun bir kompleksi bilan vujudga keladi. Idrok tarkibiga tafakkur va nutq faoliyati ham kiradi Bunda tafakkur va nutq, faoliyati, avvalo idrok qilinayotgan narsa va hodisaning nomini ovoz bilan yoki o'z ichidan aytishda va bilishda ifodalanadi.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni appertsepsiya. vaqt, harakat va fazoni idrok qilish tushunchasi bilan tanishtirish. Barqaror appertsepsiya va muvaqqat (vaqtincha) appertsepsiyaning o'rgatish. Monokulyar va binokulyar idrok qilishni ko'rib chiqish.

Identiv o'quv maqsadi:

Appertsepsiya hodisasini tushuntiradi.

Vaqt, harakat va fazoni idrok qilish tushunchasi bilan tanishtiradi.

Barqaror appertsepsiya va muvaqqat (vaqtincha) appertsepsiyaning o'rgatadi.

Monokulyar va binokulyar idrok qilishni ko'rib chiqadi.

Ikkinchi savolning bayoni

Appertsepsiya. vaqt, harakat va fazoni idrok qilish.

APPERSEPSIYA

Idrok tushunchasi lotin tilida «perceptio» qabul qilish, idrok deb nomlanadi, uning yuqori bosqichi esa «appertsepsiya» (lotincha -ad ga perceptio-idrok, qabul qilish) deyiladi. Appertsepsiya - idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman, ruhiy hayotning barcha mazmuni bilan belgilanishidir. Appertsepsiya hodisasi tufayli odamlar o'zaro idrokining mazmuni bilan bir-birlaridan muayyan darajada tavofutlanadilar, ya'ni ular aynan bir xil narsani o'zining bilim saviyasi, maslagi, pozitsiyasi, dunyoqarashi va ijtimoiy kelib chiqishiga asoslangan holda turlicha idrok qiladilar hamda aks ettiradilar. Masalan, «ildiz» tushunchasini biologlar o'simliklarning moddiy asosi sifatida, matematiklar sonlarning ildiz ostidagi ko'rinishida, ijtimoiy nuqtai nazardan qarindosh-urug'chilik shaklida ko'z o'ngiga keltiradi. Mazkur tushuncha ba'zi hollarda idrokning aniqlik, to'liqlik, ravshanlilik, predmetlilik, tanlovchanlik (saralash) kabi sifatning ma'nosi o'rnida qo'llanilgan. Appertsepsiya hodisasi **barqaror** va **vaqtincha** (muvaqqat) deb yurituvchi ikki ko'rinishga (turga) ajratiladi. **Barqaror appertsepsiya hodisasi shaxsning dunyoqarashi, qat'iy maslagi, ideali, pozitsiyasi, motivatsiyasi, qiziqishi, bilim saviyasi, madaniy darajasi, xulq-atvori, ma'naviyati va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi va u murakkab tuzilishga ega.**

Muvaqqat (vaqtincha) appertsepsiya shaxsning faqat idrok qilish jarayonidagi emotsional holatiga, ya'ni uning kayfiyati, ruhlanishi, shijoati, stress, affektiv ko'rinishdagi his-tuyg'ularida, ularning sur'ati, davomiyligi, tezligida o'z ifodasini topadi.

Alifbe va boshlang'ich o'qish kitoblari yirik harflar bilan bosiladi, chunki endi savod chiqarayotgan kishilarda (bola va katta yoshlilarda) hali kitob

o'qish tajribasi bo'lmaydi. Ko'p o'qigan, bu sohada katta tajribaga ega bo'lgan kishilar mayda harf bilan bosilgan xatni ham (masalan, gazetani) jo'ngina o'qib ketaveradilar.

Appersepsiya badiiy asarlar matnini, badiiy surat va rasmlarni idrok etishda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Biz bironta suratga ko'z solganimizda to'g'ridan to'g'ri faqat bo'yoq rang va chiziqlarning har xil chatishuvini ko'ramiz, xolos. Bu **persepsiya**dir. Rasm va suratni idrok qilganimizda esa, masalan, istiqbolni, odam va hayvonlarning ish-harakatlarini biz o'tmishdagi tajribamiz, bilimlarimiz va xayolimiz faoliyati natijasida idrok qilamiz. Bu appersepsiya. Musiqani idrok qilishda ham xuddi shu hol yuz beradi.

Fazoni idrok qilish.

Fazoni idrok qilish deganda narsalarning fazodagi shakllarini, ularning fazodagi katta-kichikligini va fazodagi o'zaro munosabatlarini ko'zda tutiladi. Ma'lumki, fazodagi shakllariga qarab, uch burchakli, to'rt burchakli, kub, silindr va shu kabi shakldagi narsalar ajratiladi; narsalar katta-kichikligiga qarab, nisbatan katta, kichikroq, o'rtacha va hokazo narsalarga ajratiladi; fazodagi munosabatlariga qarab, bu narsalar bizga va bir-biriga nisbatan yaqin, uzoq, chap tomonda, o'ng tomonda, yuqori yoki past bo'lishlari mumkin.

Fazoni biz bir ko'zimiz bilan ham ko'rib, ya'ni **monokulyar**, ikki ko'zimiz bilan ham ko'rib, ya'ni **binokulyar** idrok qilamiz. Monokulyar idrok quyidagicha voqe bo'ladi. Biz ko'z bilan qaraganimizda, biz shu narsadan aks etgan nurlar ko'z gavharida sinib, ko'zning to'r pardasi (setchatka)da shu narsaning aks etgan surati fotoapparatdagiga o'xshab, to'nkarilib, teskari tushadi. Ammo bunga qaramasdan, biz narsani haqiqiy holatida, haqiqiy shakli va katta-kichikligida ko'ramiz, idrok qilamiz. Ko'zimiz bilan tik (to'ppa-to'g'ri) qaraganimizda, agar yorug'lik kuchli bo'lib, ko'rinib turgan narsalar o'rtasidagi ko'rish burchagi 50 dan kam bo'lmasa, ko'zimiz ayni bir vaqtda ikki narsani (ikki nuqtani) ko'ra oladi. Lekin, ko'rish burchagi kichikroq bo'lsa, ikki narsa yoki ikki nuqta bittadek bo'lib ko'rinadi. Yon tomondan qaraganda ikki nuqta bittadek ko'rinadi va ko'rish burchagi hiyla katta bo'ladi. Shuning uchun ham uzoq masofadagi ikki yoki bir qancha narsa «birlashib ketib», bir narsadek idrok qilinadi.

Vaqtни idrok qilish.

Biz idrok qilib turgan narsa va hodisalar ma'lum bir (zamon) davomida paydo bo'ladi, taraqqiy qiladi va o'zgarib boradi. Obektiv dunyo hodisalarini aks ettiradigan idrok, tassavur, fikr va hokazolardan iborat bo'lgan bizdagi subektiv, psixik hodisalar vaqt davomida paydo bo'ladi, o'zgarib va almashib turadi.

Biz vaqtни hozirgi zamon (hozirgi payt) va undan kelgusiga borayotgan real narsadek idrok qilamiz, uni tasavvur qilamiz va fikrlaymiz. Shuning uchun ham o'tmish, hozirgi zamon va kelgusi ma'nosida olingan tushunchalar mavjuddir. Vaqtни idrok qilish haqida gapirar ekanmiz, biz hozirgi paytni nazarda tutamiz. O'tmish vaqt xotira faoliyati esga tushirish faoliyati bilan

bog'liq bo'ladi. Kelgusi vaqtni esa biz faqat xayolga keltirishimiz yoki bu haqda o'ylashimiz mumkin, xolos. Obektiv (matematik) nuqtayi nazardan, hozirgi payt bu o'tmishni kelgusidan ajratadigan bir nuqta (chegara)dir. Ammo psixologik, subektiv nuqtayi nazardan, biz borayotgan vaqtning «bo'laklarini» hozirgi payt (endimik) deb idrok qilamiz. Dars, ma'ruza yoki bironta musiqiy asarni eshitib o'tirish davomidagi vaqt ham mana shunday idrok qilinadi. Demak, vaqtning to'xtovsiz borishi, davomi hozirgi payt deb tuyuladi.

Vaqtning tez yoki sekin o'tayotgandek sezishimiz shu paytda siz kechirayotgan psixik jarayonlarga bog'liq bo'ladi. Ichki organlarning sezgirligi yo'qolgan (anesteziya paydo bo'lgan) bemorlarda vaqt o'tishini bevosita his qilish qobiliyati yo'qolishi yoki zaiflanishi ma'lumdir. I.P. Pavlovning fikricha tanamizda bo'lib turadigan hodisalarning takrorlanib turishi vaqtning idrok qilishda katta rol o'ynaydi. «Bir kun davomida, — deb yozadi Pavlov, - bosh miya ta'sirlanadi, charchaydi, so'ngra yana kuchini tiklaydi. Ovqat hazm qiladigan yo'llar vaqt-bevaqt ovqat bilan to'latiladi, ovqatdan bo'shab qoladi va hokazo. Odamning psixik hayoti bedorlik vaqtida eng boy mazmunga ega bo'ladi, shu sababli vaqtning tez yoki sekin o'tayotgani his qilinadi va bilinadi.

Harakatni idrok qilish.

Harakatni idrok qilish ayni zamonda ham fazoni, ham vaqtning idrok qilish demakdir. Masalan, yurayotgan mashinani ko'rib turar ekanmiz, biz ayni vaqtda uning bizga nisbatan joyini ham va biror nuqtaga nisbatan masofasi o'zgargan (yaqinlashgan yoki uzoqlashgan) vaqtini ham idrok qilamiz. Idrok qilinayotgan harakatning tezligi shu narsa harakatining obektiv (haqiqiy) tezligiga hamisha teng baravar bo'lavermaydi. Ayni bir xildagi harakat tezligi, vaziyatga qarab, har xil idrok qilinishi mumkin: goho ildamroq, goho sekinlashgandek ko'rinadi. Tanamizga bevosita tegib turgan narsalarning harakatini biz teri sezgisi, muskul va ko'ruv organlari vositasi bilan idrok qilamiz. Bizga nisbatan muayyan masofada turgan narsalarning harakatini ko'z bilan ko'rib idrok qilamiz.

Harakatni ko'z bilan ko'rib idrok etish ikki xil usul bilan: birinchidan, harakatda bo'lgan narsaga ko'zni uzmasdan qaraganda uning surati ko'z to'rt pardasida hosil bo'ladi, ikkinchidan, ko'zimizni harakatda bo'lgan narsa tomon yuritish, harakatini kuzatib borish bilan voqe bo'ladi. Ko'zimizni harakatlanuvchi narsa tomon yuritib idrok qilingan harakatga qaraganda, ko'zimizni uzmasdan (yuritmasdan) idrok qilingan harakat ancha tez harakatdek ko'rinadi. Odatda, harakat ana shu ikkala usul bilan bir yo'la idrok qilinadi. Ikki usulning birlashgani uchun idrok qilinayotgan harakatning tezligi ancha aniq bilib olinadi.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni idrokning konstantligi, bilan tanishtirish. Konstantlik hodisasini ko'rib chiqish.

Identiv o'quv maqsadi:

Talabalarni idrokning konstantligi bilan tanishtiradi.

Konstantlik hodisasini ko'rib chiqadi.

Uchinchi savolning bayoni Idrokning konstantligi.

Idrokning konstantligi shundan iboratki, bironta narsani idrok qilishdan hosil bo'lgan obraz, idrokning fizik sharoiti o'zgarib tursa ham, doimo shu obraz holicha qolaveradi. Idrokning konstantligi ko'rish idroklarida, narsalarning katta-kichikligini ularning shakli va ranglarini idrok qilishda, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Bizga ma'lumki, biror narsadan uzoqlashsak, uning ko'zimiz to'r pardasidagi surati (aksi) kichrayadi, ammo shu narsaning obrazi bu bilan o'zgarmaydi, o'zgarganda ham bilinar-bilinmas o'zgaradi. To'g'ri burchakli stol bizdan 1 *m* yoki 10 *m* uzoqrog'da tursa ham biz unga to'g'ridan yoki yondan qarasak ham, uning kattaligi va shaklining aksi ko'z to'r pardasida har safar o'zgarib turishiga qaramay, baribir hamisha o'z shakli va katta-kichikligini o'zgartirmagandek, boyagicha idrok qilinaveradi.

Konstantlik hodisasi shuni ko'rsatadiki, biz narsalarni ko'rib turgan paytimizda, ularning ko'z to'r pardasiga tushgan suratiga aynan muvofiq holda ko'rmay, balki shu narsalar haqiqatda qanday mavjud bo'lsa, shu holda ko'ramiz. Idrokning konstantligi odamning tajribasi jarayonida, amaliy faoliyatida vujudga kelib, mustahkamlanadi.

To'rtinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni kasbga yo'llashda idrokning ahamiyati bilan tanishtirish. Illuziya va gollutsinatsiya hodisasini o'rgatib qiyosiy solishtirish. Aristotel (Arastu) illuziyasi hodisasini ko'rib chiqish va ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Kasbga yo'llashda idrokning ahamiyati bilan tanishtiradi.
2. Illuziya va gollutsinatsiya hodisasini o'rgatadi va qiyosiy solishtiradi.
3. Aristotel (Arastu) illuziyasi hodisasini ko'rib chiqadi va ta'riflaydi.

To'rtinchi savolning bayoni

Kasbga yo'llashda idrok qonuniyatlarini hisobga olish.

Odamning aqli qanchalik etuk, muayyan sohaga oid tasavvuri, fikri, tajribasi, bilimi qanchalik boy bo'lsa, uning shu sohada idroki ham shunchalik murakkab, chuqur va sarmazmun bo'ladi. Bu xususiyatlar moddiy buyumlarni idrok qilishdayoq namoyon bo'ladi. M: bironta yangi mashinani tegishli ixtisosi bo'lmagan kishi tomonidan idrok qilinishi, ixtisosi bor odamning idrokiga qaraganda, mazmunan torroq va yuzaki bo'ladi. Ayni bir obektlarni tegishli ixtisosi bo'lmagan kishining kuzatishlariga qaraganda, olimning chuqur ilmi kuzatishlari hiyla farq qiladi.

Ba'zi hollarda narsalar noto'g'ri, yanglish idrok qilinishi mumkin. Narsalarni bu tariqa noto'g'ri idrok qilishni **illuziya** deb ataladi. Masalan, agar biz ko'rsatkich va o'rta barmog'imizni chalishtirib, no'xat yoki bironta dumaloq narsani chalishtirilgan ikkala barmog'imizning uchi bilan bosib turib, ayni bir vaqtda aylantiraversak (biz no'xatni aylantiraylik), barmoqlarimiz tagida bitta emas, balki ikki no'xat bordek his qilamiz. Ana shu holda bir narsaning ikki bo'lib sezilishini Aristotel (Arastu) illuziyasi deyiladi. Og'irligi

aynan teng, ammo kattaligi har xil bo'lgan ikki buyumni ketma-ketiga ushlab turilsa, kattasi engilroq, ikkinchisi og'irroqdek tuyuladi. Metallardan ishlangan 1 kg tarozi toshi, 1 kg paxtadan og'irroqdek his qilinadi. Bu hol **geometrik illuziyalar** deb nom berilgan illuziyalarda, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi.

Illuziyaning yuqorida keltirilgan namunalarida hamma aqli raso odamlarda albatta bo'ladigan illuziyalardandir. Bunday illuziyalarning muayyan qonuniyatlari bor. Masalan, yuqorida bayon qilingan Aristotel illuziyasining paydo bo'lish sababi shuki, bunda bitta narsa barmoq uchla-rimizning terisi yuzidagi shunday ikki nuqtaga tegadi, odatdagi tabiiy sharoitda esa bitta narsa ana shu ikki nuqtaga hech qachon birdaniga tegib turmaydi. **Illuziya** shu onda sezgi organlarimizga ta'sir qilib turgan bir narsani yangilash, noto'g'ri idrok qilish bo'lsa, **gollutsinatsiya** yo'q narsalarni, tashqi ta'sirotsiz «idrok qilinishidir»: o'rni tagida yo'q narsaning ko'zga bordek ko'rinishi, yo'q ovozlarning quloqqa eshitilishi, yo'q narsalarning isi dimoqqa urilishi va boshqa shu kabilar gollutsinatsiya mahsulidir. Gollutsinatsiya shaxsning go'yo biror narsani ko'rgandek, eshitgandek, ushlagandek, va boshqa shu kabi tasavuridir, xolos. Gollutsinatsiya ko'pincha kasallikdan darak beruvchi alomatdir, u nerv sistemasi bironta zaharli narsa (alkogol, kokain, nasha) bilan ta'sirlanganda, nerv sistemasini buzadigan kasalliklar oqibatida ro'y beradi.

Butun psixik hayotimizda, faoliyatimizning hamma sohalarida va xususan o'qish-o'qitishda idrokning ahamiyati kattadir. Shuning uchun hamisha idrokning sifatiga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Psixik hayotimizning butun boyligi sezgi va idroklarimiz orqali hosil bo'lgan mazmundan iborat bo'ladi. Idrok olamni bilish faoliyatimizning boshlang'ich, asosiy momentidir. Idrok qilish yo'li bilan hosil bo'lgan ma'lumotlar xotiramizda saqlanib qoladi va so'ngra ongimizning oliy jarayonlari tafakkur, xayol, iroda faoliyati uchun asos bo'ladi.

Idrokning o'sishi sezgi organlari va analizatorlarning mukammal o'sishi bilan belgilanadi. Idrokning o'sishi sezgi organlarining o'sishi bilan juda mahkam bog'langandir. Idrok bolaga beriladigan tarbiya ta'siri, tajriba orttirish, bilim olish tufayli, tafakkur, xayol, diqqat, hissiyot, irodaning bir-biriga ta'sir qilib birgalikda o'sishi yoki umuman shaxsning kamol topib borishi jarayonida o'sib boradi.

8 mavzu : “Xotira va kasbiy maslahat”
mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	Tayyorlov bosqichi: Dars maqsadi: Talabalarga xotira turlarini tushuntirish. Xotira jarayonlarini ajratish. Esda olib qolish shartlarini	O'qituvchi

	ishlab chiqish. Xotira tiplarini aniqlash. Kasbiy maslahatda xotira qonuniyatlarini hisobga olishni ko'rib chiqish. Identiv o'quv maqsadlari. 1. Talabalarga xotira turlarini tushuntiradi. 2. Xotira jarayonlarini ajratadi. 3. Esda olib qolish shartlarini ishlab chiqadi. 4. Xotira tiplarini aniqlaydi. 5. Kasbiy maslahatda xotira qonuniyatlarini hisobga olishni ko'rib chiqadi Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: motor harakat xotirasi, obrazli xotira, so'z-mantiq xotira, mexanik xotira, operativ xotira, fenomenal, kasbiy. 1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza 1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs, videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, taqdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarqatma materiallar, vedio tasmlar, slaydlar, vedio proektor, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali materiallar.	
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga xotira turlariga oid muammoli savol beriladi. 3.2. Talabalarining xotira jarayonlari haqida fikri eshtiladi va boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Talabalarining xotira haqida fikri tinglanib, umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosani o'qituvchi bayon qiladi.	O'qituvchi-talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 1. Xotirani ta'riflang ? 2. Kasbiy maslahatda xotira qonuniyatlarini aniqlang va ularni qiyosiy solishtiring. 3. Esda olib qolish shartlarini ta'riflang.	O'qituvchi, 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi, 10 minut

Asosiy savollar:

1. Xotira turlari.
2. Xotira jarayonlari.

3. Esda olib qolish shartlari.
4. Xotira tiplari va kasbiy maslahatda xotira qonuniyatlarini hisobga olish.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: motor harakat xotirasi, obrazli xotira, so'z-mantiq xotira, mexanik xotira, operativ xotira, fenomenal, kasbiy.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni xotira turlari bilan tanishtirish. Xotirani ta'riflash. Ruhiy faoliyatning faolligiga ko'ra xotira turlari va : ruhiy faoliyatning maqsadiga ko'ra turlarini o'rgatish. Ruhiy faoliyatning davomiyligiga ko'ra turlari, ruhiy faoliyat qo'zg'atuvchisining sifatiga ko'ra turlari va ruhiy faoliyatning inson yo'nalishiga qaratilgan turlarini ajratadi.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Xotira turlari bilan tanishtiradi.
2. Xotirani ta'riflaydi.
3. Ruhiy faoliyatning faolligiga ko'ra xotira turlari va ruhiy faoliyatning maqsadiga ko'ra turlarini o'rgatadi.
4. Faoliyatning davomiyligiga ko'ra turlari, ruhiy faoliyat qo'zg'atuvchisining sifatiga ko'ra turlari va ruhiy faoliyatning inson yo'nalishiga qaratilgan turlarini ajratadi.

Birinchi savolning bayoni **Xotira turlari.**

Ongimiz aks ettirgan narsalarni mustahkamlash, saqlab qolish va keyinchalik tiklash (esga tushirish) dan iborat bo'lgan aqliy faoliyat xotira deyiladi. **Biz** sezgan, idrok qilgan narsalarimiz, kechirayotgan tuyg'ularimiz, fikr va qilingan ish-harakatlarimiz esimizda saqlanib qoladi va keyinchalik esimizga tushadi. Buni har kim **o'z** tajribasidan yaxshi biladi. Masalan, o'quvchilar maktabda o'qitilayotgan narsalarini esda olib qoladilar, esda saqlaydilar va esga tushiradilar.

ongimiz aks ettirgan narsalarni mustahkamlash, saqlab qolish va keyinchalik tiklash (esga tushirish) dan iborat bo'lgan aqliy faoliyat xotira deyiladi.

Xotira 5 ta muhim turlarga, ko'rinishlarga ajratiladi:

I. Ruhiy faoliyatning faolligiga ko'ra xotira turlari:

- a) harakat yoki motor harakat xotirasi;
- b) obrazli xotira;
- v) his-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi;
- g) so'z-mantiq xotira.

II. Ruhiy faoliyatning maqsadiga ko'ra:

- a) ixtiyorsiz, b) ixtiyoriy, v) mexanik.

III. Ruhiy faoliyatning davomiyligiga ko'ra:

- a) qisqa muddatli xotira;
- b) uzoq muddatli;
- v) operativ (tezkor) xotira.

IV. Ruhiy faoliyat qo'zg'atuvchisining sifatiga ko'ra:

a) musiqiy, b) eshitish xotirasi.

V. Ruhiy faoliyatning inson yo'nalishiga qarab:

a) fenomenal, b) kasbiy.

1. **Obraz xotirasi** – yaqqol mazmunni, ya'ni narsa va hodisalarning aniq obrazlarini, ularning yorqin xususiyati va bog'lanishlarini esda qoldirish, mustahkamlash hamda esga tushirishdan iborat xotira turi. Obraz xotirasi analizatorlarning (tashqi va ichki muhitdan keladigan taassurotlarni qabul qilib, fiziologik jarayon hisoblangan qo'zg'alishni ruhiy jarayonga aylantiruvchi asab mexanizmlari tizimi) nomiga ko'ra ko'ruv, eshituv, teri sezgisi kabi turlarga bo'linadi.

2. **Harakat xotirasi** - turli harakatlarni, ularning bajarilish tartibi, tezligi, sur'ati, izchilligi va boshqa sifatlarini esda qoldirish, mustahkamlash hamda esga tushirishdan iborat turi. Harakatni esga tushirish shu harakatni bevosita bajarish yoki tasavvur qilish orqali sodir bo'ladi. Harakat xotirasi mehnat, o'quv, maishiy xizmat ishlari, sport va boshqa turdagi malakalarning tarkib topishi hamda bajarilishida muhim ahamiyatga egadir.

3. **Mantiq xotirasi** - ma'lum g'oyalar, fikrlar, hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni esda qoldirish, mustahkamlash va zarur paytlarda esga tushirishdan iborat bo'lgan xotira turi. Masalan, falsafiy mushohadalar, qonuniyatlar va shu kabilarning esda qoldirish, mustahkamlash va qayta tiklash jarayonlaridir. So'zlar (verbal) orqali ifodalangan fikrlar so'z-mantiq xotirasi yordamida esda olib qolinadi.

4. **Mexanik** (grek. ongga yo'naltirilmagan) xotira - muayyan materialni uning mazmuni, mohiyati, ichki mantiqiy bog'lanishlariga tushunmagan holda, faqat muhim bo'lmagan tashqi belgilariga asoslanib esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi.

5. **Musiq**a xotirasi - avval idrok qilingan musiqa obrazlarini esda qoldirish, mustahkamlash va keyinchalik ularni qayta esga tushirishdan iborat xotira turi.

6. **Kasbiy xotira** - bevosita o'z kasbiga doir narsa va hodisalarni, fikr, mulohaza, hissiyot, harakatlarni esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi. Masalan, o'qituvchi talaba hamda o'quvchilarning psixik xususiyatlarini, o'z faniga oid qoida va qonuniyatlarini; davlat avtomobil nazorati xodimlari ko'proq avtomashinalarning raqamlari va tuslarini; sportchi o'z sohasiga taalluqli xatti-harakatlar, musobaqalar ko'rigini, hamkasblarini esda qoldirish va esga tushirishga moyildirlar.

7. **Fenomenal** (gr. – noyob) xotira - idrok qilingan narsa va hodisalarni, ularning bog'lanishi munosabatlarini favqulodda tez hamda aniq esda qoldirish va esga tushirishga qaratilgan nodir qobiliyati.

8. **Eshitish xotirasi** - tovush qo'zg'atuvchilarini sezish, idrok qilish natijasida hosil bo'lgan eshitish obrazlarini esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi. Eshitish xotirasi asosan ko'zi ojiz kishilarga va musiqachilarda kuchli rivojlangan bo'ladi.

9. **Esda qoldirish** - idrok qilingan materiallarni, narsa va hodisalarni ongimizda qoldirishdan iborat xotira jarayoni.

10. **Ixtiyorsiz esda qoldirish** - idrok qilingan narsa va hodisalarni, ularning ayrim belgilari va xususiyatlarini, ular haqidagi fikr hamda tushunchalarni oldindan aniq maqsad qo'ymagan holda esda qoldirishdan iborat xotira jarayoni. I. P. Pavlovning fikricha, ixtiyorsiz esda qoldirish bosh miya yarim sharlari qobig'ining ma'lum darajada tormozlangan uchastkalari orqali ro'y beradi. Shuning uchun ham ixtiyorsiz esda qoldirilgan narsalarni biz keyin payqab qolamiz.

11. **Ixtiyoriy esda qoldirish** - idrok materialini maqsadga muvofiq, uning muhimligini anglangan holda, irodaviy va asabiy kuch sarflab esda qoldirishdan iborat xotira jarayoni.

12. **Ma'nosiga tushunmay (mexanik) esda qoldirish** - muayyan materialni uning mazmuniga, mohiyatiga tushunmasdan, quruq yodlash asosida esda qoldirish. Unday esda qoldirishning asosiy sharti materialning ko'p marta takrorlanishidir. Bunday esda qoldirish ko'pincha bog'cha yoshidagi va kichik maktab yoshidagi bolalarga xosdir.

13. **Mantiqiy esda qoldirish** - materialning ma'nosiga tushunib, uning alohida qismlari o'rtasida mantiqiy bog'lanishlar hosil qilgan holda esda qoldirishdan iborat xotira jarayoni. Mantiqiy esda qoldirish esda qoldirishning eng tejimli hamda mahsuldor turidir.

14. **Esda qoldirish tezligi** - shaxsning muayyan materialni idrok qilish bilan esda qoldirish o'rtasidagi vaqt birligi bilan belgilanadigan yakkahol (individual) xotira xususiyati. Esda qoldirish tezligi shaxsning qiziqishiga, qobiliyatiga va iste'dodiga, bilim darajasiga, yoshiga va boshqa uning yakkahol, betakror xususiyatlariga bog'liq.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni xotira jarayonlari bilan tanishtirish. Xotiraning ayrim jarayonlarini - esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish jarayonlarini ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadi:

- 1.Xotira jarayonlari bilan tanishtiradi
- 2.Xotiraning ayrim jarayonlarini ko'rib chiqadi.
- 3.Esda olib qolishni tushuntiradi.
- 4.Esda saqlash, esga tushirish va unutish jarayonlarini ta'riflaydi.

Ikkinchi savolning bayoni .

Xotira jarayonlari.

Xotiraning ayrim jarayonlarini - esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish jarayonlarini ko'rib chiqaylik.

Esda olib qolish

Xotira faoliyati esda olib qolishdan boshlanadi. Biz hamisha bir narsa yoki hodisani idrok qilishimiz, biron narsa haqida o'ylashimiz singari hamisha biron narsa yoki hodisani esda olib qolamiz. Esda olib qolish jarayoni eng avval

miya po'stida idrok qilinayotgan narsalarning—buyum, surat, so'z, fikr va hokazolarning «izlari» hosil bo'lishidan va ayni vaqtda esda olib qolinadigan material bilan kishida mavjud bilim va tajriba o'rtasida, esda qoladigan materialning ayrim qismlari yoki elementlari o'rtasida bog'lanish vujudga kelishidan iboratdir.

Esda qolishning nerv-fiziologik asosi bosh miya po'stida yangi muvaqqat nerv bog'lanishlari hosil bo'lishidan iboratdir.

Esda olib qolishning tezligi, to'laligi, aniqligi va mustahkamligi har xil bo'lishi mumkin. Esda qoldirishning bu sifatleri esga tushirishning tezligi, to'laligi va aniqligiga, shuningdek, nechog'li tez yoki sekin unutilishiga qarab aniqlanadi. Tez, to'la va aniq esga tushirish va tezda unutib qo'ymaslik esda qoldirishning eng yaxshi sifatlaridandir.

Jumladan, unutishning tezligiga qarab, esda qoldirishning mustahkam bo'lish-bo'lmasligi aniqlanadi: puxta esda qolgan material sekin unutiladi yoki sira unutilmaydi.

Ixtiyorsiz va ixtiyoriy esda qoldirish

Esda olib qolish ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'lmog'i mumkin. Ixtiyorsiz esda qoldirish oldimizga hech bir qanday maqsad qo'ymasdan, esga olinadigan materialni oldin belgilamasdan va maxsus usullar qo'llamasdan, beixtiyor esda qoldirishdir. Masalan, biz, odatda, ko'chada tasodifiy ko'rgan kishilarning aft-basharasini, tasodifiy eshitib qolgan ba'zi gap va kuylarni beixtiyor esimizda (xotiramizda) saqlab qolamiz. Hayotimizda bo'lib o'tgan ko'p hodisa va voqealarni ham biz ana shunday beixtiyor esimizda saqlab qolamiz. Ko'pincha beixtiyor idrok qilingan narsa yoki hodisalar beixtiyor esda qoladi. O'zining rang-barangligi, ovozi, harakati bilan ko'zga juda yaqqol ko'rinib turadigan, bizda kuchli hissiyot uyg'otadigan, o'tmishdagi tajribamizga, mavjud bilimlarimizga, bizning kasb va faoliya-timizga oid, biz uchun alohida ahamiyati bo'lgan va bizda qiziqish-havas tug'diradigan shunday narsa yoki hodisalar xotiramizda beixtiyor saqlanib qoladi. Ko'pincha ixtiyoriy atayin idrok qilingan narsa yoki hodisalar ham beixtiyor esda qolaveradi. Ko'p hollarda biz bironta suratni ko'rishni, bironta kitobni o'qib chiqishni, bironta ma'ruzani eshitishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yamiz, ammo ko'rilgan, o'qilgan, eshitilgan narsalarning mazmunini esda olib qolish niyatini o'ylaymiz, lekin, shunga qaramay, ixtiyoriy idrok qilingan kitob, surat, nutqning mazmunini beixtiyor eslab qolamiz.

Ixtiyorsiz esda olib qolish ixtiyoriy esda olib qolish jarayonidan batamom ayrilgan bo'lmaydi: ko'pincha ixtiyoriy esda qoldirishda ixtiyorsiz esda olib qolish yuz beradi yoki esda olib qolinadigan material biror amaliy faoliyat tarkibiga kirgan bo'ladi.

Ixtiyoriy esda qoldirish ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq, tanlangan materialni ongli ravishda kuch berib maxsus esda qoldirishdir. Ixtiyoriy esda qoldirishda materialni puxta esda saqlab qolish maqsadida biz maxsus usullardan foydalanamiz: diqqatimizni to'playmiz, idrok qilingan materialni takrorlaymiz, uning mazmunini o'qib olish uchun harakat qilamiz, ilgari tajriba va bilimlarimiz bilan uni bog'laymiz va hokazo.

Sistematik ravishda esda qoldirish **yodlab olish, o'rganib olish** deyiladi. Bizning o'quv ishlarimiz — bilimlarni o'zlashtirish, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilish asosan ixtiyoriy esda qoldirish yo'li bilan bo'ladi. Yodlab, o'rganib olish tartib bilan esda qoldirish demakdir.

Ixtiyoriy esda qoldirish anglab bilib esda qoldirishdir.

Ixtiyoriy (irodaviy) esda olib qolish eng samarali va puxta esda qoldirishdir. Bunda esda olib qolish maqsadini ko'zda tutishning esda olib qolish lozim bo'lgan materialni tanlashning o'ziyoq uni eng samarali yo'sinda esda qoldirishga sabab bo'ladi. Esda olib qolishda ma'lum materialni xotirada qoldirish zarur va kerak ekanini tushunish ahamiyatga egadir. Esda olib qolishga jazm qilish, maqsadni ko'zlash, kerak materialni tanlash, motivatsiya (nima maqsad bilan esda qoldirish kerakligini bilish) — bularning hammasi tafakkur faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli ixtiyoriy esda qoldirish asosan ma'nosiga tushunib, ongli va binobarin, eng unumli ravishda esda qoldirishdir.

ESGA TUSHIRISH VA UNING XILLARI

O'tmishda idrok qilingan narsalarning his-tuyg'u, fikr va ish-harakatlarning ongimizda qaytadan tiklanishini esga tushirish deyiladi.

Esga tushirishning nerv-fiziologik asosi bosh miya po'stida ilgari hosil bo'lgan nerv bog'lanishlarining qo'zg'alishidir.

Esga tushirishning: tanish, eslash, bevosita eslash, oradan ma'lum bir vaqt o'tkazib eslash, ixtiyorsiz va ixtiyoriy eslash xillari bo'ladi.

Tanish va eslash. Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni takror idrok qilganda, u narsa yoki hodisa esga tushadi, ana shuni tanish deymiz.

Oshnamizni yoki uyni tanish deganimizda, buning ma'nosi biz shu oshnamizni yoki uyni ilgari ko'rganimizda hosil bo'lgan obraz, his va fikrlarning oshnamizni yoki uyni ikkinchi ko'rganimizda ongimizda tiklanishi demakdir.

Tanish aniq (to'liq) va noaniq (yarim-yorti) bo'lmog'i mumkin. Yarim metr taniganimizda shu narsani idrok qilish bilan bog'liq bo'lgan ba'zi bir tasavvur, his va fikrlargina g'ira-shira esimizga tushadi, biz bu narsa bizga notanish emasligini his qilamiz, xolos. Lekin bu tasavvur va fikrlar xuddi shu narsani ilgari ko'rganimizda tug'ilgan tasavvur va fikrlarga bog'lanmagan holda esimizga tushadi: masalan, bir odam ko'zimizga issiq ko'rinadi-yu, ammo uni qachon, qayerda ko'rganimizni eslay olmaymiz.

Yarim-yorti tanishda shu narsa, umuman nima uchundir tanish ekani his qilinadi, lekin to'liq esga tushmay turadi.

Tiniq, aniq tanishda esa shu paytda idrok qilinayotgan bir narsaga doir ilgari hosil bo'lgan tasavvur va fikrlar ongimizda tiklanadi. Ana shu tasavvur va fikrlar bir talay boshqa tasavvur va fikrlar bilan bog'lanib esga tushaveradi. Bunday holda biz shu narsani qayerda va qachon ko'rganimizni ham bemalol eslay olamiz. Masalan, biz bir kishi bilan uchrashganimizda uning o'zini ham taniymiz va ilgari u bilan qayerda, qanday sharoitda uchrashganimizni, nima to'g'risida gaplashganimizni va hokazolarni ravshan eslay olamiz. Ko'pincha, yarim-yorti tanish, umuman tanish ekanini his qilish bir necha vaqtdan keyin

to'la, aniq tanishga o'tadi. Bunga shu narsa bilan ilgari uchrashgan erni ikkinchi ko'rish yoki shu narsani ilgari qaerda ko'rganimizning esga tushirilishi yordam beradi.

Masalan, so'z bilan tasvirlab berilgan bir uyni yoki bir odamni topib olish, kitobdan o'qib tasvirini bilib olgan bir hayvonni hayvonot bog'ida ko'rib tanish mumkin.

Eslash narsani, uning o'zini shu paytda idrok qilmay turib, esga tushirishdir. Eslaganda xotirada qolgan obraz, his va fikrlar shu paytda sezgi organlarining ishtirokidan tashqari esga tushadi. Masalan, biz bo'lib o'tgan voqealarni, o'rganib olgan she'rni ana shunday esimizga tushiramiz. Tanish singari, eslash ham, to'lalilik va aniqlik jihatdan har xil bo'lmog'i mumkin. Esda qolgan narsa qisman esga tushsa, buni yarim-yorti eslash deymiz. Ammo esga tushgan materialning mazmuni esda qolgan materialga ma'lum darajada muvofiq bo'lmasa, buni noaniq eslash deymiz.

Ba'zan esda qolgan bironta materialning mazmuni mukammal esga tushadi-yu, ammo shu material qachon, qaerda, qanday sharoitda esda olib qolinganligini yoki birinchi marta, boshimizdan kechirilgan paytini eslay olmaymiz. Masalan, biz she'rni yod aytib bera olsak ham, uni qachon va qaerda o'rganib olganimizni eslay olmasligimiz mumkin.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni esda olib qolish shartlari bilan bilan tanishtirish. Esda saqlashni ta'riflash. Nerv sistemasining plastiklik xususiyatini o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Esda olib qolish shartlari bilan bilan tanishtiradi.
2. Esda saqlashni ta'riflaydi.
3. Nerv sistemasining plastiklik xususiyatini o'rgatadi.

Uchinchi savolning bayoni .

Esda olib qolish shartlari.

Idrok qilingan narsalar miyamizda o'rnashib qolishi, esimizda turishi tufayli turli usulda esimizga tushishi mumkin.

Esda saqlash deyilganda, ilgari tug'ilgan taassurot, fikr, his-tuyg'u va sh-harakatlarning jonlanib, takrorlanib turishga moyillik paydo qilishi va mustahkamlanishini tushunamiz. Ana shunday moyillikning hosil bo'lishi mustahkamlanib qolishiga sabab nerv sistemasining plastiklik deb ataluvchi alohida xususiyatga ega bo'lishidir. Shuning uchun ham nerv sistemasi ilgari bo'lib o'tgan taassurotlarni takrorlashga (tiklashga) tayyor turadi.

Esda tutish haqida gapirar ekanmiz, xotirada qolgan material qay larajada va qachongacha unutilmasdan esda saqlanib tura oladi, degan avol tug'iladi.

Materialning qanday va qancha vaqt esda saqlanib turishini biz materialni qay darajada eslay olishimizga qarab bila olamiz, xolos. Esda tutish haqida gapirilganda, ko'pincha, esga tushirishning faqat bir xilini, a'ni ixtiyoriy esga tushirishni ko'zda tutiladi. Ammo ixtiyoriy esga tu-tiirish eng ko'p kuch sarf qilishni talab etadigan jarayon bo'lganligidan a, shu bilan birga, bizga xuddi

shu paytda kerak bo'lib qolgan material, datda, darrov esga tushavermaganligidan, shunday bir fikr: esga olib olingan materialning bir qismi (ba'zan ko'pi) go'yo tamomila unutiladi, egan fikr tug'iladi.

Shu sababli, **unutish hodisasini ilgarilari esda olib qoling narsalar-ning ongimizdan tamomila yo'qolishi, ya'ni uni esda tutishga batamom qarama-qarshi jarayon deb tushuniladi.** Ammo bunday deb tushunish uncha asosli emas.

Shuni esda tutish kerakki, esga tushirish faqat xotiraga keltirish usuli bilangina emas, balki tanish vositasi bilan ham voqe bo'ladigan jarayon-dir. Biz ilgarilari esda qoldirgan har bir narsani keyinchalik qay darajada bo'lmasin tanib olamiz. Bundan tashqari, har bir idrokda tanib olish dementi bor. Demak, xotiramizda ixtiyoriy esga tushiriladigan narsadan ko'ra xayolda ko'p narsa saqlanib turar ekan.

So'ngra, biz o'qib olgan material, biz uni esda olib qolgan vaqtda mazmunan va shaklan qanday bo'lgan bo'lsa, albatta aynan shunday saqlanib turavermaydi. Lekin bir qancha narsalar, masalan, odatlanilgan ish-harakat, ko'paytirish jadvali, matematika va grammatikaga oid har xil ta'riflar, she'rlar, telefon nomerlari va shu kabilar esimizda mazmunan va shaklan o'zgarmasdan aynan saqlanib turishi mumkin. Ammo ko'p narsa esimizda aynan saqlanib qolmaydi, biz ba'zan esa esda aynan saqlab qo-lish kamdan kam uchraydi, deb o'ylaymiz.

Ammo esda qolgan hamma materialni to'la-to'kis va aynan esga tushirish mumkin emasligidan, shu material esimizda saqlanib qolmaydi, degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Esda qoldirilayotgan material, uni yod-ga olib qolish va esda saqlanib turish jarayonida qaytadan tuziladi, re-konstruksiya qilinadi. Rekonstruksiya, ko'pincha xotira mahsuli to'g'risida fikrimizning faol ishlashi natijasida voqe bo'ladi. Xotirada qolgan material kishining ongida mustaqil «ishlanib chiqilgandan» keyin shaxsning o'z xazinasini bo'lib qolgandagina xotira qiymatli sifatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, xotira faoliyatini keng ma'noda tushunish lozim, chun-ki xotira materialni mexanik ravishda esda qoldirish va uni aynan esga tushirish qobiliyati bilan cheklanib qolmaydi. Bizning xotiramizda biz aynan esga tushira oladiganlarimizdan va esga tushirish kerak bo'lib qoladi-ganlardan ko'ra juda ko'p narsa saqlanib turadi, deb o'ylashga haqimiz bor.

To'rtinchi savol bo'yicha darsning maqsadi:

Talabalarni xotira tiplari va kasbiy maslahatda xotira qonuniyatlarining ahamiyati bilan tanishtirish.

Identiv o'quv maqsadi:

Talabalarni xotira tiplari va kasbiy maslahatda xotira qonuniyatlarining ahamiyati bilan tanishtiradi.

To'rtinchi savolning bayoni .

Xotira tiplari va kasbiy maslahatda xotira qonuniyatlarini hisobga olish.

Xotira tufayli ongimizda faqat hozirgi paytdagi narsalar, hodisalar aks etib qolmay, balki o'tmishda idrok qilingan narsa va hodisalar, kechirgan tuyg'u, fikrlar ham aks etadi. Odam xotira tufayli malaka va ko'nikmalar hosil qiladi, bilimni boyitadi va saviyasini kengaytiradi. Xotira boshqa psixik jarayonlarning faoliyati va taraqqiysi uchun katta ahamiyatga egadir. Xotira inson faoliyatining hamma xillarida ancha muhim rol o'ynaydi. Hatto yosh bolalar ham agar ularda ba'zi bir bilim, ko'nikma va malaka-lar bo'lsagina o'ynay oladilar, bo'lmasa o'ynay olmaydilar. Har qanday mehnat xoh jismoniy, xoh aqliy mehnat zarur bilim, malaka va ko'nikmalar mavjud bo'lganidagina amalga oshmog'i mumkin. Xotiraning ahamiyati ta'lim ishlarida, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi.

Har kimning o'ziga xos xotira xususiyatlari bor. Har kimning xotirasi-dagi farq xotiraning kuchida ifodalanadi, ma'lumki, xotirasi kuchli va xoti-rasi zaif odamlar bor. A.S. Pushkinning zamondoshlaridan bin: «Bir sahifa she'rni yod aytib berish uchun Pushkinga bu she'rni bir-ikki marta o'qib chiqish kifoya qilardi» deb gapirganligi ma'lum. Kompozitor Motsart bir-ikki marta eshitgan murakkab musiqa asarini esida qoldira olganligi va keyinchalik shu asarni notaga aynan yod ko'chira olganligi ma'lum.

Kompozitor Balakirevning ham xotirasi nihoyatda kuchli bo'lgan. Bir kuni u Chaykovskiydan simfoniya asarlaridan birini chalib berishni ilti-mos qilganda, Chaykovskiy o'zining shu simfoniyasini eslay olmagach, Balakirev Chaykovskiyning bu simfoniyasini konsertda bir marta eshitgan bo'lsa ham, fortepianoda bexato, aynan chalib bergan.

Xotira tufayli ongimizda faqat hozirgi paytdagi narsalar, hodisalar aks etib qolmay, balki o'tmishda idrok qilingan narsa va hodisalar, kechirgan tuyg'u, fikrlar ham aks etadi. Xotiraga ega bo'lmaganimizda edi biz shu paytda idrok qilinayotgan narsa va hodisalarnigina aks ettirar edik, shu bilan birga, idrok qilinayotgan narsa va hodisalar hamma vaqt bizga yangi, nota-nishdek ko'rinar edi. Odam xotira tufayli malaka va ko'nikmalar hosil qiladi, bilimni boyitadi va saviyasini kengaytiradi. Xotira boshqa psixik jarayonlarning faoliyati va taraqqiysi uchun katta ahamiyatga egadir. Idrok to'g'risidagi bobda biz, xotira idrokimizni boyitadi, deb ko'rsatib o'tgan edik. Xotira mahsuli bo'lgan tasavvur, shuningdek, fikr bilim va bizning tajribalarimiz xotiramizda mustahkam o'rnashib qolsa, bu bilan xayol, tafakkur, nutq, iro-da va his faoliyati hamda taraqqiysi uchun sharoit ta'minlangan bo'ladi.

Odamning tasavvurlari boyligi va xotirasida mustahkam o'rnashib qolgan bilimlari boyligi qanchalik boy bo'lsa, uning idroki ham shuncha-lik mazmundor, to'la, aniq bo'ladi. Xayol, tafakkur, nutq va irodasining faoliyati ham samarali bo'ladi.

Xotira inson faoliyatining hamma xillarida ancha muhim rol o'ynaydi. Hatto yosh bolalar ham agar ularda ba'zi bir bilim, ko'nikma va malaka-lar bo'lsagina o'ynay oladilar, bo'lmasa o'ynay olmaydilar. Har qanday mehnat xoh jismoniy, xoh aqliy mehnat zarur bilim, malaka va ko'nikmalar mavjud bo'lganidagina amalga oshmog'i mumkin.

Xotiraning ahamiyati ta'lim ishlarida, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi.

Maktabdagi ta'lim ishlarining eng birinchi va asosiy vazifasi o'quvchilarni fanlar asosi bilimi bilan qurollantirish, boyitishdir. Xotirada mukammal bilmay turib fan asoslarini o'qib olish mumkin emas. Maktablarda ta'lim ishlari shunday yo'lga qo'yilmog'i kerakki, o'quvchilarga o'qitilayotgan material ularning xotirasida mustahkam saqlanib qoladigan bo'lsin. Shu sababdan, o'qituvchi ta'lim jarayonida o'z o'quvchilarini o'rganib, har bir o'quvchisini yaxshi bilishi, jumladan, har bir o'quvchisining xotirasi qanday ekanligini, bu xotiraning qanday o'sib borayotganligini, xotira-ning o'sishiga nimalar sabab bo'layotganini va o'quvchilarning xotirasini maktab ta'limi ishlari jarayonida qanday yo'l va vositalar bilan o'stirish kerakligini bilmog'i lozim.

9-mavzu:
“Tafakkur va kasbni egallash”
mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	Tayyorlov bosqichi: Dars maqsadi: Tafakkur operatsiyalarini tushuntirish. Tafakkur shakllarini ajratish. Tafakkurning individual xususiyatlarini belgilash. Kasbni egallashda tafakkur o'zni va kasb turlarida tafakkurni namoyon bo'lishini ko'rib chiqish. Identiv o'quv maqsadlari. 1. Tafakkur operatsiyalarini tushuntiradi. 2. Tafakkur shakllarini ajratadi. 3. Tafakkurning individual xususiyatlarini belgilaydi. 4. Kasbni egallashda tafakkur o'rnini bayon qiladi. 5. Kasb turlarida tafakkurni namoyon bo'lishini ko'rib chiqadi. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiyashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish, abstraksiya, makoniy, xronologik va mantiqiy. 1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza 1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs, videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-	O'qituvchi

	javob, suhbat, tushuntirish, taqdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarqatma materiallar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali materiallar.	
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga tafakkur psixologiyasiga oid muammoli savol beriladi. 3.2. Talabalarning tafakkur psixologiyasi haqida fikri eshitiladi va boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Talabalarning tafakkur psixologiyasi haqida fikri tinglanib, umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosani o'qituvchi bayon qiladi.	O'qituvchi-talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 1. Tafakkurni ta'riflang ? 2. Kasbni egallashda tafakkurning o'rnini o'qing va o'rganing. Tafakkur operatsiyalarini belgilang. 3. Tafakkur shakllarini ta'riflang.	O'qituvchi, 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi, 10 minut

Asosiy savollar:

1. Tafakkur operatsiyalari.
2. Tafakkur shakllari va individual xususiyatlari.
3. Kasbni egallashda tafakkur o'rni va kasb turlarida tafakkurni namoyon bo'lishi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiyashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish, abstraksiya, Makoniy, xronologik va mantiqiy.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni tafakkur operatsiyalari bilan tanishtirish. Tafakkurning voqelikning umumlashtirib aks ettirilishi ekanligini tushuntirish

Identiv o'quv maqsadi:

Talabalarni tafakkur operatsiyalari bilan tanishtiradi. Tafakkurning voqelikning umumlashtirib aks ettirilishi ekanligini tushuntiradi.

**Birinchi savolning bayon
Tafakkur operatsiyalari.**

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur atrofdagi olamni bilish qurolidir va inson oqilona amaliy faoliyatining vujudga kelishi uchun shartdir. Tafakkur jarayonida fikr paydo bo'ladi, bu fikrlar insonning ongida muhim tushunchalar shaklini oladi. Tafakkur nutq til bilan chambarchas bog'langan. Insonda tafakkur va nutq bo'lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi va shu sababli u ongli mavjudotdir. Inson o'z atrofidagi olamda bo'lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi, ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi.

Masalan, biz quyoshning har kun Sharqdan chiqib, G'arbga botayotganligini hammamiz ko'ramiz (idrok qilamiz). Biz Erning qimirlamay turganligini, quyosh esa er atrofida aylanayotganligini ko'ramiz.

Tafakkur — voqelikning umumlashtirib aks ettirilishidir. Biz ayrim-ayrim narsalarni va hodisalarni, masalan, alohida stolni yoki stulni idrok qilamiz va tasavur qilamiz, ammo umuman stol va stul to'g'risida, umuman mebel va umuman narsa to'g'risida esa fikrlashimiz mumkin. Umumiylash natijasida bir hukmning o'zida ayni vaqtda yakka bir narsa to'g'risidagina fikr qilib qolmasdan, balki, shu bilan birga narsalarning butun bir turkumi to'g'risida ham fikr yuritish mumkin. Masalan, «O'zbekistonning fuqarolari teng huquqlidirlar» degan hukmda ayrim bir kishi haqida fikr yuritmasdan, balki O'zbekistonning hamma fuqarolari haqida fikr yuritiladi.

Narsa yoki hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlar tafakkur yordami bilan ochiladi. Bunday bir misolni olib ko'raylik. Siz qalamni barmoqlaringiz bilan stoldan 20 santimetr balandda ushlab turibsiz. Barmoqlaringizni ochib yuborsangiz qalam stol ustiga tushadi, uning taqillagani (tovushi) eshitiladi. Biz bu hodisalarni birin-ketin idrok qilamiz va ularni xuddi shu tartibda tasavur qilishimiz mumkin.

Tafakkur operatsiyalari.

Tafakkur qilish operativ jarayondir.

Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiylashtirish, aniq-lashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir. Bizda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil bo'ladi, real olamdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi tushunchalar vujudga keladi.

Taqqoslash — shunday bir aqliy operatsiyadirki, bu operatsiya ayrim narsalar o'rtasida o'xshashlikni yoki tafovutni, tenglik yoki tengsizlik borligini, bir xillik yoki qarama-qarshilik borligini aniqlashda ifodalanadi.

Taqqoslash fikr qilish jarayoni bo'lib, bu jarayon idrok qilinayotgan narsalarning o'xshashligi yoki tafovutini aniqlash lozim bo'lganda, yoxud sezgilarda va idrokda bevosita o'xshashlik va tafovutni topish lozim bo'lgan hollarda paydo bo'ladi. Amaliy taqqoslash bir narsani ikkinchi narsaga solishtirib ko'rilayotganda, masalan bir qalamni ikkinchi qalamga, o'lchov chizig'ini taxtaga va shu kabilarga solishtirib ko'rilayotganda sodir bo'ladi. Biz masofani santimetrli lenta bilan o'lchayotganimizda, og'irlikni tortib ko'rayotganimizda va boshqa shu kabi hollarda taqqoslash jarayoni sodir bo'ladi. Taqqoslash tasavur qilinayotgan yoki o'ylanilgan narsalarni bir-biriga

fikran solishtirib ko'rish yo'li bilan ham bo'ladi. Masalan, biz o'zimiz turgan binoni boshqa ko'chadagi binolar bilan taqqoslab ko'rib, ularning o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutni topishimiz mumkin.

Analiz — narsani (buyumlarni, hodisalarni, jarayonni) tarkibiy elementlarga, qismlarga yoki tarkibiy belgilarga bo'lish demakdir.

Analiz jarayonida butunning uning qismlariga uning elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Biror moddiy narsani uning moddiy elementlariga ajratib bo'lish eng oddiy shakldagi analizdir. Stolni ayrim qismlarga bo'lish uning oyoqlarini, yashiklarini va boshqa shu kabilarni biridan ajratib olish mumkin. boshqa ko'chadagi binolar bilan taqqoslab ko'rib, ularning o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutni topishimiz mumkin.

Sintez — analizning aksi yoki teskarisi bo'lgan tafakkur jarayonidir. Bu jarayon obektning ayrim elementlarini, qismlarini, belgilarini bir

butun qilib qo'shishdan iboratdir. Sintez jarayonida murakkab bir butun narsa, yoki hodisa tarkibiga kirgan elementlar, yoki qismlar tariqasida olingan buyum yoki hodisalarning shu murakkab bir butun narsa yoki hodisaga bo'lgan munosabati aniqlanadi.

Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlarini bir butun qilib qo'shishdan iboratdir, amaliy analiz bo'lgani singari, sintez ham amaliy bo'lishi mumkin. Chunonchi, mashinaning ayrim detallari bir-biriga tegishli tarzda birlashtirilganda, ya'ni ular sintez qilinganda, yaxlit, butun mashina, masalan, odimlovchi ekskavator hosil bo'ladi. Kislorod bilan vodorodning kimyoviy birikishi natijasida suv hosil bo'ladi. Mana shu va shunga o'xshash hollarning hammasida sintez fikr qilish jarayonlarida va ish-harakatlarda sodir bo'ladiki, bu ish-harakatlar natijasida bir butun, yaxlit moddiy narsa hosil bo'ladi.

Abstraksiyalash, umumiylashtirish va aniqlashtirish

Abstraksiya — shunday bir fikrlash jarayonidirki, bunda tafakkurda aks etilayotgan bir yoki bir necha obektlarning biror belgisi (xususiyati, harakati, holati, munosabati) shu obekt yoki obektlardan fikran ajratib olinadi. Bu jarayonda obektdan ajratilgan bir belgining o'zi tafakkurning mustaqil obekti bo'lib qoladi. Abstraksiya, odatda, analiz jarayonida yoki analiz natijasida sodir bo'ladi.

Masalan, sinfdagi doskani tasviriy analiz qilish jarayonida uning faqai bir belgisini qoraligini ajratib olish mumkin va qora doska to'g'risida emas, balki doskaning qoraligi to'g'risida, so'ngra esa umuman qoralik to'g'risida fikr qilish mumkin. Biz odamlar, samolyotlar, suv, ot va hoka-zolarning ko'z oldimizdagi harakatini kuzatib turib, ularning bitta umu-miy belgisini harakatini fikran ajratib olishimiz va umuman harakat to'g'risida fikr qilishimiz mumkin. Chunonchi, abstraktlash yo'li bilan bizda uzunlik, kenglik, miqdor, tenglik, son, qiymat va boshqa shu kabi-lar to'g'risida abstrakt tushuncha hosil bo'ladi.

Umumiylashtirish — tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning o'xshash, muhim belgilarini shu narsalar to'g'risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish demakdir. Masalan, olmalarda, noklarda, o'riklarda, apelsinlarda va boshqa shu kabilarda bo'lgan o'xshash belgilar bitta tushun-

chada birlashadi, biz buni *meva* degan soʻz bilan ifodalaymiz. Daraxtlar, oʻtlar, gullar va boshqa shu kabilar «oʻsimlik» degan tushunchada umumiyashtiriladi, oʻsimlik va hayvonlar «organizm» degan tushunchada umumiyashtiriladi, harf va raqamlar «belgi» degan bir tushunchada umumiyashtiriladi.

Umumiyashtirish tafakkurning abstraktlashtiruvchi faoliyati bilan chambarchas bogʻlangandir. Abstraktlashtirish jarayonida ayrim narsalarning oʻxshash belgilari aniqlanadi va shu oʻxshash belgilar umumiyashtiriladi.

Abstraktlashtirish singari, umumiyashtirish ham soʻz yordami bilan hosil boʻladi. Har qanday soʻz yakka bir narsani yoki hodisani emas, balki oʻxshash yakka-yakka obektlarning koʻpchiligini ifodalaydi. Chunonchi, biz *stol* degan soʻzni aytganimizda, bu bilan biz yakka-yakka koʻp stollarga taalluqli boʻlgan fikrni ifodalaymiz.

Aniqlashtirish bir jihatdan qaraganda abstraksiyalash va umumiyashtirish jarayoniga qarama-qarshi yoki shu jarayonning teskarisidir.

Klassifikatsiya va sistemaga solish

Atrofdagi olamni bilish uchun bitta narsani emas, balki koʻpchilik va xilma-xil narsalarni oʻrganishga toʻgʻri keladi. Shu sababli oʻrganish uchun qulaylik tugʻdirish maqsadida, shuningdek, amaliy maqsadlarda mana shu koʻpchilik narsalarni guruhlariga turkumlarga boʻlishga toʻgʻri keladi. Koʻpchilik narsalarni (narsalarni va hodisalarni) guruhlariga boʻlish **klassifikatsiya** yoki turkumlarga boʻlish deb ataladi. Narsalarning umumiy belgisi borligi ularni biror jihatdan bir-biriga oʻxshash qilib qoʻyadi. M: kutubxonada kitoblar muqovasiga, formatiga, mazmuniga va shu kabi belgilariga qarab turkumlarga boʻlinadi.

Turkumlarga boʻlish uchun asos qilib olingan belgi turkumlarga boʻlishning **asosi** deb ataladi.

Sistemaga solish shundan iborat boʻladiki, bunda ayrim narsalar, faktlar, hodisalar va fikrlar muayyan tartibda makondagi, vaqtdagi tutgan oʻrniga qarab yoki mantiqiy tartibda joylashtiriladi. Shu sababli makoniy xronologik va mantiqiy belgilar asosida sistemaga solish turlari ajratiladi. Mebelning xonadagi joylashtirilishi, daraxtlarning boqqa oʻtqazilishi makoniy sistema namunasi boʻla oladi.

Ikkinchi savol boʻyicha darsning maqsadi: Talabalarni tafakkurning shakllari va xususiyatlari bilan tanishtirish. Tafakkurning shakllarini ajratish.. Xukm, xulosa chiqarish va tushunchalar kabi tafakkur shakllarini tushuntirish.

Identiv oʻquv maqsadi:

1. Tafakkurning shakllarini bayon qiladi.
2. Tafakkurning individual xususiyatlari bilan tanishtiradi.
3. Xukm, xulosa chiqarish va tushunchalar kabi tafakkur shakllarini tushuntirish.

Ikkinchi savolning bayon

Tafakkur shakllari va individual xususiyatlari.

hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar tafakkurning shakllari deb ataladi.

Hukm- juzʼiy, taxminiy shartli tasdiqlovchi

Tushuncha- yakka, konkret umumiy abstrakt xususiy toʻplanma

Xulosa chiqarish—indektuv, deduktuv, analogik

Xukm

Tafakkur qilish jarayonida, ayrim fikr yuritish operatsiyalarida bizda paydo **bo'**ladigan fikrlar hukm tariqasida shakllanadi. Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr hukm deb ataladi.

M, «Bu stol — yog'och stol», «Tuyaqushlar ucha olmaydi», «Hamma fanlar foydali». Hukmda biror nima haqida yoki biror kimsa haqida tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsa hukm mavzui bo'ladi. Hukmlarda buyumda biror belgilarning borligi yoki yo'qligi uning boshqa buyumlar bilan bog'lanishi va munosabatlari tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi. Shu sababli hukmlar sifatiga qarab bir-biridan farq qilinib, **tasdiqlovchi hukm** va inkor qiluvchi hukm deb aytiladi. Shu hukmlarda tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsalar esa hukmlarning mazmunini tashkil qiladi.

Hukmning gapdan farqi faqat shuki, hukmdagi ega va kesim so'zlardan emas, balki idroklardan, buyum va uning to'g'risida so'z bilan ifodalanadigan tasavur va tushunchalardan iborat bo'ladi. Shu sababli, hukmning so'z bilan ifodalanishi uchun ham tilning grammatik tuzumi, ayniqsa, katta ahamiyatga ega.

Masalan: «Toshkent — O'zbekistonning poytaxti», «Bugun havo ochiq», Buyumlarning bir butun turkumiga taalluqli hukmlar **umumiy** hukmlar deb ataladi. Masalan, «Motorlarning hammasi elektr tokini o'tkazadi», Buyumlarning biror turkumi qismigagina taalluqli bo'lgan hukmlar juziy hukmlar deb ataladi. Masalan, «Ba'zi jismlar elektr tokini o'tkazmayi»

Voqelikka muvofiq bo'lgan, shu voqelikni to'g'ri aks ettiradigan hukmlar **chinakam** hukmlar deb ataladi. Masalan, «Andijon O'zbekistonning eng yirik sanoat shahridir» degan hukmlar chinakam hukmlardir. Chin yoki yolg'on hukm bo'lib chiqishi mumkin bo'lgan, ya'ni buyumga muvofiq kelishi mumkin bo'lgan, muvofiq kelmasligi ham mumkin bo'lgan hukmlar **taxminiy** hukmlar deb ataladi. Masalan, «ehtimol, Marsda hayot bordir» kabi. Taqqoslash, analiz va sintez qilish, abstraktlashtirish va umumiyashtirish jarayonlarida avvalo bizning sezgi organlarimiz bevosita sezib olishi mumkin bo'lgan hodisalar va narsalarning xususiyatlari, ularning bog'lanishlari hamda munosabatlar aks ettiriladi. Shu yo'l bilan bizda bevosita idrok va tasavurlarga asoslangan hukmlar hosil bo'ladi. Masalan, «Kecha bugungiga qaraganda issiqroq bo'ldi» (taqqoslash), «Daraxt ildizlar, tana, butoqlar, shoxlar va barglardan iborat bo'ladi» (analiz) degan hukmlar mana shunday hukmlardir.

Borliqdagi narsalar, hodisalar va voqelikning miqdoriga, ularning biror hukmda aks ettirilgan aloqa va munosabatlariga qarab, hukm quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

1) tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm. Hukmlarning ushbu asoslarga tayanib bo'linishi sifatga qarab bo'linishi deb ataladi;

2) yakka, juz'iy, xususiy va umumiy hukmga ajratilishi mumkin. Hukmlarning bunday belgilarga binoan bo'linishi miqdorga qarab bo'linishi deyiladi;

3) shartli, ayiruvchi va qat'iy hukm singari ko'rinishlar mavjud bo'lib, u hukmlarning munosabatga qarab bo'linishi deb ataladi;

hukm taxminiy ko'rinishga ega bo'lishi ham mumkin. Bu hukmda aks ettiriladigan narsa va hodisalar belgisining nechog'lik muhim bo'linishiga yoki voqelikka mos kelish-kelmasligiga bog'liq.

Xulosa chiqarish

Xulosa chiqarish — tafakkurning tarixan tarkib topgan mantiqiy shaklidir, tafakkurning shu mantiqiy shakli vositasi bilan bir yoki bir necha ma'lum hukmlar (asoslar) dan yangi hukm xulosa chiqariladi. Masalan, «Osmondagi hamma jismlar singari Quyosh ham, Erdagi kabi elementlardan tarkib topgandir», «Quyoshda geliy elementi bor» degan ikkita hukm bor. Mana shu ikki hukmdan: «Demak, Erda ham geliy bor» degan yangi hukm chiqariladi.

Erda geliy borligi dastlab xuddi ana shunday xulosa chiqarish yo'li bilan kashf qilingan edi. So'ngra bu xulosa amaliyotda ham tasdiqlandi.

Xulosa chiqarishning uch turi bor. Bular — induktiv xulosa chiqarish, deduktiv xulosa chiqarish va analogiyaga asosan xulosa chiqarishdir.

Induktiv xulosa chiqarish (yoki induksiya) xulosa chiqarishning shunday bir turidirki, bunda bir necha yakka yoki ayrim hukmlardan bitta umumiy hukm chiqariladi. Masalan, shunday hukmlar bor: «Yog'och qizdirishdan kengayadi», «Temir qizdirishdan kengayadi», «Suv isitishdan kengayadi», «Havo qizdirishdan kengayadi» va hokazo. Biz mana shu hukmlar (asoslar) dan yangi umumiy hukm (xulosa) chiqarib, demak, «jismlar qizdirishdan kengayadi» deb aytamiz.

Biz o'zimizning yoki boshqalarning fikrlarini tekshirib ko'rish, asoslab berish, isbotlab berish lozim bo'lgandagina xulosa chiqarishning to'liq, kengaytirilgan mantiqiy shaklidan foydalanamiz.

Hukm yuritishning murakkab jarayonlari hamisha tutash xulosalar chiqarishdan iborat bo'lib, bu jarayonlarda xulosalarning hamma turlari bir-biri bilan chatishib ketadi.

TUSHUNCHA

Tushuncha narsalar to'g'risida — ularning xususiyatlari, holatlari, bog'lanishlari va munosabatlari to'g'risida bir-biri bilan bog'langan hukmlardan hosil bo'ladi. Biror narsa to'g'risida tushuncha hosil qilish shu narsa to'g'risida bir qancha hukmlar yuritish demakdir. Tushunchani ochib beradigan hukmlar jami shu tushunchaning mazmunini tashkil qiladi. Biror narsa to'g'risida qancha ko'p hukm yurita olsak, tushunchaning mazmuni ham shunchalik boy bo'ladi. Narsaning shu hukmlarda ifodalangan belgilari qanchalik muhim bo'lsa, tushunchaning mazmuni ham shunchalik chuqur bo'ladi.

Tushunchaning ikki turi bor: biri aniq tushuncha, ikkinchisi — abstrakt tushuncha. Bir butun narsaga taalluqli bo'lgan tushuncha, masalan, stol to'g'risidagi, odam to'g'risidagi, o'simlik va boshqa shu kabi narsalar to'g'risidagi tushuncha aniq tushunchadir.

Narsa va hodisalarning o'ziga taalluqli bo'lmasdan, balki narsa va hodisalardan, fikran ajratib olingan ayrim xususiyat, sifat va holatlarga, shuningdek, ayrim narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarga va

bog'lanishlarga taalluqli bo'lgan tushunchalar abstrakt tushunchalar deb ataladi. Masalan, «og'irlik» to'g'risidagi, «uzunlik» to'g'risidagi, «tenglik» to'g'risidagi, «harakat» to'g'risidagi, «qiymat» to'g'risidagi va boshqa shu kabi tushunchalar mana shunday abstrakt tushunchalardir. Tushunchani idrok va tasavurdan farq qilmoq kerak. Tushunchalar faqat yakka bir narsaga emas, balki ko'p narsalarga, narsalarning butun turkumiga ham taalluqli bo'lgan, umumiyashtirilgan bir mazmunni aks ettiradi. Masalan, «stol» (umuman stol) degan tushuncha hamma stollarga taalluqli tushunchadir.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Kasbni egallashda tafakkur o'rnini aniqlash. Kasb turlarida tafakkurni namoyon bo'lishini ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Kasbni egallashda tafakkur o'rnini aniqlaydi.
2. Kasb turlarida tafakkurni namoyon bo'lishini ydi..

Uchinchi savolning bayoni

Kasbni egallashda tafakkur o'rne va kasb turlarida tafakkurni namoyon bo'lishi.

TAFAKKUR TURLARI

Odamlarning ehtiyojlari, hayotiy qiziqishlari va faoliyatlari juda xilma-xildir. Odamlar o'zlarining qiziqishlari layoqatlariga qarab kasb tanlaydilar. Shu sababli, odamning tafakkuri ham turli hollarda har xil turda namoyon bo'ladi. Bilish uchun kerak bo'lgan vazifalarni va har xil amaliy vazifalarni hal etishga to'g'ri kelib qolinganda, shuningdek, boshqa odamlarning fikrlarini nutq orqali va amaliy muomalada bilib olishga, tushunib olishga to'g'ri kelinganda odam o'z fikrini ishlatadi. Mana shundan **ijodiy tafakkur** va **tushunish** deb ataladigan tafakkur kelib chiqadi. Tafakkurning faolligi qay turda bo'lishiga qarab, u ixtiyoriy va ixtiyorsiz tafakkurga bo'linadi, tafakkurning umumiyashtirish darajasiga qarab, u aniq va abstrakt tafakkurga, yo'nalishiga qarab, u nazariy va amaliy tafakkurga bo'linadi.

Ijodiy tafakkur va tushunish

Paydo bo'lgan savollarning javobini odam o'zi qidirib topsa, qo'yilgan vazifalarni odam o'zi hal qilsa, odamning ongida yangi hukmlar va tushunchalar paydo bo'lsa, bunday hollarda ijodiy tafakkur paydo bo'ladi. Ijodiy tafakkur ko'proq musiqachilarda, muxandislarda, adabiyotshunoslarda uchraydi.

Savollarning paydo bo'lishi yoki qo'yilganligi fikr qilish, tafakkur jarayonlaridagi boshlang'ich momentdir (yoki fazadir).

Inson faoliyatining hamma turlarida uning ehtiyojlari sababli savollar paydo bo'laveradi, faoliyat jarayonining o'zida bizda yangi savollar tug'iladi, yangi vazifalar qo'yiladi.

Nutq orqali muomala qilganimizda, kitoblarni o'qiyotgan vaqtimizda, narsalarni ko'zdan kechirayotganimizda, texnikaga va mexanikaga doir xilma-xil mashinalar bilan tanishayotganimizda va shu kabi hollarda bizda turli savollar tug'iladi.

Tafakkur jarayonining o'zi ham, bilish jarayonining o'zi ham muttasil har xil savollar tug'ilishiga sabab bo'ladi. Odam qanchalik ko'p bilaversa, uning oldida noma'lum narsalar shu qadar ko'p paydo bo'laveradi, unda shu qadar ko'p savollar tug'ilaveradi va uning o'zi shu qadar ko'p savol beraveradi. Bilishga qiziqish savollar qo'yishda katta rol o'ynaydi.

Kundalik hayotda shunday ham bo'ladiki, savol berilishi bilan darrov uning javobi ham topiladi. Masalan, «Bugun nima kun?» «Bugun shanba», «ikki marta uch qancha bo'ladi?» «Ikki marta uch — olti». Shunday qilib, bunday tafakkur jarayonida savolga javobni idrok qilinayotgan yaqin vaziyatning o'zi beradi yoki hammaga ma'lum ochiq-oydin haqiqatlar javob bo'lib xizmat qiladi. Kundalik hayotimizdagi nutqni bevosita tushunishning o'zi ham oddiy tafakkurga taalluqlidir.

Bu — tafakkurning oddiy, elementar jarayonlaridir.

Ijodiy tafakkur to'g'risida gapirganimizda biz murakkab aqliy jarayonni nazarda tutamiz. Bu jarayon bir qancha bosqichlar (yoki fazalar) va momentlardan iborat bo'ladi.

Ijodiy tafakkur murakkab jarayon bo'lib, bu murakkab jarayonda qo'yilgan savol ketidan (shu savolning murakkabligiga qarab) dastlab vazifa ifodalanadi, so'ngra esa vazifani, masalani echish jarayoni, ya'ni qo'yilgan savollarga javob qidirish jarayoni boshlanadi.

Vazifa, masala — echilishi, hal qilinishi talab etilgan savoldir. Ifodalangan vazifa **maqsadni** ham o'z ichiga oladi. Bu maqsad noma'lumni topishga va shu tariqa hayronlik, taajjublanish va gumon hislaridan qutu-lishga intilishdan iboratdir.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz tafakkur jarayonlari

Boshqa aqliy jarayonlar singari, tafakkur jarayoni ham, ixtiyoriy va ixtiyorsiz sodir bo'lishi mumkin.

Boshqa aqliy faoliyat turlariga (idrok, esda qoldirish, esga tushirish, xayolga) nisbatan tafakkur ko'proq ixtiyoriy jarayondir. Fikrlash faoliyatida ko'pincha maxsus savollar qo'yiladi, masalalar ifodalab beriladi.

Tafakkur jarayonlari ixtiyorsiz tarzda ham bo'ladi. Bunda ixtiyorsiz jarayonlar ko'pincha ixtiyoriy tafakkur bilan chambarchas chirmashib ketadi. Ba'zan faoliyatning turli sohalariga: maishiy, amaliy, ilmiy-bilish faoliyatlariga doir savollar beixtiyor tug'ilib qoladi. Qo'yilgan savollarning javoblari ham, xuddi shuningdek, ba'zan beixtiyor qidiriladi va topiladi.

Shunday hollar ham bo'ladiki, ixtiyoriy ravishda zo'r berib, fikr qilingan vaqtda hal etilmay qolgan masalalar biroz vaqt o'tgach, biz kutmagan holda, o'z-o'zidan hal qilinib qoladi.

Yirik mutafakkirlar beixtiyor fikr qilib turgan paytlarida ilmiy kashfiyotlar qilganliklari singari hollar ham oz emas. Chunonchi, shu narsa ma'lumki, qadimiy grek mutafakkiri Arximed solishtirma og'irlik qonunini shu masala ustida zo'r berib fikr qilgan vaqtda kashf qilolmasdan, balki o'zi sira kutmagan bir paytda, vannada cho'milib turgan vaqtda beixtiyor kashf qilgan.

Mendeleevning aytishiga qaraganda, u elementlarning davriy sistemasi jadvalini tuzmoqchi bo'lib, uch kecha-kunduz tinmay ishlagan. Ammo shunda

ham bu vazifani hal qila olmagan. Shundan keyin juda charchab o'rniga yotganu, shu onda uxlab qolgan. «Men tushimda, — deydi Mendelev, — shu elementlar batartib joylashtirib qo'yilgan jadvalni ko'rdim». Mendelev darhol o'rnidan turib, shu jadvalni bir parcha qog'ozga yozib qo'ygan.

Masalaning bunday beixtiyor ravishda, kutilmagan holda hal etilishi ilgari zo'r berib qilingan, lekin bitmay qolgan tafakkur jarayonining tugallanishi bo'lsa kerak. O'zlari masalani mana shunday beixtiyor hal etgan va shu jarayonni kuzatgan kishilar bu jarayonni mana shu tariqa izohlab berganliklarini ko'ramiz. Masalan, professor Bexterevning aytishiga qaraganda, u tushida yoki ertalab uyg'onishi bilanoq, masalani to'satdan echishga muvaffaq bo'lar ekan. Bunday hollarda o'rganilayotgan masala ustida uxlashdan oldin ham qattiq o'ylash va diqqat-e'tiborni shu masalaga to'plash katta rol o'ynaydi.

Aniq va abstrakt tafakkur

Tafakkur — aniq tafakkur va abstrakt tafakkur deb ikkiga bo'linadi. Agar biz fikr yuritilayotgan narsani idrok qilsak yoki tasavur qilsak, bu tafakkur **aniq** tafakkur deb ataladi.

Bizning o'zimiz shu onda turgan xonamiz to'g'risidagi muhokamalarimiz mana shunday aniq tafakkurning bir misolidir. Biz tasavur qi-lishimiz mumkin bo'lgan biror daryo to'g'risidagi, biror qurilish to'g'risidagi, biror tarixiy voqealar to'g'risidagi muhokamalar ham aniq tafakkurga misol bo'la oladi. Bu — narsalarning obrazlariga bevosita tayanuvchi tafakkurdir. Bu — yaqqol tafakkurdir.

Aniq tafakkur ham predmetli-yaqqol tafakkur va yaqqol-obrazli tafakkur deb ikkiga bo'linadi. Tafakkur obekti bevosita idrok qilinadigan tafakkur **predmetli-yaqqol tafakkur** deb ataladi.

O'zimiz turgan xona to'g'risidagi, biz derazadan ko'rib turgan daraxt to'g'risidagi muhokamalarimiz mana shunday predmetli-yaqqol tafakkurga misol bo'la oladi.

Predmetli-yaqqol tafakkur faqat muhokamalardagina emas, shu bilan birga bevosita harakatlarda ham namoyon bo'ladi. Bunday tafakkur **predmetli-harakatli tafakkurdir**.

Tafakkurning bu turini, masalan, kubiklarni u yoki bu tartibda terayotgan yoki joylashtirayotgan bolalarda ko'rish mumkin.

Katta yoshdagi kishilar ro'zg'orga taalluqli turli buyumlar bilan va xilma-xil mehnat qurollari bilan ish olib borayotganlarida ularning kundalik amaliy faoliyatida ham mana shunday tafakkur ishga solinadi. Tafakkur qilinayotgan narsani idrok qilmasdan, balki faqat tasavur qilgan vaqtimizdagi tafakkur **obrazli-yaqqol tafakkur** deb ataladi. Bunday tafakkur xotira tasavuriga yoki xayol tasavuriga tayanadi.

Kecha bo'lib o'tgan voqealar to'g'risidagi muhokamalar, marsda hayot bormikin, deb qilayotgan bizning muhokamalarimiz yaqqol-obrazli tafakkur namunalari deb hisoblanishi mumkin.

Abstrakt tafakkur aniq tafakkurdan o'zining g'oyat kengligi bilangina farq qilib qolmasdan, balki, shu bilan birga, voqelikni juda chuqur bilishga imkon

berishi bilan ham farq qiladi. Bunda biz bir hukmning o'zida hamma narsalarga va hodisalarga aloqador bog'lanishlar va qonunlar to'g'risida fikr yuritishimiz mumkin. Ayrim abstrakt muhokamalarda biz idrok ham qilib bo'lmaydigan, tasavur ham qilib bo'lmaydigan narsalar to'g'risida fikr yuritishimiz mumkin. Biz tabiat to'g'risida, umuman qonun to'g'risida, miqdor to'g'risida, sifat to'g'risida, tenglik to'g'risida, borliq to'g'risida abstrakt fikr yuritishimiz mumkin (va fikr yuritamiz). Biz chek-sizlik to'g'risida ham fikr yuritishimiz mumkin.

Abstrakt tafakkur haqiqatga erishishga va voqelikni yana ham chuqurroq hamda to'laroq bilishga olib boradigan yo'llardir.

Ammo biz abstrakt tafakkurning xususiyatlari to'g'risida gapirganimizda shuni nazarda tutishimiz lozimki, bu tafakkur va aniq tafakkur odamning yaxlit tafakkurini tashkil qiladi, bu ikkala tafakkur bir-biriga chambarchas bog'langandir.

Bu bog'lanish avalo shundaki, abstrakt tafakkur tarixan aniq tafakkur asosida taraqqiy qilgan. Xuddi shuningdek, har bir kishining individual hayotida ham abstrakt tafakkur aniq tafakkur asosida taraqqiy qilgan. Bolaning eng dastlabki tafakkuri aniq tafakkurdir. Bolaning aniq tafakku-ri jarayonida tushunchalar hosil bo'la boshlaganida va shu tushunchalar o'zlashtirila boshlaganidagina shu paytdan boshlab, bolada abstrakt tafakkur ham pay do bo'ladi.

Nazariy (izohlovchi) va amaliy tafakkur

Tafakkurning yo'nalishiga qarab nazariy va amaliy tafakkurga ajratiladi. Hodisalarni izohlashga qaratilgan tafakkur *nazariy tafakkur* deb ataladi. Biror narsani izohlab berish noma'lum narsani ma'lum qilish demakdir. Buning uchun esa noma'lum narsani ma'lum narsa bilan bog'lash lozim. Demak, turli va ayrim tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlar munosabatlarni ochib berish hamda shu bog'lanishlarni muhokoma qilishda izohlab berish kerak bo'ladi.

Izohlovchi tafakkur jarayonlarida bir qancha savollarga, masalan: «Uning o'zi nima?», «Nega?», «Nima sababdan?», «Nima uchun?», kabi savollarga javob beriladi. Masalan: «gul o'simlikdir», «Psixologiya — fandir», «Ko'cha xo'l, chunki yomg'ir yog'yapti». Mana shu misollarning ham masida biz hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlar va munosabatlarni qayd qilamiz va ochib beramiz, izohlaymiz. Agar izohlovchi tafakkur umumiy (abstrakt) hukmlarda ifodalansa, bunday tafakkur *nazariy tafakkur* deb ataladi. Nazariy tafakkur ayni vaqtda abstrakt tafakkur hamdir. Masalan, «Hamma jismlar qizdirilganida kengayadi»,

Nazariy tafakkur — oldindan ko'rish imkoniyatini beradigan umumlashtirilgan tafakkurdir.

Tevarak-atrofdagi voqelikni o'zgartirish yo'li bilan o'zimizga kerakli real narsalarni va hodisalarni olishga yoki yaratishga qaratilgan tafakkur *amaliy tafakkur* deb ataladi. Amaliy tafakkur jarayonlari bir qancha savollar berishdan, masalan: qo'yilgan maqsadga erishmoq uchun «Nimalar qilish kerak?», «Qanday qilish kerak?», «Qay tarzda?», «Buning uchun nimalar qilish lozim?» degan savollar tuzilishi bilan boshlanadi. Amaliy tafakkurning shundan so'nggi jarayoni ish-harakatlarda yoki qo'yilgan savollarga javob

beruvchi ish-harakatlarni tasavvur qilish va o'ylashda voqe bo'ladi. Masalan, ishlab chiqarishni rattsionallashtirish, mashinani takomillashtirish kerak bo'lganida, biz falon xil parrakni soniyasiga o'n marta aylanadigan qilishimiz lozim. Buning uchun shu parrakni transmissiya orqali yoki tishli parrak orqali diametri kattaroq bo'lgan boshqa parraklarga tutashtiramiz va shu tariqa o'sha parrakni o'zimiz xohlaganimizdek, soniyasiga o'n marta aylanadigan qilamiz.

Tevarak-atrofdagi voqelikni biz asosan mehnat qurollari yordami bilan, asboblar yordami bilan o'zgartiramiz. Shu sababli amaliy tafakkur, boshqacha qilib aytganda, *texnik tafakkur* deb ham ataladi.

Voqelikni o'zimiz xohlaganimizdek o'zgartirishimiz natijasida yangi bir hodisa paydo bo'lganligi, voqelik qayta ko'rilganligi, biror real mahsulot vujudga keltirilganligi, masalan, stol, mashina, uy va shu kabilar vujudga keltirilganligi sababli, amaliy tafakkur *konstruktiv tafakkur* ham deb ataladi.

**10- mavzu: “Shaxsning hissiy-irodaviy sohasi va kasbga moslashish”
mavzusidagi maruza mashg'ulotining texnologik xaritasi**

TG' r bos qich lar	Bajariladigan ish mazmuni	Amalg a oshiru vchi shaxs, vaqt
1	1.1.Dars maqsadi: Talabalarni hissiy holatlarni ifodalanishi bilan tanishtirish. Hissiyot turlarini ajratish. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlarini belgilash. Shaxsning irodaviy sifatlari va ularni tarbiyalashni tushuntirish. Xulq-atvorni irodaviy boshqarishni ko'rib chiqish. Shaxsni kasbga moslashish psixologiyasini o'rgatish. 1.2.Identiv o'quv maqsadi. 1.Hissiy holatlarning ifodalanishi bilan tanishtiradi. 2. Hissiyot turlarini ajratadi. 3. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlarini belgilaydi. 4. Shaxsning irodaviy sifatlari va ularni tarbiyalashni tushuntiradi. 5. Xulq-atvorni irodaviy boshqarishni ko'rib chiqadi. 6. Shaxsni kasbga moslashish psixologiyasini o'rgatadi. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Emotsiya, sentimentallik, astenik, kayfiyat, affekt, stress, ehtiros, yuksak hislar 1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza 1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs, videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, taqdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarqatma materiallar, vedio	O'qitu vchi

	tasmalar, slaydlar, vedio proektor, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali materiallar.	
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qitu vchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga hissiy holatlarga oid muammoli savol beriladi. 3.2. Talabalarning hissiy holatlar haqida fikri eshitiladi va boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Talabalarning mavzuga oid haqida fikri tinglanib, umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosani o'qituvchi bayon qiladi.	O'qitu vchi-talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 1. Hissiy holatlarning ifodalanishini tushuntiring? 2. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlarini bayon qiling? 3. Hissiyot turlarini gapirib bering? 4. Xulq-atvorni irodaviy boshqarishni tushuntiring? 5. Shaxsni kasbga moslashish psixologiyasining tarixiy va nazariy ahamiyatini tavsiflang?	O'qitu vchi, 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qitu vchi, 10 minut

Asosiy savollar:

1. Hissiyot turlari va hissiy holatlarning ifodalanishi.
2. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari.
3. Shaxsning irodaviy sifatleri, xulq-atvorni irodaviy boshqarish va ularni tarbiyalash.
4. Shaxsni kasbga moslashish psixologiyasi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Emotssiya, sentimentallik, astenik, kayfiyat, affekt, stress, ehtiros, yuksak hislar

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Hissiyot turlari va hissiy holatlarning ifodalanishi bilan tanishtirish. Hissiyot turlarini ko'rib chiqish. kayfiyat, Affekt, stress, ehtirosni ta'riflash. Yuksak hislarni ajratish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Hissiyot turlari bilan tanishtiradi.
2. Hissiy holatlarning ifodalanishi ko'rib chiqadi. Hissiyot turlarini tanishtiradi.
3. Kayfiyat, Affekt, stress, ehtirosni ta'riflaydi.
4. Yuksak hislarni ajratadi.

Birinchi savolning bayon

Hissiyot turlari va hissiy holatlarning ifodalanishi.

Kishi biror narsani idrok va tasavur qilganida, eslab qolganida va esga tushirganida, fikr qilganida va gapirganida hamda harakat qilganida biror yoqimli (xush) yoki yoqimsiz (noxush) holatni kechiradi, bu holat huzur qilish yoki ranjishdan, maza qilish yoki qiynalishdan iborat bo'ladi. Bu kechirmalarda odamning o'z tevarak-atrofidagi narsalarga (hodisalarga), odamlarga va o'ziga nisbatan subektiv munosabati ifodalanadi. Yoqimli yoki yoqimsiz kechinma hissiyotimizning (**emotssiyalarimizning**) birinchi belgisi va elementidir.

Voqelikning ayrim hodisalari kishini quvontiradi, ayrim hodisalar xafa qiladi, ba'zi hodisalarga kishi qoyil qoladi, ba'zi hodisalardan g'azablanadi, odam ba'zi hodisalarni ko'rib jahli chiqadi, ba'zilaridan qo'rqadi. Shuning uchun ham subektiv kechinmalardan iborat bo'lgan hissiyotlar **ijobiy va salbiy hissiyotlar** deb ajratiladi.

G'azab va qahr hissi har bir kishida salbiy, noxush kechinma holatida o'tadi. Ammo ijtimoiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu hissiyot nima sababdan tug'ilganligiga va nimaga yo'nalganligiga qarab ijobiy yoki salbiy hissiyot bo'lishi mumkin.

Ko'p hollarda emotsional kechinmalarimizning mazmuniga bizning **intilishlarimiz** ham kiradi. Intilishlar esa hamisha ehtiyojni ifodalaydi.

Shunday emotsional holatlar ham bo'ladiki, bunda intilish juda sust bo'ladi yoki butunlay bo'lmaydi. Bu xil samarasiz, passiv hissiyotlarni, odatda, **sentimentallik** deb ataydilar. Sentimentallik - harakatsiz hissiyot bo'lib, odatda, faqat so'z bilan cheklanib, oh-vohlar qilish, ba'zan ko'z yoshi to'kishdan nariga bormaydi.

Hissiyotlarning faollik darajasi kishidagi qo'zg'alish va kuchlanish holatida yoki tinchish va bo'shashish holatida, yoki kishidagi hamma kuchlar g'ayratga kirgan holatda, yoxud bu kuchlar zaiflashgan va bo'shashgan holatda namoyon bo'ladi. Hissiyotlarning mana shu faollik darajasiga qarab, ular **stenik** va **astenik** hissiyotlarga bo'linadi.

Kishining hayotiy faoliyatini oshiradigan, g'ayratini orttiradigan hissiyotlar **stenik** hissiyotlar deb ataladi. Masalan, nihoyatda xursandlik, g'azablanish hislari stenik hissiyotlar qatoriga kiradi. Kishining hayotiy faoliyatini pasaytiradigan, g'ayratini susaytiradigan hissiyotlar astenik hissiyotlar deb ataladi. G'am-g'ussa, ma'yuslik, afsuslanish kabi hissiyotlar mana shunday astenik hissiyotlardir.

Emotsional kechinmalar organizmdagi alohida fiziologik jarayonlar, hisoblanadi. Emotsional kechinmalar chog'ida qon aylanishi o'zgaradi, yurak urishi tezlashadi yoki susayadi, odam esa qizaradi, oqaradi yoki bo'zaradi, nafas olish ham o'zgaradi: nafas olish tezlashadi, yoki susayadi. Emotsional jarayonlarning yurak faoliyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi shu qadar ayon sezilib turadiki, hatto oddiy tilda «his» bilan «yurak» degan so'z bir-biriga o'xshash ma'noda ishlatiladi. Odatda, «yuragim orziqib ketdi», «yuragim orqamga tortib ketdi», «yuragim yorilay dedi» deb gapirilganida, «yurak» so'zi bilan qo'rqib ketish, sevinish kabi hislar ifodalanadi.

Psixologiya fanida yuksak hislar quyidagi turlarga ajratiladi:

1) mehnat faoliyatini davomida kechiriladigan hislar-praksik hislar (yunoncha-praxis so'zidan olingan bo'lib, ish, faoliyat, yumush degan ma'noni anglatadi);

2) intellektual hislar (latincha intellectusgan so'zdan olingan bo'lib, tushunish, aql degan ma'noni bildiradi);

3) axloqiy hislar (latincha moratis so'zidan olingan bo'lib, axloqlik degan ma'noni anglatadi);

4) estetik hislar (yunoncha aistesis degan so'zdan olingan bo'lib, hissiy idrok, hissiy degan ma'noni aks ettiradi).

Praksiz hislar. Shaxsning amaliy hayotining istalgan tarmog'i, maqsadga muvofiq ongli faoliyati shaxsning ularga nisbatan muayyan munosabatda bo'lishning muhim sohasiga aylanib qoladi.

Hissiyotning tashqi ifodalanishi.

Psixik jarayonlarning hammasi organizmning tashqi o'zgarishlarida va harakatlarida ma'lum darajada ifodalanadi. Lekin odamning hissiyotlari ayniqsa, yaqqol ifodalanadi. Emotsional kechinmalar organizmning tashqi o'zgarishlarida shu qadar yaqqol alomatlarida ifodalanadiki, odatda, biz odamning tashqi ko'rinishiga qarab unda qanday hissiyotlar yuz berayotganligini u xursandmi, yoki xafami, g'azablanganmi yoki biror nimadan qo'rqib turganmi, unda muhabbat paydo bo'lganmi yoki nafrat paydo bo'lganmi, shodlik paydo bo'lganmi yoki uyalish paydo bo'lganmi, xullas, mana shu hislarning ko'pini aytib bera olamiz.

Bizning emotsional kechinmalarimiz mimikada, gavda harakatlarida va imo-ishoralarda ayniqsa yaqqol ifodalanadi. Kishining emotsional kechinmalari fiziologik jarayonlarda yig'i, kulgi va boshqa shu kabilarda ham namoyon bo'ladi. Hissiyotlarning harakatlarda, mimikada, g'aydada, imo-ishoralar va ma'noli ko'z qarashlarda, boshqa shu kabilarda mana shu tariqa tashqi ifodalanishlarining hammasi suratga va kinoga olish yo'li bilan qayd qilinishi mumkin.

Kishining emotsional kechinmalari uning nutqida ham ifodalanadi.

Kayfiyat zaif yoki o'rtacha kuchga ega bo'lgan va, odatda, ancha barqaror emotsional holatdir. Odamdagi ba'zi bir kayfiyat bir necha kun, bir necha hafta, bir necha oy va undan ham ko'proq davom etishi mumkin. Quvnoq kayfiyat, ma'yus kayfiyat, g'amginlik kayfiyati, g'azab kayfiyati va shu kabi kayfiyatlar, yaxshi yoki yomon kayfiyatlar bo'lib turishi hammaga ma'lum. Biz biror kishidan, ahvollaringiz qalay, deb so'raganimizda, asosan, uning kayfiyatini nazarda tutamiz.

Ehtiros- ham uzoq davom qiladigan va barqaror bo'lgan emotsional holatdir. Lekin kayfiyatdan ehtirosning farqi shuki, ehtiros muayyan harakatga, muayyan obektga muttasil intilishda kuchli sur'atda ifodalangan kuchli emotsional holatdir. Ehtiros hamisha aniq bir narsaga qaratilgan bo'ladi.

Masalan, odamlarda bilimga, ixtirochilikka, musiqaga bo'lgan ehtiros mana shunday aniq ehtirosdir. Bular ijobiy ehtirosdirlarga misol bo'la oladi. Bizning axloqimiz nuqtayi nazaridan qaraganda, salbiy ehtiroslar ham bor.

Masalan, ichkilikbozlikka, alkogolga, qimorga, kartabozlikka hirs qo'yish, pulparastlik mana shunday salbiy ehtiroslardir. Ijobiy ehtiroslar odamni ulkan ijodiy faoliyat yo'liga etaklovchi kuchdir.

Affektlar

Tez paydo bo'ladigan, nihoyat darajada kuchli, g'oyat jo'shqinlik bilan o'tadigan qisqa muddatli emottSIONal holatlar affektlar deb aytiladi. Masalan, birdaniga achchiqlanish, g'azablanish, to'satdan qo'rqish va shu kabi holatlar affektlarning bir ko'rinishidir. Affektlar ko'pincha to'satdan paydo bo'ladi va ba'zan atigi bir necha daqiqa davom etadi. Affekt holatida kishining ongi, tasavur qilish va fikr qilish qobiliyati torayadi, susayib qoladi. Mana shunday kuchli emottSIONal qo'zg'alish shiddatli ha-rakatlarda, tartibsiz gaplarni gapirib yuborishda, ko'pincha, baqirib yuborish tarzida namoyon bo'ladi. Affektlar vaqtida odamning harakatlari kutilmagan tarzda, «portlash» singari, birdaniga boshlanib ketadi.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi:

Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlarini ta'riflash. Irodani tushuntirish. Irodaviy harakatlarni ajratish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlarini ta'riflaydi.
2. Irodani tushuntiradi.
3. Irodaviy harakatlarni ajratadi.

Ikkinchi savolning bayon

Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari.

Iroda, avvalo, kishining o'z-o'zini, o'z intilishlari, hissiyotlari va ehtiroslarini qo'lida tuta bilishi demakdir.

Iroda — kishining o'z-o'zini iroda qila bilishi, o'z xulqi va faoliyatini ongl ravishda tartibga solish hamda boshqara olish qobiliyatidir.

Irodaviy harakatlar deyarli hamma vaqt ixtiyorsiz faollik bilan bog'liq ravishda sodir bo'ladi. Reflektor harakatlar, masalan, chuchkurish, ko'z pirlpiratish, qo'lga bexosdan nina qadalganda yoki qo'l sinib qolganda qo'lni siltab tortib olish ixtiyorsiz harakatlar jumlasidandir. Bunday harakatlarning nerv-fiziologik asosi shartsiz reflekslardir.

Ixtiyorsiz harakatlarning maxsus turi *avtomatlashgan* harakatlar, ya'ni malaka va odatlardir. Bunday avtomatlashgan harakatlar odamning amaliy hayoti davomida hosil qiladi. Malaka va odatlarning nerv-fiziologik asosida shartli reflekslar yotadi.

Ixtiyorsiz harakatlar ongsiz ravishda voqe bo'ladi. Ammo ixtiyorsiz harakatlarning ko'pchiligini kishi ma'lum darajada o'sha ish-harakatlar voqe bo'lgan paytda va ayniqsa ular bo'lib o'tgandan keyin *bilib-anglab* oladi.

Bunday anglash ixtiyorsiz qilingan harakatlarning zarurligi, foydaliligi va axloqiyligi jihatidan baho berish tufayli qanoat hosil qilish yoki norozi bo'lishda ifodalanadi. Aqliy va axloqiy taraqqiyot darajasiga qarab, kishi xuddi ixtiyoriy harakatlar singari bu harakatlarni ham o'zi ma'qullaydi yoki qoralaydi.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlarini ta'riflash. Irodani tushuntirish. Irodaviy harakatlarni ajratish.

Identiv o'quv maqsadi:

4. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlarini ta'riflaydi.
5. Irodani tushuntiradi.
6. Irodaviy harakatlarni ajratadi.

Uchinchi savolning bayoni

Shaxsning irodaviy sifatleri, xulq-atvorni irodaviy boshqarish va ularni tarbiyalash.

Harakat maqsadini belgilash

Irodaviy jarayon va irodaviy harakatning dastlabki momenti maqsad qo'yishdan iboratdir. Maqsad deganda odam nima qilishi kerakligini, nimaga erishishi kerakligi va qanday qiyinchiliklarni engishi lozimligini anglashi tushuniladi.

Biror narsani maqsad qilib qo'yish ma'lum sabablar, muayyan faktorlar va inson ayni shu chog'da idrok qilayotgan sharoitning o'zi bilan belgilanadi. Masalan, odam ba'zan qiyin ahvolga tushib qoladi va u bu ahvoldan qandaydir yo'l bilan chiqib ketishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. U xalaqit qilayotgan narsalarni yo'qotib, sharoitni o'zgartiradi va yangi sharoit yaratadi.

Nima qilish kerakligini anglash va maqsad qilib qo'yish ko'pchilik hollarda, odamning biologik va ruhiy ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Irodaviy harakatlar - ilgaridan mo'ljallangan xohish bilan amalga oshiriladigan harakatlardir. Irodaviy harakatlar ixtiyorsiz harakatlardan dastavval shuning bilan farq qiladiki, ularda oldindan mo'ljallangan va to'la anglanilgan intilish bo'ladi.

Xohish bilan turli-tuman tegishli harakat boshlanib ketishi mumkin. Bunday harakatlar oddiy irodaviy harakatlar yoki oddiy irodaviy aktlar deb ataladi. Masalan, odam o'rnidan turishni xohlar ekan, u o'rnidan turadi, biron qalamni olishni xohlasa, uni bemalol oladi.

Maqsad va vositalarni belgilash

Kishida ayni bir vaqtning o'zida bir necha tilak va istaklar tug'ilishi mumkin, chunki kishining ehtiyojlari juda ham xilma-xildir. Masalan, kishi kechqurun bo'sh bo'lgan paytida teatrqa yoki biror do'stining oldiga borishni xohlashi mumkin. Bundan tashqari, ayni bir istak, ayni bir maqsadga erishish yo'li va erishish vositasi turlicha bo'la olishini tasavvur etish istak va maqsadga erishmoq uchun qilingan ish-harakatlardan chiqadigan turli xil natijalarni oldindan tasavvur etish mumkin.

Irodaviy harakatlarning ixtiyorsiz harakatlardan farqi yana shundan iboratki, ular motivlar asosida amalga oshiriladi.

Inson irodaviy faoliyatining motivlari xilma-xildir. Bu motivlardan avvalo kishining intilish va xohishlarini tug'diruvchi ehtiyojlarni ko'rsatish mumkin. Ma'lum maqsad va unga erishish yo'llarini tanlash ko'pincha biror ehtiyojning mazmuniga va ahamiyatiga bog'liq. Kuchliroq ehtiyoj boshqa motivlar orasida kuchliroq motiv bo'lishi mumkin.

Irodaviy harakat natijalari to'g'risidagi tasavvurlarimiz ham irodaviy harakat motivlari bo'la oladi, chunki bu natijalar ma'lum ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Biz tasavvur qilgan maqsad va bu maqsadga erishish yo'llari turli hissiyotlarimiz bilan bog'liq bo'lishi bilan birga, ma'lum darajada jozibali bo'lishi mumkin. Bu jozibalilik ham harakat motivi bo'la oladi.

Biron maqsad va uni amalga oshirish yo'llarini tanlash ba'zi paytda har xil kuch va har xil jozibaga ega bo'lgan bir qancha motivlar qatnashishi tufayli ichki kurash xarakterini kasb qiladi. Mana shuning uchun ham bu jarayon motivlar kurashi nomi bilan yuritiladi.

Qarorga kelish

Motivlar kurashi bilan bog'liq bo'lgan biron maqsadni amalga oshirish yo'llarini tanlash jarayoni qarorga kelish bilan tugaydi. Qarorga kelish ma'lum bir maqsad va bu maqsadni amalga oshirishning biron usuli yoki ma'lum yo'llari haqida to'xtash demakdir. Bu esa motivlardan biri hal qiluvchi rol o'ynaydi, demakdir. Masalan, kechqurun qaerga borish kerak: teatrgami yoki do'stimning oldigami degan fikrdagi motivlar kurashi natijasida kishi do'stining oldiga borishga qaror qiladi. Kasb tanlash tufayli paydo bo'lgan motivlar kurash natijasida bir o'smir traktorchi bo'lishga qaror qilsa, boshqasi pedagogika institutiga kirishga qaror qiladi.

Ba'zi hollarda kishi qabul qilinadigan qarorning amalga oshirish imkoniyatlariga ishongan holda juda tez ma'lum bir qarorga keladi. Buni biz **qat'iyat** deb ataymiz.

Boshqa bir hollarda esa, motivlar kurashi uzoq, vaqtga «cho'zilib ketadi» va qaror bajarilishiga ishonchsizlik hamda ikkilanishlar bilan qabul qilinadi. Bu - **qat'iyatsizlikdir**. Masalan, o'rta maktabni tugatayotgan va tugatgan ba'zi bir yoshlar qaysi institutga kirish masalasini juda tez hal qiladilar, boshqa birlari bo'lsa juda uzoq vaqt ikkilanib o'ylab yuradilar. Qat'iyat, odatda, jiddiylik vaziyatning engillanishi, mamnunlik tuyg'usini tug'dirsa, qat'iyatsizlik esa ikkilanish hissi, jiddiylik tuyg'usi va alohida og'ir noaniq holat bilan birga sodir bo'ladi.

Kundalik hayotimizda juda ko'p ongli irodaviy harakatlarimiz uzoq davom etadigan va jiddiy tusdagi motivlar kurashisiz amalga oshirilaveradi. Bunday hollarda biron qarorga kelish ilgaridan odat bo'lib qolgan bir tarzda yoki belgilangan qoida asosida, yo bo'lmasa, mazkur qaror va harakatlarni ma'lum turdagi xatti-harakatlarga rioya qilish tarzida amalga oshiriladi.

Bir marta qabul qilishgan qarorni keyinchalik o'zgartirish yoki boshqa yangi qaror bilan almashtirish, yoki bo'lmasa, batamom bekor qilib yu-borish **subutsizlik** deyiladi.

Qat'iy qaror qila olmaslik - kishi irodasi bo'shligining alomatidir.

Qarorni ijro etish

Biron qaror shu qarorga muvofiq keladigan choralar ko'rish va ish-harakatlar qilish uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatga o'tishni ijro qilish, bajarish deyiladi. Irodaviy jarayonlarda eng muhim narsa qabul qilingan qarorni bajarishdir. Kishining irodasi xuddi mana shu qarorni bajarishda namoyon bo'ladi deyish mumkin.

Odatda, ikki turli irodaviy harakat farqlanadi: jismoniy va aqliy. Jismoniy harakatlarga har turli mehnat operatsiyalari, o'yin hamda sport mashg'ulotlari va boshqalar kiradi. Aqliy harakatlarga bo'lsa - hisob ish-lari, yozma ishlar, dars tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va shuning kabilar kiradi. Ko'p vaqt takrorlab, o'zlashtirilib ketgan, ko'nikma va odat bo'lib ketgan harakatlar ham murakkab irodaviy harakatlardan-dir. Iroda, yana ayni chog'da keraksiz harakatlarni to'xtatish, tugatish yoki o'zgartirishda ham namoyon bo'ladi.

Qarorni ijro etish, odatda, ma'lum vaqt va ma'lum muddat bilan bog'liq bo'ladi. Qarorning hech kechikmay, belgilangan vaqtida ijro etili-shi irodaning ijobiy sifatidan dalolat beradi. Bu esa ishchanlik va puxta-likni bildiradi.

Ichki qarshiliklarni engish

Ichki qarshiliklar kishining o'ziga xos bo'lgan ma'lum holatidir. Kishi tinch, harakatsiz va hech qanday faoliyatsiz holatda bo'lishi mumkin. Masalan, bunday holat dam olayotganda, uxlayotganda, toliqqan paytda va kasal paytda bo'ladi. Biron ish bilan shug'ullanmay harakatsiz o'tirishga, ya'ni yalqovlikka undovchi mayl ham shunday holatdandir.

Paydo bo'layotgan ixtiyorsiz harakat, ko'pincha, qabul qilingan irodaviy qarorga nisbatan boshqacha (ba'zan qarama-qarshi) yo'nalishga moyil bo'ladi. Masalan, kishining hissiyotini aks ettiradigan ba'zi ish-harakatlari shular jumlasidandir. Ixtiyorsiz harakatning paydo bo'lishi kerakli irodaviy harakatni susaytirib yoki batamom to'xtatib qo'yishi mumkin. Shuning uchun qabul qilingan qarorni bajarishda paydo bo'ladigan ixtiyorsiz harakatni irodaviy zo'r berish bilan engishga to'g'ri keladi. Masalan, parashutchilar birinchi marta o'zlarini samolyotdan tashlaganlarida (irodaviy harakatlarida) tabiiy ravishda paydo bo'ladigan qo'rqish hissini engib borishlari lozim bo'ladi.

Iroda, avvalo, kishining o'z-o'zini, o'z intilishlari, hissiyotlari va ehtiroslarini qo'lida tuta bilishi demakdir. Iroda — kishining o'z-o'zini iroda qila bilishi, o'z xulqi va faoliyatini ongli ravishda tartibga solish hamda boshqara olish qobiliyatidir.

Odamning ichki to'lqinlarini engi olish, o'zini boshqarish va o'z usti-dan hukmronlik qila bilish qobiliyatini odatda **ichki iroda** deb yuritiladi.

Tashqi qarshiliklarni engish

Kishi tabiatni o'zgartiradi. Bunda u tabiatning qarshiligini engadi, uning stixiyalariga, ya'ni suv, sovuq bo'ron, olov kabi tartibsiz, halokatli harakatlariga qarshi kurashib, uni o'zgartiradi, qayta ko'radi. Kishi masofani engib bir joydan ikkinchi joyga ko'chadi, og'ir narsalarni ko'tarib, ularni bir joydan ikkinchi joyga olib boradi. Kishi irodaviy zo'r berish va irodaviy

harakat yordami bilan ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan yangi narsalar: uylar, fabrikalar, zavodlar, yo'llar, mashinalar, san'at asarlari va shuning kabilarni yaratadi.

Odamning tashqi to'sqinliklarni tashqi qiyinchiliklarni enga olish qobiliyatini *tashqi iroda* deb yuritiladi. Obektiv voqelikka ta'sir qilishda kishi iroda kuchining yordami bilan dastaval o'z organizmini harakatga solishi lozim va shu bilan birga, har qanday ixtiyorsiz harakatni doimo bosib va o'zgartirib turishi kerak. Shuning uchun kishining tashqi qarshiliklarni engishga qaratilgan irodaviy zo'r berishlari va irodaviy harakatlari ayni vaqtning o'zida kishining ichki holatini ham o'zgartiradi. Kishi tashqi muhitni o'zgartirishi bilan birga, u o'z-o'zini ham o'zgartiradi.

Salbiy baho, ko'pincha, qilingan ishlarga achinish, uyalish va afsuslanish kabi hissiyotlar tug'ilishiga sabab bo'ladi.

To'rtinchi savol bo'yicha darsning maqsadi:

Talabalarni shaxsning kasbga moslashish psixologiyasi bilan tanishtirish.

Kasbga moslashish motivlarini ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Shaxsning kasbga moslashish psixologiyasi bilan tanishtiradi.
2. Kasbga moslashish motivlarini ta'riflaydi.

To'rtinchi savolning bayoni

Shaxsni kasbga moslashish psixologiyasi.

Ma'lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug'ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat iste'molchi balki yaratuvchi bo'lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruxga mansub motiv jamiyat tomonidan ehtiyojlarning kondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog'liq. Maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasi ham shu motiv bilan bog'liq ravishda shakllantiriladi.

Mexnat faoliyatining umumiy motivlari yuqorida aytib o'tilganidek, aniq kasblar doirasida amalga oshadi. Kasb tanlash anchagina qiyin va motivatsion jarayondir. Chunki shaxsning tug'ri kasb tanlashi ko'pincha insonning hayotdan qoniqishga xam sabab bo'ladi.

Insonning qaysi faoliyatini tanlashi ko'prok tashqi omillar hakidagi qarorning kabul kilinishi jarayoni hakida to'xtalishi muhimdir. Bu asosan tashqi holat baholariga, o'zining imkoniyat va qobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog'liqdir. Tashqi xolatini baxolash, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, o'zida ishlab topiladigan pul miqdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxona, muassasaning yashash joyiga yaqin bo'lishi, transpot aloqalarining qo'layligi, ish joyi estetikasi va ishlab chiqarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iklim, maqtov va tartibga chaqirish kabilarni qamrab oladi.

O'z imkoniyatlarini baholash sog'lomligi, ishga yaroqliligi, kasbi bo'yicha muhim sifatlarga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori shovqinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni o'z ichiga oladi.

To'rtinchi savol bo'yicha nazorat savollari

1. Shaxsning kasbga moslashish psixologiyasini ta'riflab bering

2. Kasbga moslashish motivlarini ta'riflang.

11- mavzu :

“Kobiliyatlar va shaxsning kasbiy shakllanishi” mavzusidagi maruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

№	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs,
1	Tayyorlov boskichi: Dars maksadi: Talabalarga kobiliyatlar hakida tushuncha berish. Kobiliyatlarning tabiiy asoslari bilan tanishtirish. Kobiliyatlarning rivojlanishini tushuntirish. Shaxs faolligi va kobiliyatlarning o'zaro bog'likligini ko'rib chikish. Shaxsning kasbiy shakllanishida va kobiliyatlarning o'rnini belgilash. Kobiliyatlar va shaxsning o'zini-o'zi baholashini ta'riflash. 1.2. Identiv o'kuv maksadlari. 1. Talabalarga kobiliyatlar hakida tushuncha beradi. 2. Kobiliyatlarning tabiiy asoslari bilan tanishtiradi. 3. Kobiliyatlarning rivojlanishini tushuntiradi. 4. Shaxs faolligi va kobiliyatlarning o'zaro bog'likligini ko'rib chikadi. 5. Shaxsning kasbiy shakllanishida va kobiliyatlarning o'rnini belgilaydi. 6. Kobiliyatlar va shaxsning o'zini-o'zi baholashini ta'riflaydi. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: qobiliyat, iste'dod, intellekt, Geniallik, talantlilik, geniy, layoqat, qiziqish, havas. 1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza 1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs, videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, takdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali kurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarkatma materiallar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali materiallar.	O'kituvchi

2	O'kuv mashg'ulotni tashkil kilish boskichi: 2.1. Mavzu e'lon kilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy kislari bayon kilinadi.	O'kituvchi 15 minut
3	Guruhda ishlash boskichi: 3.1. Talabalarga kobiliyatga oid muammoli savol beriladi. 3.2. Talabalarining kobiliyatga oid fikri eshitiladi va boshka talabalar baxsga chakiriladi. 3.3. Talabalarining fikri tinglanib, umumiy xulosalar chikariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Kobiliyatlarning shaxs kasbiy shakllanishida o'rni hakida umumiy xulosani o'kituvchi bayon kiladi.	O'kituvchi-talaba 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash boskichi: 1. Kobiliyatlarning tabiiy asoslarini bayon kiling. 2. Kobiliyatlarning rivojlanishini tushuntiring. 3. Shaxs faolligi va kobiliyatlarning o'zaro bog'likligini ko'rib chiking. 4. Shaxsning kasbiy shakllanishida kobiliyatlarning o'rnini belgilang.	O'kituvchi 15 minut
5	O'kuv mashg'ulotini yakunlash boskichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil kilinadi. 5.2. Mustakil ish topshiriklari beriladi.	O'kituvchi 10 minut

Asosiy savollar:

1. Kobiliyatlar va ularning tabiiy asoslari.
2. Kobiliyatlarning rivojlanishi.
3. Shaxs faolligi va kobiliyatlar.
4. Shaxsning kasbiy shakllanishi va kobiliyatlar.
5. Kobiliyatlar va shaxsning o'zini-o'zi baholashi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: qobiliyat, iste'dod, intellekt, Geniallik, talantlilik, geniy, layoqat, qiziqish, havas.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga qobiliyatlar haqida tushuncha berish. Qobiliyatlarning tabiiy asoslarini asoslash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Qobiliyatlar haqida tushuncha beradi.
2. Shaxsning kasbga moslashish psixologiyasi bilan tanishtiradi.
2. Qobiliyatlarning tabiiy asoslarini ta'riflaydi.

Birinchi savolning bayoni Kobiliyatlar va ularning tabiiy asoslari.

Kishilar turli sohalardagi faoliyatlarida — mehnat, o'yin, o'kish va ijodiyotda biror narsani tez yoki sekin bajarishlari bilan bir-birlaridan fark kiladilar. Ba'zi bir odam bir ishni sekinlik bilan bajarsa, bir kishi tezlik bilan bajaradi. Ayrim kishilarning faoliyatlari samarali, serunum bo'lsa, boshkalarники esa kam unum bo'ladi. Ba'zi odamlar o'z ishlarida ijodiy, original usullarni ko'prok ko'llasa, ba'zi bir kishilarning ishlarida esa bunday usullar kamrok ko'rinadi. Kishilar faoliyatining mana shu xususiyatiga karab, biz ularning kobiliyatlari kandayligini aniklab olamiz.

Kobiliyat — kishining muayyan faoliyatiga bo'lgan layokatidir

Kishilar kobiliyati nihoyatda xilma-xil bo'ladi. Har bir kasb kishidan mehnatda, ijodiyotda va o'kish faoliyatlarida tegishli kobiliyat talab etadi. Kishi faoliyatining har xil turlariga muvofik, nazariy va amaliy kobiliyat-larni, matematika, texnika, musika, adabiyot, pedagogika, xo'jalik, tashki-lotchilik va boshka sohalarga oid kobiliyat turlari bo'ladi.

Shaxsning rivoj topib, kobiliyatlarida namoyon bo'ladigan tug'ma xususiyatlari iste'dod deyiladi.

Kishining iste'dod darajasini undagi muayyan kobiliyatlarning kanchalik tez o'sishiga, bilim va malakalarni kanchalik egallash iga hamda o'z ishini kanchalik muvaffakiyat bilan va samarali bajarishiga karab aniklaymiz.

•Kobiliyat va iste'dodda kishining akli (intellekti) ham, ya'ni idrok va kuzatuvchanligining, tafakkur, xayol, nutk va xotiraning kanchalik o'sganligi ham ko'rinadi. Akl faoliyati diqqat va iroda bilan bog'lik bo'lgani uchun kobiliyat va iste'dod diqqat va irodaning kanchalik kuchli va barkarorligida ham ko'rinadi. Kishining kanchalik kuzatuvchan ekanligi, bilimlarni kanday o'zlashtirishi, nazariy va amaliy masalalarni kanday hal kilishi, kanday kimmatli yangiliklar yaratishi, o'z bilim va malakalarini turmushga kanday tatbik kila bilishidan ham, kishining kobiliyat va iste'dodini bilish mumkin.

Kobiliyat va iste'dodni bilim yoki ma'lumotga teng baravar deb, ya'ni u bilan aynan bir narsa deb karash yaramaydi. Kishining muayyan bir xildagi kobiliyati va iste'dod darajasi uning ma'lum sohada bilim va ko'nikma hosil kilish tezligi darajasi bilan belgilanadi. Shuningdek, kobiliyat amalda ko'llay olish va ijodiyotda undan foydalana bilishda ham ko'rinadi. Bilim olish va ko'nikma hosil kilish esa, o'z navbatida, kobiliyat va iste'dodning yuzaga chikishiga hamda o'sishiga sabab bo'ladi.

Geniallik va talantlilik hakida

Genial yoki geniy deb, biz shunday kishilarni aytamizki, ular nihoyatda katta masalalarni hal kiladilar, butun bir sinf yoki xalklar uchun, barcha insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, misli ko'rilmagan kimmatli narsalar yaratadilar. Bunda ular yaratgan narsalar tarixda go'yo burilish nuktasi bo'lib xizmat kiladi, tarixni oldinga progressiv tomon harakatga kel-tiruvchi madad bo'lib xizmat kiladi. Masalan, biz Alisher Navoiyning genial shoir deb hisoblaymiz, chunki, u shunday asarlar yaratdiki, uning asarlari dunyodga kelishi bilan o'zbek adabiyotida o'zbek tili tarakkiyotida yangi bir davr boshlandi.

Talantli deb shunday odamlarni aytiladiki, ular ma'lum sohada murakkab nazariy va amaliy masalalarni hal kilishga, yangilik va progressiv ahamiyatga ega bo'lgan kimmatali narsalar yaratishga kodir bo'ladilar. Talantli odam, talantli yozuvchi va talantli shoir, talantli rassom, talantli konstruktor deganda biz buni ana shu ma'noda tushunamiz.

Talantli deb, shuningdek, bilimlarni tez, muvaffakiyat bilan o'zlashtirib oladigan va shu bilimlarni turmushda, o'z faoliyatlarida to'g'ri tatbik kiladigan odamlarni ham aytiladi. Talantli o'kuvchi, talantli taiaba, talantli skripkachi va talantli pianist, talantli muhandis deganda biz buni ana shu ma'noda tushunamiz.

Geniy — bu yangilik yaratuvchi va kashf kiluvchi odam, talantli deb, bu yangiliklarni tez o'zlashtirib oladigan va shu bilimlarni turmushda tatbik kilib, ularni oldinga suradigan odam deyish mumkin. Har bir geniy talantli ham bo'ladi, biroq har bir talantli odamni genial deb bo'lmaydi.

Talantli va genial kishilarning juda ko'pi har tomonlama kobiliyatli bo'lganlar. Chunonchi, Aristotel, Leonardo da Vinchi, Lomonosovlar, Abu Ali Ibn Sino, M.Ulug'bek, Al-Forobiy, Navoiy, Kori Niyoziy, Us-mon Nosir va boshkalar mana shunday bo'lganlar.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga qobiliyatlar haqida tushuncha berish. Qobiliyatlarning tabiiy asoslarini asoslash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Qobiliyatlar haqida tushuncha beradi.
2. Shaxsning kasbga moslashish psixologiyasi bilan tanishtiradi.
2. Qobiliyatlarning tabiiy asoslarini ta'riflaydi.

Ikkinchi savolning bayoni

Kobiliyatlarning rivojlanishi.

Kobiliyat va iste'dodning o'sishi

•Har bir odamning kobiliyat va iste'dodi tarakkiyot mahsulidir. Insonning kobiliyati uning tug'ma layokati asosida, muhitga bog'lik ravishda olayotgan ta'lim-tarbiyasiga karab, shuningdek, kishining o'z ustida ishlashi bilan bog'lik holda o'sib, kamol topib boradi. Inson o'z mohiyati bilan ijtimoiy tabiiy zotdir. Shuning uchun ham unga xos bo'lgan barcha ruhiy holat va jarayonlar tabiiy kuchga, hayotiy kuchga egadir. Bu tabiiy kuchlar har bir insonga ota-onadan bevosita o'tadi va ular instinktlar, tug'ma layokatlar tarikasida ijtimoiy munosabat va faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi.

Tug'ma layokat — tayyor, kamolotga etgan kobiliyat emas, balki kobiliyatning o'sishi uchun fakat tabiiy zamindir, u kelgusida kobiliyatga aylanmog'i mumkin. Bunday imkoniyatlar fakat tegishli sharoit mavjud bo'lgandagina ro'yobga chika oladi.

Tug'ma layokatni irsiyat bilan aynan bir narsa deb tushunish yaramaydi. Layokat irsiyat natijasigina bo'lib kolmay, balki, shu bilan birga ona homilasida o'sish natijasi hamdir. Layokat — kishidagi tug'ma imkoniyatdir.

Layokat kishining butun umri davomida o'zicha o'sib, kamolotga et-maydi. Layokat hali kishida «mudrab yotgan» imkoniyatlardir. Bu layo-katning «uyg'onib» yuzaga chikishi uchun tegishli ijtimoiy muhit ham bo'lmog'i lozim. Layokatni xuddi urukka o'xshatish mumkin, urug'dan o'simlik ko'karib chikishi, etilib meva kilishi uchun kulay sharoit: tuprok, havo, kuyoshning bo'lishi darkor. Kishidagi tug'ma layokatning o'sib kamol topishi uchun zarur bo'lgan sharoitning asosi ijtimoiy muhitdir.

Nokulay ijtimoiy muhit sharoitida kishidagi tug'ma layokatlarning «uyg'onmay» kolib ketishi mumkin. Bunday nokulay muhit kishida tasodifiy ravishda ko'rina boshlagan biron kobiliyat va iste'dod alomatlarini yo'kotib yuborishi yoki ularning paydo bo'lish vaktini cho'zib yuborishi ham mumkin.

Milliy an'analar urf-odatlarimizning tiklanishi, milliy, umumbashariy va umumma'naviy kadriyatlarimizni hayotimizga tatbik etilishi xalkimizning turmush sharoitini o'zgarishiga olib keldi. Jamiyatimiz uchun bilim-don, fidokor, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash imkoniyati yaratildi. O'zbek xalki yuksak akl-zakovatga, dunyoni boshkarish kudrati, salohiyati, ko-biliyatiga ega bo'lgan sohibkiron Amir Temur kabi sarkardalar, Al-Bu-xoriy, At-Termiziy, Bahovuddin Nakshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy kabi ulug' muhandis majtahid ulamolari, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi komusiy olimlari bilan birgalikda Ul-Umaviy, Hofiz Sheroziy kabi musikashunos olimlari, Nizomiy Ganjaviy, Abdu-rahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Ulug'bek kabi mutafakkirlari bilan faxr-lanib kolmay, ularning ishlarini davom ettirishga, fan sohasida yangiliklar yaratishga ham kodirdirlar.

Shuningdek, mamlakatimizda nomlari jahon fani tarixiga kirgan olim-larimiz ko'plab topiladi. Bizda madaniy saviyani oshirish, xalkimiz ora-sida ko'plab bunyodga kelgan talant va salohiyatlarni kamol toptirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Ma'lumki, barcha yuksak iste'dodli kishilar ko'p va tirishib o'kiganlar. Iste'dod ayni ta'lim-tarbiya jarayonida, kishining tarkib topayotgan ko-biliyatlarida ravshanrok ko'rina boshlaydi. Chunonchi, kishining, masalan, musika, adabiyot, texnika, matematika va boshka shu kabilarga bo'lgan iste'dodi ta'lim-tarbiya jarayonida oshkor bo'ladi.

Kulay sharoit, o'kitish va tarbiya odamdagi layokatning barvakt uyg'onishiga imkon beradi. Masalan, Rimskiy-Korsakov onasi kuylagan kuylarni ikki yoshdanok, otasi pianinoda chalgan kuylarni to'rt yoshida takrorlar, xirgoyi kilar edi va otasidan eshitgan kichik musika asarlarini tez kunda fortepianoda o'zi chala boshlagan. Motsart uch yoshdan boshlab klavesinani (pianinoga o'xshash musika asbobini) chala boshlagan, eshitgan musika asarlarini hayron kolarli darajada darrov esida koldirgan. To'rt yoshida o'zi ham musika asarlari yarata boshlagan. Gaydida to'rt yoshidayok musikaga bo'lgan kobiliyat ko'rina boshlagan. Prokofev sak-kiz yoshida kompozitor bo'lib tanila boshlagan.

Rassomlik sohasida Rafaelning ijodiy kobiliyati sakkiz yoshida, Mike-lanjeloda o'n uch yoshida, I.E. Repin bilan V.A. Serovda to'rt yoshida, V.I. Surikovda olti yoshida ko'rina boshlagan. Aleksandr Ivanov o'n bir yoshidayok tasviriy san'at Akademiyasiga kirgan. Igor Grabar o'zi hakida:

«Rassomlikka necha yoshda havas ko'rganligimni eslay olmayman, ammo rasm solmagan vaktimni xotirlay olmayman», deydi.

Poeziya sohasida Pushkin va Lermontovlarning ijodiy kobiliyatlari juda erta ko'rina boshlagan. Pushkin to'kkiz yoshida, Lermontov o'n yoshida, A. Navoiy 5 yoshida ijod kila boshlagan. Ularning 7—13 yoshlaridayok asarlari bosilib chika boshlagan. Bayron bilan Shiller o'n olti yoshda yoza boshlagan.

Kishining o'z faoliyatiga kanday munosabatda bo'lishi katta ahamiyatga egadir. Agar kishi o'z ishini sevib, mehr bilan kilsa, u vaktda kishining bu sohadagi salohiyatlari kuchlirok yuzaga chika boshlaydi, uning kobiliyat va mahorati tezrok o'sib boradi. Ishga muhabbat ko'yish — u ishga kizikish, havas ko'yish demakdir. Shu sababdan kishining kobiliyati uning kizikish-havaslarini bilan mustahkam bog'lik va kizikishning o'sib borishiga karab, kishi kobiliyati ham o'sib boradi.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga qobiliyatlar haqida tushuncha berish. Qobiliyatlarning tabiiy asoslarini asoslash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Qobiliyatlar haqida tushuncha beradi.
2. Shaxsning kasbga moslashish psixologiyasi bilan tanishtiradi.
2. Qobiliyatlarning tabiiy asoslarini ta'riflaydi.

Uchinchi savolning bayoni Shaxs faolligi va kobiliyatlar.

1. Kizikish va havas to'g'risida umumiy tushuncha

Kizikish-havas iborasini biz ko'pincha marokli, ajoyib, yokimli ma'nolarda ham ishlatamiz. Kizik spektakl, marokli roman, ajoyib odam va hokazolar deganimizda, odatda, shu ma'noda gapiramiz.

Bunday ma'noda tushuniladigan kizikish-havasni bevosita kizikish-havas yoki kiska muddatli kizikish-havas deymiz. Bu xildagi kizikish-havas, asosan, kishidagi ixtiyorsiz diqqat jarayonida ro'y beradi va u kishining individual xususiyatlari tarkibiga kirmaydi.

Bevosita kizikish-havasni uzok muddatli, nisbiy barkaror kizikish-havasdan fark kilmok kerak. O'ziga xos tor ma'noda ishlatiladigan kizikish so'zi aslida shu xildagi barkaror kizikish-havasni bildiradi.

Kizikishning bu xili (barkaror kizikish-havas) shaxsning diqqat-e'tiborini muayyan narsaga, vokelik va hayotning muayyan sohasiga, muayyan bir faoliyatga birmuncha uzok vakt va barkaror karatilishida ifodalanadi.

2. Kishilarning kizikishlariga karab bir-biridan farki

Odamlardagi kizikishlarni biz, avalo, bu kizikishlarning mazmuniga karab turlarga ajratamiz. Kizikishning mazmuni keng ma'noda olingan vokelikdagi kanday narsalar yoki soha bilan kizikilganligiga bog'lik bo'ladi, shular bilan belgilanadi. Kishilarning mazmunan, har xil bo'lgan kizikish-havaslarini bu kizikishlarning ijtimoiy kimmatiga karab ijobiy kizikish, yuksak, oliyjanob

kizikish-havas deb baholasak, boshka bir kizikishlarga salbiy kizikish, past, bachkana va hatto zararli kizikish deb baho beramiz.

Ijtimoiy-siyosiy kizikishlari ham mavjuddir. Bu kizikishlar jamiyatga foyda keltiradigan yoki reaksion jamiyat uchun zararli, emiruvchi kizikish bo'lmog'i mumkin.

Progressiv ijtimoiy-siyosiy kizikishlar kishidagi eng yuksak, kimmatli kizikishdir. Kishilarning individualligi fakat unda ijtimoiy kizikishlarning mavjudligi bilan emas, balki yana mana shu ijtimoiy kizikishlarning undagi shaxsiy kizikishlar bilan bo'lgan nisbatida hamdir. Kishidagi ijtimoiy kizikishlar uning shaxsiy kizikishlaridan ustun bo'lganda, undan ham muhimrog'i, kishining shaxsiy kizikishlari ijtimoiy kizikishlar bilan mos bo'lgandagina shaxsning ma'naviy hayoti ko'rkamrok bo'ladi.

Intellectual (akliy) kizikishlar yuksak ijobiy kizikishlardir. Ana shunday kizikish egalari uchun o'z hayotlarida eng muhim narsa - fan bilan mashg'ul bo'lish, kerakli nazariy va amaliy masalalarni hal etishdir. Chunonchi, buyuk sarkarda, sohibkiron Amir Temur, musikashunos, olim, makol janrining ijodkori, Muhammadjon Mirzaev, matematik, fizik olim Kori Niyoziy, O'zbekiston FA akademigi I.S. Salimov va boshkalar ana shunday kizikish bilan yashadilar.

Estetik kizikishlarning o'ziga berilib ishlaydigan kishilar ham bo'ladi. Bunday odamlar uchun o'z hayotlarida eng asosiy narsa san'at va unga xizmat qilish kimmatbaho san'at asarlari yaratishdir. Chunonchi, rus kompozitorlaridan Glinka, Musorgskiy, Chaykovskiy va Moskva badiiy teat-riga asos solgan Stanislavskiylar mana shunday kishilardandir.

Ayrim kishilarda past va sayoz kizikishlar ham bo'ladi. Bunday past kizikishga fakat o'zining hissiy ehtiyojlarini kondirishga karatilgan kizikishlar kiradi. Ana shunday kizikishlar kuli bo'lgan odamlar uchun hayotlarida eng muhim bo'lgan narsa ular hatto moddiy jihatdan ta'minlangan bo'lsalar ham ovkat eyish, ichish, uxlash va umuman olganda nafsini kondirishdan iboratdir. Chunonchi, Gogolning «Kadimgi zamon pomeshchiklari» povestidagi Afanasiy Ivanovich va Pulxeriya Ivanovnalarni xuddi shu tipdagi odamlardir.

Kishidagi **kizikishlar doirasi** har xil bo'ladi. Odamlar o'zidagi kizikish doirasining keng yoki tor bo'lishiga karab ham bir-biridan fark kiladilar. Fakat birgina narsaga kizikish bilan cheklanib, boshka narsalarga e'tibor bermaydigan odamlarni kizikish doirasi tor kishilar deb ataladi.

Odamlardagi kizikish-havaslar tarixan o'zgarib turadi. Shu bilan birga, fakat ijtimoiy kizikishlargina emas, balki individual kizikishlar ham o'zgaradi. Kizikishlarni kishining boshka xususiyatlariga karaganda ko'prok darajada ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy turmush sharoitlari bilan belgi-lanadigan individual xususiyatlari deyish mumkin.

12 mavzu : “Nutk va kasb “ mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Boskichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vakt
1	Tayyorlov boskichi: Dars maksadi: Talabalarga nutkiy kobiliyatlar hakida tushuncha berish. Nutk va tafakkurning bog'likligini tavsiflash. Kasbiy mahoratda nutkning rolini, ahamiyatini aniklash .Talabalarni pedagogik nutk bilan tanishtirish. Identiv o'kuv maksadlari. 1. Nutkiy kobiliyatlar hakida tushuncha beradi. 2. Nutk va tafakkurning bog'likligini tavsiflaydi. 3. Kasbiy mahoratda nutkning rolini tushuntiradi. 4. Kasbiy mahoratda nutkning ahamiyatini aniklaydi. 5. Talabalarni pedagogik nutk bilan tanishtiradi. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Pedagogik nutq, kommunikativ xulq, o'qituvchi nutqi shakllari, o'qituvchi nutqi vazifalari, nutq xususiyatlari, nutqni shakllantirish yo'llari. 1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza 1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs, videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, takdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali kurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarkatma materiallar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali materiallar.	O'kituvchi
2	O'kuv mashg'ulotni tashkil kilish boskichi: 2.1. Mavzu e'lon kilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy kismalari bayon kilinadi.	O'ki tuvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash boskichi: 3.1. Talabalarga nutkiy kobiliyatlarga oid muammoli savol beriladi. 3.2. Talabalarning nutk va tafakkurning bog'likligini hakida fikri eshitiladi va boshka talabalar baxsga chakiriladi. 3.3. Talabalarning kasbiy mahoratda nutkning roli hakida fikri tinglanib, umumiy xulosalar chikariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosani o'kituvchi bayon kiladi.	O'ki tuvchi- talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash boskichi: 1. Nutkiy kobiliyatlar hakida tushuncha bering? 2. Nutk va tafakkurning bog'likligini tavsiflang? 3. Kasbiy mahoratda nutkning rolini tushuntiring?	O'ki tuvchi, 15 minut

	4. Kasbiy mahoratda nutkning ahamiyatini aniklang? 5. Pedagogik nutk nima tushunchangizni gapiring?	
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash boskichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil kilinadi. 5.2. Mustakil ish topshiriqlari beriladi.	O'ki tuvchi, 10 minut

1. Nutk va tafakkur. Nutkiy kobiliyatlar.
2. Kasbiy mahoratda nutkning roli.
3. Pedagogik nutk.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Pedagogik nutq, kommunikativ xulq, o'qituvchi nutqi shakllari, o'qituvchi nutqi vazifalari, nutq xususiyatlari, nutqni shakllantirish yo'llari.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga nutq haqida tushuncha berish. Nutqiy qobiliyatlarni tushuntirish. Nutqning tafakkur bilan bog'liqligini asoslash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Nutq haqida tushuncha beradi.
2. Nutqiy qobiliyatlarni tushuntiradi.
3. Nutqning tafakkur bilan bog'liqligini asoslaydi.

Birinchi savolning bayoni

Nutk va tafakkur. Nutkiy kobiliyatlar.

Nutk - tafakkurga chambarchas bog'lik. Fikrlarimiz nutk yordami bilan shakllanadi va ifodalanadi. Kishilar nutk vositasida aloka kiladilar, fikrlarini bir-birlari bilan o'rtoklashadilar; odamning hissiyoti va intilishlari ham o'z nutkida ifodasini topadi. Nutk kishilarning bir-birlari bilan aloka kilish usulidir.

Mulokotning kommunikativ jarayonida ko'llaniladigan bir necha belgilar tizimi mavjud. Bular verbal kommunikatsiya (nutk orkali) va noverbal (nutk bilan bog'lik bo'lmaydigan belgilar orkali) kommunikatsiyadir. Verbal kommunikatsiyada inson nutki belgilar tizimi sifatida ko'llaniladi. Nutk inson tomonidan ko'llaniladigan tovushlar signallari yoki yozma belgilardan iborat bo'lib, ular orkali mulokotdan olingan ma'lumot kayta ishlanadi, saklanadi va uzatiladi. Bu jarayon nutk orkali amalga oshiriladi. Til so'z belgilari tizimi bo'lib, u mulokot jarayonida psixik faoliyat mahsuli bo'lib yuzaga keladi.

Nutkning o'ziga xos turlari mavjud – tashki, ichki, og'zaki, yozma va xokozo. Kommunikativ jarayonda o'zaro munosabatga kirishuvchilarni bir-birlari tushunishlari juda muhimdir. Noverbal kommunikatsiyaga – belgilarning optik kinetik tizimi kirib, ularga jestlar (qo'l harakatlari), mimika (yuz harakatlari) va pontomimika (qo'l - oyok, tana harakatlari) kiradi.

Jestlar – insonning qo'l harakatlari bo'lib, u orkali insonning ichki holati biror bir obektga munosabati va tashki olamga yo'nalganligi ifodalanadi.

Mimika – inson yuz harakatlarining bir qismi bo'lib, u orkali insonning o'ylari, xatti - harakatlari, tasavvurlari, xotirlashi, taajjubi va hokozolar namoyon bo'ladi.

Pontomimika – inson tanasi yoki uning kislmlari yordamida ifodalanadigan harakatlilar tizimidir. Pauza, mantiqiy urg'u, temp, tembr, chastota, ritmika va boshqa tashkiliy qismlar hamda mexanizmlarni o'zida mujassamlashtirgan, tilning barcha qoidalari, qonunlari, shartli belgilar sifatida xizmat qilishga asoslanuvchi nutq turi og'zaki nutq deb ataladi. Ichki kechinmalar shaxsiy fikrlash bilan uyg'unlashishi tufayli fikriy bog'lanishni vujudga keltiruvchi holatlar, hodisalar mohiyatini ichki va tashqi omillarga asoslanib aks ettiruvchi nutq turiga impressiv nutq deyiladi. Millat va elatlarning til boyligi aforizmlar, maqollar, donishmandliklar, matallar sifatida shakllangan, yuksak mantiqiy yuklamaga ega bo'lgan yig'iq nutq turi lakonik, ya'ni yig'iq, qatra nutq deyiladi. Etti o'lchab – bir kes, sabrning tagi – oltin.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga kasb mahorati haqida tushuncha berish. har bir kasb jarayonida nutqning rolini tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Kasb mahorati haqida tushuncha beradi.
2. Har bir kasb jarayonida nutqning rolini va ahamiyatini tushuntiradi .

Ikkinchi savolning bayoni

Kasbiy mahoratda nutkning roli.

O'quv materialini yaxshi bayon qilish uchun o'qituvchi nutq san'atini mukammal egallagan bo'lishi kerak. Nutq san'ati ko'p hollarda tabiat bergan boylilik emas, balki o'z ustida ko'p ishlash natijasidir. Nutq texnikasidagi muhim ko'rsatgichlardan biri uning hissiyligidir. Psixologiyada ijobiy hissiyot inson faoliyatidagi qudratli omil deb hisoblanadi. Hissiy bo'yoqlarning imkoniyatlari fan mazmuniga ko'p jihatdan bog'liq. Ijtimoiy fanlar o'qituvchilarida texnika fanlari o'qituvchilariga nisbatan imkoniyat ko'proq bo'ladi. Biroq har qanday «quruq» fanni jonli, qiziqarli shaklda ifodalash mumkin. O'qituvchi nutqi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish vazifasini bajarilishini ta'minlaydi. Shuning uchun o'qituvchi nutqiga umummadaniy talablardan tashqari kasbiy, pedagogik talablar ham qo'yiladi. O'qituvchi o'z nutqining mazmuni va sifati, uning oqibatlari uchun javobgar. Shu sababli o'qituvchi pedagogik mahoratida uning nutqi muhim qismi sanaladi.

Pedagogik vazifalarni amalga oshirish uchun o'qituvchi nutqi quyidagi talabalarga javob berishi kerak:

1. Adabiy til me'yorlariga amal qilishi ;
2. Orfoepik va grammatik jihatdan to'g'ri qullanishi
3. Hissiy yorqinligi.

O'qituvchi nutqining asosiy vazifalaridan biri – bilimlarni to'liq etkazishdir. O'quvchilarning bilimni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi o'qituvchi nutqi xususiyatiga bog'liq. O'qituvchi nutqi bilimlarni o'zlashtirishni oson, qiziqarli qilish, yoki uni qiyinlashtirishi mumkin. Yangi bilimlarni bayon qilishda o'qituvchi nutqining vazifasi o'quvchilarga faqatgina bilim etkazish emas, balki ularda shu bilimlarga hissiy qimmatli munosabatni shakllantirish, bilimlarni o'z e'tiqodlari va hulqi asosiga aylantirish ehtiyojini shakllantirishdir.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga pedagogik nutq haqida tushuncha berish. Pedagogik nutqni oddiy nutqdan ajratish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Pedagogik nutqni ta'riflaydi.
2. Pedagogik nutqni oddiy nutqdan ajratadi.

Uchinchi savolning bayoni Pedagogik nutk.

Pedagogik munosabat deganda pedagog va o'quvchilar kollektivi o'rtasida o'zaro birgalikdagi harakatining mazmunan axborot ayirboshlashdan, o'quv tarbiyaviy ta'lim ko'rsatish va o'zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat sistemasi usullari va malakalari tushuniladi.

O'quv materialini yaxshi bayon qilish uchun o'qituvchi nutq san'atini mukammal egallagan bo'lishi kerak. Nutq san'ati aksariyat hollarda tabiat bergan inom emas, balki o'z ustida ko'p ishlash natijasidir. Nutq texnikasidagi muhim ko'rsatgichlardan biri uning hissiyligidir. Ruhshunoslik fani ijobiy hissiyotni inson faoliyatidagi qudratli omil deb hisoblaydi. Hissiy bo'yoqlarning imkoniyatlari fan mazmuniga ko'p jihatdan bog'liq. Ijtimoiy fanlar o'qituvchilarida texnika fanlari o'qituvchilariga nisbatan imkoniyat ko'proq. Biroq har qanday «quruq» fanni jonli, qiziqarli shaklda ifodalash mumkin. O'qituvchi nutqi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish vazifasini bajarilishini ta'minlaydi. Shuning uchun o'qituvchi nutqiga umummadaniy talablardan tashqari kasbiy, pedagogik psixologik talablar ham qo'yiladi. O'qituvchi o'z nutqining mazmuni va sifati, uning oqibatlari uchun javobgar. Shu sababli o'qituvchi pedagogik mahoratida uning nutqi muhim qismi sanaladi.

«O'qituvchi nutqi» tushunchasini odatda, o'qituvchining og'zaki nutqi haqida so'z ketgandagina qo'llaydilar. O'qituvchining og'zaki nutqi pedagog so'zlaganda hosil bo'ladigan nutqdir.

Pedagogik nutq:

- A) Pedagog va tarbiyalanuvchilar hamkorligining samaradorligini;
- V) O'qituvchining o'quvchida e'tiqod, faoliyat motivlarini shakllantirishga ijobiy ta'sirini;
- S) O'quvchilarning o'quv faoliyatini to'g'ri tashkil qilishni ta'minlaydi.

«Pedagogik nutq» tushunchasi bilan «o'qituvchining kommunikativ xulqi» tushunchasi uzviy bog'liq. Ilmiy adabiyotlarda «o'qituvchining kommunikativ xulqi» – deganda oddiygina so'zlashuv, axborot etkazish jarayoni emas, balki pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi hissiy psixologik muhitli muloqotni, ularning ish uslubiga ta'lim beruvchi nutq va unga mos o'qituvchi xulqini tashkil etish tushuniladi. O'qituvchi kommunikativ xulqining xususiyatlari: nutq balandligi, o'quvchilarga murojaat qilish uslubi, mimika, nutqqa xos harakatlardir.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Nutq to'g'risida umumiy tushunchangizni gapirib bering ?
2. Nutq mexanizmlarining psixologik mohiyatini yoriting ?
3. Nutq turlarining psixologik tavsiflang ?
4. Nutq va muomalaning ahamiyatini asoslang ?

13-Mavzu: "Temperament va kasbni egallash masalalari" mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Boskichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruv chi shaxs vakt
1	Tayyorlov boskichi: Dars maksadi: Talabalarni temperament tushunchasi bilan tanishtirish. Temperament xususiyatlarini aniklash. Temperament tiplarini ajratish. Faoliyatning individual uslubi va temperamentning bog'likligini tavsiflash. Kasbiy malakalarni egallashda temperamentning rolini bayon qilish. Identiv o'kuv maksadlari. 1. Talabalarni temperament tushunchasi bilan tanishtiradi. 2. Temperament xususiyatlarini aniklaydi. 3. Temperament tiplarini ajratadi. 4. Faoliyatning individual uslubi va temperamentning bog'likligini tavsiflaydi. 5. Kasbiy malakalarni egallashda temperamentning rolini bayon kiladi. 1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza 1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs, videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, takdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali kurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarkatma materiallar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali materiallar.	O'ki tuvchi
2	O'kuv mashg'ulotni tashkil kilish boskichi: 2.1. Mavzu e'lon kilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy kislmlari bayon kilinadi.	O'ki tuvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash boskichi: 3.1. Talabalarga temperamentga oid muammoli savol beriladi.	O'ki tuvchi- talaba,

	3.2. Talabalarning temperamentga oid fikri eshitiladi va boshqa talabalar baxsga chakiriladi. 3.3. Talabalarning kasbiy malakalarni egallashda temperamentning roli hakida fikri tinglanib, umumiy xulosalar chikariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosani o'kituvchi bayon kiladi.	40 minut
4	Mustahkamlash va baholash boskichi: 1. Temperamentni ta'riflang ? 2. Temperamentning psixologik xususiyatlarini o'king va o'rganing. 3. Temperament tiplarini ajrating.	O'ki tuvchi, 15 minut
5	O'kuv mashg'ulotini yakunlash boskichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil kilinadi. 5.2. Mustakil ish topshiriklari beriladi.	O'ki tuvchi, 10 minut

1. Temperament tiplari va xususiyatlari.
2. Faoliyatning individual uslubi va temperament.
3. Temperament va kasbiy malakalarni egallash.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga temperament haqida tushuncha berish. Temperament tiplarini ajratish. Temperament xususiyatlarini ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Temperament haqida tushuncha beradi.
2. Temperament tiplarini ajratadi.
3. Temperament xususiyatlarini ta'riflaydi.

Birinchi savolning bayoni

Temperament tiplari va xususiyatlari.

Temperament deganda biz, odatda, kishining tabiiy tug'ma xususiyatlari bilan bog'lik bo'lgan individual xususiyatlarini tushunamiz. Temperament lotincha «temperamentum» degan so'zdan olingan bo'lib, uning ma'nosi «aralashma» demakdir.

I.P. Pavlov temperamentni kuyidagicha ta'riflaydi: «Nar bir ayrim kishining va shuningdek, har bir ayrim hayvonning ham eng umumiy xarakteristikasidir, har bir individning butun faoliyatlariga muayyan kiyofa beradigan nerv sistemasining asosiy xarakteristikasidir»

Temperament, psixologik jihatdan olganda, kishidagi hissiyotning ko'zg'alishlarida va kishidagi umumiy harakatchanlikda ko'rinadigan individual xususiyatdir.

Ayrim temperamentlarning alomatlari kishining bolalik chog'larida yakkol namoyon bo'ladi. Har bir kishining o'z temperamenti bo'ladi. Lekin har kaysi odamning temperamentlarida mana shunday individual tafovutlar bo'lishi bilan birga, bu temperamentlarning umumiy, o'xshash belgi va alomatlari ham bo'ladi. Hamma xilma-xil temperamentlarni mana shunday umumiy belgilariga karab ajratish, ya'ni klassifikatsiya kilish mumkin.

Barcha temperamentlarni kadimdan to'rt tipga: 1) xolerik, 2) sangvinik, 3) melanxolik va 4) flegmatik temperamentga ajratishgan.

Xolerik temperament — hissiyotning tez va kuchli ko'zg'aluvchanligi, barkaror bo'lishi bilan fark kiladi. Xolerik temperamentli kishilarning hissiyotlari ularning imo-ishoralarida, mimikalarida, harakatlari va nutklarida yakkol ko'rinib turadi. Xoleriklar kizg'inlik va tajanglikka moyil bo'ladilar. Bunday temperamentli kishilar chakkon, umuman harakatchan, serg'ayrat va har doim urinuvchan bo'ladilar. Bu xil temperamentli bolalar serg'ayrat bo'ladilar. Ular bir ishga tez kirishadigan va boshlagan ishini oxiriga etkazadigan bo'ladilar. Ular ko'pchilik bilan jamoa o'yinlar o'tkazishni sevadilar va bunday o'yinlarni ko'pincha o'zlari boshlab, oxirigacha faol katnashadilar. Xolerik temperamentli bolalar arazchan, serjahl va tajang bo'ladilar. Bir narsadan xafa bo'lsalar, bu xafalik ularda uzok saklanadi. Ulardagi kayfiyat ancha barkaror va davomli bo'ladi.

Sangvinik temperament — hissiyotning tez, kuchli ko'zg'aluvchanligi, lekin bekaror bo'lishi bilan fark kiladi. Sangvinik temperamentli kishilarning kayfiyati tez-tez o'zgarib, bir kayfiyat o'ziga teskari bo'lgan ikkinchi bir kayfiyat bilan tez almashib turmog'i mumkin. g'Sangvinik temperamentli kishilarda psixik jarayonlar, xoleriklardagi singari, tez o'tadi. Bu xil temperamentli kishilar ildam, chakkon, serharakat va jo'shkin bo'ladilar. Sangvinik temperamentli kishilar tevarak-atrofdagi vokealardan tez ta'sirlanadilar va muvaffakiyatsizliklar hamda ko'ngilsiz hodisalar uncha kattik xafa kil-maydi. Ular ko'p ishga tez va g'ayrat bilan kirishadigan bo'ladilar, lekin ishdan tez soviydilar. Bir zayldagi ishlarni uzok davomli sur'atda bajarishga moyil bo'lmaydilar.

Sangvinik temperamentli bolalar juda serharakat, ildam va chakkon bo'ladilar. Ular har kanday ishga katnashish uchun doim tayyor bo'ladilar. Ko'pincha, bir kancha vazifalarni birdaniga bo'yinlariga oladilar. Lekin, har bir ishga ishtiyok bilan tez kirishganliklari singari, boshlagan ishdan tez kaytishlari ham mumkin. Sangviniklar chin ko'ngildan va'dalar berishlari, lekin, ko'pincha, va'dani unutib, uni bajarmasliklari ham mumkin. Bu xil temperamentli bolalar o'yinlarga tez va zavk bilan kirishadilar, lekin o'yin davomida, o'z rollarini tez-tez o'zgartirib turishga moyil bo'ladilar. Ular darrov xafa bo'lishlari va yig'lashlari mumkin, lekin ular xafalikni tez unutadigan bo'ladilar. Ularning yig'isi kulgi bilan tez almashadi.

Melanxolik temperament hissiyotning sekin, lekin kuchli ko'zg'aluvchanligi va barkaror bo'lishi bilan fark kiladi. Melanxoliklar barkaror, davomli bir kayfiyatga moyil bo'ladilar, lekin hissiyotlarining tashki ifodasi juda zaif bo'ladi. Melanxolik temperamentli odamlar sustkash bo'ladilar. Melanxolik temperamentli odam ishga birdan kirishmasligi mumkin, lekin bir kirishsa, boshlagan ishni oxiriga etkazmay ko'ymaydi.

Bunday temperamentli bolalar mo'min-kobil, yuvosh bo'ladilar, ko'pincha, birov savol bilan murojaat kilsa, uyalib, tortinib javob beradilar. Ularni darrov xafa yoki xursand kilish engil emas, lekin bir narsadan xafa bo'lsalar, bu xafalik uzok davom etadi, barkaror bo'ladi. Ular bir ishga yoki o'yinga tez

yopishib kirishmaydilar, lekin kandaydir ish yoki bir o'yin boshlasalar, bunda chidam va matonat ko'rsatadilar.

Flegmatik temperament hissiyotning juda sekin, kuchsiz ko'zg'alishi va uzok davom etmasligi bilan fark kiladi Flegmatik temperamentli kishilar hissiyotlarining tashki ifodasi kuchsiz bo'ladi. Bu xil temperamentli odamlarni xursand kilish, xafa kilish yoki g'azablantirish ancha kiyin.

Flegmatiklarning psixik jarayonlari sust bo'ladi. Bu xil temperamentli odamlar nihoyat og'ir, yuvosh, bosik, harakatlari salmokli bo'ladi. Agar bir faoliyatga kirishsalar, uni kat'iyat bilan davom ettiradilar. Flegmatik temperamentli bolalar yuvosh, mo'min kobil bo'ladi. Ular ko'pchilikka aralashmaydigan, tortinchok va hech kimga tegmaydigan, birovni ranjitmaydigan bo'ladilar. Agar birov ular bilan urish chikarmokchi bo'lsa, o'zlarini chetga olishga harakat kiladilar. Ular shovkin-suronli, harakatli o'yinlarga moyil bo'lmaydilar. Bu xil temperamentli bolalar jizzaki bo'lmaydilar va odatda ular o'yin-kulgilarga moyil emaslar.

Flegmatik temperamentli kishilar (bolalar) tashabbus ko'rsatishga moyil bo'lmaydilar, lekin ular faoliyati yo'lga ko'yilsa, ancha kunt bilan ish ko'radilar, yaxshi o'kib ketishlari mumkin.

Temperament hakidagi ta'limot dastlab kadimgi (bizning eramizdan oldingi 460—356-yillarda yashagan) grek olimi Gippokrat tomonidan yaratilgan. Uning ta'limotiga muvofik sur'atda, keyinchalik «temperament» termini ham ishlatiladigan bo'ldi, shuningdek, hamma to'rt tip temperament nomlari o'rnashib koldi.

Gippokrat ta'limotiga muvofik, odamlarning temperament jihatidan turlicha bo'lishi, ularning organizmidagi suyukliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda bo'lishi bilan bog'likdir. Gippokrat fikricha, odam tanasida to'rt xil suyuklik (xilt) bordir. Chunonchi, o't yoki safro (grekcha - shole), kon (lotincha — sandus), (kora o't — grekcha melanhole) va balg'am (grekcha — rhlegma) bordir. Bu suyukliklarning har biri o'z xususiyatiga ega bo'lib, ularning o'z vazifasi, ishi bordir. Chunonchi, o'tning xususiyati — kuruklikdir. Uning ishi — organizmdagi kuruklikni saklab turish, ya'ni badanni kuruk tutishdir. Konning xususiyati — issiklikdir. Uning ishi — organizmni isitib turishdir. Kora o'tning xususiyati - namlikdir. Uning ishi badan namligini saklab turish, uning namligini tutib turishdir. Balg'am (shilimshik modda)ning xususiyati sovuklikdir. Uning ishi — badanni sovitib turishdir. Gippokrat fikriga muvofik, har kaysi odamda shu to'rt xildagi suyuklikdan biri ko'prok bo'lib, ustun turadi. Bu aralashma (lotincha — temperamentum) lardan kaysi biri ustun bo'lishiga karab, odamlar temperament jihatdan har xil bo'ladilar. Xoleriklarda sarik o't ustun; sangviniklarda kon; melanxoliklarda kora o't; flegmatiklarda esa balg'am (shilimshik modda) ustun bo'ladi, deb ko'rsatadi.

Gippokratning mana shu to'rt xil moddalar aralashmasi to'g'risidagi ta'limotidan kelib chikkan *temperament* so'zi kadimgi zamonlardan beri hozirgacha saklanib kelmokda.

I.P. Pavlov fikricha, Gippokratning to'rtta temperament tipiga to'g'ri keladi:

a) kuchli muvozanatli va epchil tip. Serharakat tip. Bu tip sangvinik temperament asosini tashkil etadi;

b) kuchli, muvozanatli inert (sustkash) tip og'ir vazmin tip. Flegmatik temperamentning asosini tashkil etadi;

d) kuchli, lekin muvozanatsiz, ya'ni ko'zg'alish tormozlanishdan ustun chikadigan, kizg'in, jo'shkin, tip. Bu - xolerik temperamentning asosini tashkil etadi;

e) kuchsiz tip. Melanxolik temperamentning asosini tashkil etadi.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga temperamentning faoliyat bilan bog'liqligini tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Temperamentning faoliyat bilan bog'liqligini tushuntiradi.

Ikkinchi savolning bayoni

Faoliyatning individual uslubi va temperament.

Temperamentning o'zgarishi

Ammo temperament hakida bayon kilingan bu fikrlardan odam temperamentining barcha xususiyatlari albatta nerv sistemasining tuzilish xususiyatlari bilan kat'iy ravishda belgilanadi va o'zgarmaydi, degan xulosa chikarish yaramaydi. Nerv sistemasining ma'lum bir tipi fakat shaxsda ma'lum sifatlarga moyillik vujudga keltiradi, unga zamin hozirlaydi, xolos. Temperamentga xos bo'lgan xususiyatlarni kishi o'z irodasi, istagi bilan o'zi o'stira oladi, birmuncha yo'kota yoki o'zgartira oladi. Kishi temperamenti xususiyatlaridagi bunday o'zgarishlar kishining shaxsiy istagi bilangina vujudga kelib kolmay, balki, kishining hayot tajribasi jarayonida, tevarakatrofdagi muhit ta'siri, asosan tarbiya ta'siri ostida ham vujudga keladi.

Nerv faoliyatining o'zi kandaydir o'zgarmaydigan bir narsa emasligini I.P. Pavlov takror-takror uktirib o'tgan. U nerv sistemasining faoliyati «turmush beradigan tarbiya ta'siri bilan» o'zgarishi mumkin va bir shaklga kirgan nerv faoliyati fakat tug'ma nerv sistema tipi bilangina belgilanmasdan, balki organizm hayotining butun tarixi bilan ham belgilanadi, deb hisobladi.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga temperament haqida tushuncha berish. Temperament tiplarini ajratish. Temperament xususiyatlarini ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Temperament haqida tushuncha beradi.

2. Temperament tiplarini ajratadi.

3. Temperament xususiyatlarini ta'riflaydi.

14- mavzu: "Xarakter va kasbiy sifatlar" mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Boskichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs,
------------------	--	---

		vakt
1	Tayyorlov boskichi: Dars maksadi: Talabalarni xarakter tipologiyasi tushunchasi bilan tanishtirish. Xarakter aktsentuatsiyasini ta'riflash. Xarakterni shakllanishini bayon qilish. Xarakterni kasbiy sifatlarini ajratish. Kasbiy sifatlarini shakllanish boskichlarini ko'rib chikish. Identiv o'kuv maksadlari. 1. Xarakter tipologiyasi tushunchasi bilan tanishtiradi. 2. Xarakter aktsentuatsiyasini ta'riflaydi. 3. Xarakterni shakllanishini bayon qiladi. 4. Xarakterni kasbiy sifatlarini ajratadi. 5. Kasbiy sifatlarini shakllanish boskichlarini ko'rib chikadi. 1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza 1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs, videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, takdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali kurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarkatma materiallar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, axborot texnologiyalari.	O'ki tuvchi
2	O'kuv mashg'ulotni tashkil qilish boskichi: 2.1. Mavzu e'lon kilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy kismalari bayon kilinadi.	O'ki tuvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash boskichi: 3.1. Talabalarga xarakterga oid muammoli savol beriladi. 3.2. Talabalarining xarakterga oid fikri eshitiladi va boshka talabalar baxsga chakiriladi. 3.3. Talabalarining xarakterning shakllanishi hakidagi fikri tinglanib, umumiy xulosalar chikariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosani o'kituvchi bayon qiladi.	O'ki tuvchi- talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash boskichi: 1. Xarakterning shakllanish tarixini ta'riflang ? 2. . Xarakter aktsentuatsiyasini o'king va o'rganing. 3. Xarakter tipologiyasini tushuntiring.	O'ki tuvchi, 15 minut
5	O'kuv mashg'ulotini yakunlash boskichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil kilinadi. 5.2. Mustakil ish topshiriklari beriladi.	O'kituvch i, 10 minut

1.Xarakter tipologiyasi va xarakter aktsentuatsiyasi.

2. Xarakterni shakllanishi.
3. Xarakterni kasbiy sifatleri.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Xarakter, xarakter, kalkik chizik, tanga, chaka bo'rtma tamg'a..

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga xarakter haqida tushuncha berish. Xarakterni temperamentdan farqlash. Xarakterni ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Xarakter haqida tushuncha beradi.
2. Xarakterni temperamentdan farqlaydi.
3. Xarakterni xususiyatlarini ta'riflaydi.

Birinchi savolning bayoni

Xarakter tipologiyasi va xarakter aktsentuatsiyasi.

«Xarakter» yunoncha «xarakter» degan so'zdan olingan bo'lib, «kalkik chizik» ma'nosini anglatadi. Bu erda tanga, chaka yuziga tushirilgan bo'rtma tamg'a ko'zda tutiladi.

Xarakter deganda, shaxsda muhit va tarbiya ta'siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak-atrofdagi olamga (boshqa kishilarga, mehnatga, buyumlarga), o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarini tushunamiz.

Shaxsning xarakteriga tegishli bo'lgan xususiyatlarni **xarakter xislat-lari** deyiladi. Xarakter xislatlari kishida tasodifiy uchraydigan xususiyat bo'lmay, balki kishining xulkidagi **doimiy, barkaror xususiyatlar** bo'lib, bu xususiyatlar shaxsning o'zigagina xos bo'ladi.

Har bir odam ayrim paytlarda mardlik, salobatlik, rostgo'ylik, sof-dillik ko'rsatishi mumkin. Lekin kishining hayoti va faoliyatida ayrim paytlardagina yuz beradigan bunday xususiyatlar hali uning barkaror xarakter xususiyatlari bo'la olmaydi. Biz kishi xarakterini ta'riflamokchi bo'lganimizda, bu odam mardlik kildi yoki rostgo'ylik, sofdillik ko'rsatdi demasdan, balki bu odam mard, rostgo'y, sofdil deb gapiramiz. Bu degan so'z, mardlik, to'g'rilik, sofdillik shu odamga xos fazilat, uning xarakter xislati degan so'zdirki, tegishli paytda mardlik, rostgo'ylik, sofdillik ko'rsatishni biz mukarrar ravishda bu odamdan kuta olamiz. Agar biz bir kishining xarakter xususiyatini bilsak, bu odamning tegishli paytda kandy xatti-harakat ko'rsatishni oldindan to'g'ri taxmin kila yoki ayta olamiz.

Kishi xakteri tarkibiga kiradigan ayrim xislatlari ijtimoiy munosa-batlarning tarakkiyotiga bog'lik holda, tarixiy ravishda vujudga kelgan va o'zgargan.

Xarakter va uning shakllanishi, namoyon bo'lishi uchun kishilarimiz-ni o'rab olgan muhiti, turli faoliyatlarga turlicha munosabatlar, yashab turgan jamiyatimizdagi munosabatlar sabab bo'ladi. Bu esa xalkimizda yangicha xarakter xislatlarining shakllanishiga, asrlar davomida avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan saxiylik, samimiylik, o'zaro hamkorlik, bir-biriga yordam, iffat, sharm-hayo, kamtarlik, mehmondo'stlik kabi sifatlar barkaror xususiyatlarga aylanib kolmokda. Bu xususiyatlar yana avlod-dan-avlodga o'tadi va mazmun,

sifat jihatidan o'zgaradi va u kishilarni o'z-o'ziga, jamiyatga, mehnatga, narsalar va hodisalarga bo'lgan muno-sabatlarda yangicha xarakter xislatlarni shakllantiradi.

Zahmatkash xalkimizning xarakteridagi irodaviy, axlokiy va fahm-farosatga bog'lik bo'lgan xislatlar mustakillikni mustahkamlashda yana ham rivojlandi. Xarakterning bu sifatlari terrorizmga karshi kurashda, diniy akidaparastlik, vahobizm, narkomaniya va shu kabi illatlarga karshi kurashda yakkol namoyon bo'ldi. Kancha begunoh kishilarning yostig'i kuridi, lekin xalkimiz o'zining matonati, kat'iyati bilan o'z xarakterini namoyon kildi.

Hozirgi kunda laganbardorlik, xushomadgo'ylik, takabburlik, egaizm, tamoyilsizlik kabi salbiy illatlar o'rnini o'zaro muruvvat, hamkorlik, kishilarni hurmat kilish, ularga ko'llaridan kelguncha yordamlashish, mehr-saxovat, adolat, savobli ishlar kilish, halol va haromni, vijdonni his kilish yaxshi I ik kabi ijobiy sifatlarni egallab bormokda.

Bizda yangicha xarakter xislatlari tarkib topmokda. Bu kishilarning mehnatiga yangicha munosabat, jamiyat manfaatlariga sodiklik, mehr-muruvvatli bo'lish, yordamga muhtoj kishilarga iltifotli bo'lish kabi yuksak fazilatlar shakllanmokda.

Kishidagi mustahkamlanib, uning shaxsiy xususiyatiga aylanib kolgan iroda sifatlari xarakterning iroda bilan bog'lik bo'lgan xislatlaridir.

Kishining iroda bilan bog'lik bo'lgan xarakter xislatlari, odatda, undagi emotsional xususiyatlar bilan muayyan nisbatda namoyon bo'ladi. Ba'zi odamlarning irodasi tuyg'u-hissiyotlarida ustun turadi. Bunday odamlar o'z .maksadiga etishiga xalal berish mumkin bo'lgan har kanday his-tuyg'ularini darhol bostira oladi. Odatda, bunday odamlarni **irodasi kuchli, mustahkam irodali odam deyiladi.**

Shunday odamlar ham bo'ladiki, ularning xatti-harakatida hissiyot ko'prok o'rin oladi; bunday odamlar o'z xatti-harakatlarida ko'pincha tasodifan tug'iladigan his-tuyg'ulari ta'siri ostida ish ko'radilar. Bunday odamlarning hissiyoti kuchli bo'lib, tasodifiy kayfiyat va tuyg'u-hissiyot-ga tez beriluvchan bo'ladilar, shu sababli ularning xakteri **hissiy xarakter** deb ta'riflanadi. Ba'zi odamlarda esa irodaviy faollik undagi tuyg'u-hissiyotlar bilan birlikda «monand ravishda» namoyon bo'ladi.

Ba'zi odamlarning kiladigan harakatlarida hali yaxshi anglab olinma-gan intilish, ya'ni moyillik ustunlikni egallaydi. Bunday kishilarning inti-lishi, ko'pincha, noanik, mazmunsiz bo'ladi. Bunday kishilar hamma vakt nimanidir kidiradilar, nimanidir kumsaydilar, doimo ularga nimadir etishmaydi, nimadir istaydilar, ammo uning nima ekanligini o'zlari ham bilmaydilar.

Kat'iyatli, barkaror odam deb, ortikcha ikkilanmasdan, tez bir karorga keladigan kishilarni aytamiz. Kat'iyat kishining shu o'rinda kay daraja akl-farosat bilan ish ko'rishiga karab turli tus oladi.

Kat'iyatsizlik, jur'atsizlik salbiy xarakter xislatlaridandir.

Xarakterning iroda bilan bog'lik bo'lgan eng yakkol xislati kishi iro-dasining **kuchi va mustahkamligida** ifodalanadi. Bunday xislatlar har kimning xarakterida ham ma'lum darajada namoyon bo'laveradi. Xuddi shunday

kuchli iroda va mustahkam xarakterga ega bo'lgan kishilar bizda yuksak kadrlanadi.

Xarakterning kuchi va mustahkamligi o'zini tuta bilishlik, dadillik, chidam va matonatda ko'rinadi.

Tashabbuskorlik — xarakterning kimmatli xislati bo'lib, bu xislat ko'pchilik kishilarda ommaviy tus olgandir.

Kishining **intizomlilik** tarikasida namoyon bo'ladigan xarakter xislati jamiyat talablariga ongli va ixtiyoriy ravishda bo'ysunishda ifodalanadi. Jumladan, intizomlilik belgilangan tartib-intizomlarga anik rioya kilishda, o'z burchiga sadokatli bo'lish bilan birga bergan va'dalarini vijdonan bajarishda ifodalanadi.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga xarakterni shakllanishi haqida tushuncha berish. Xarakterni ajratish. Xarakterni ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Xarakterni shakllanishi haqida tushuncha beradi.
2. Xarakterni ajratadi.
3. Xarakterni ta'riflaydi.

Uchinchi savolning bayoni Xarakterni shakllanishi

Biz kishida xilma-xil ko'rinishda va turlicha namoyon bo'ladigan bir kancha xarakter xislatlari bilan tanishib chikdik.

Har kaysi xarakter xislati bir-biridan ajralgan bo'lmay, balki ular bir-birlari bilan bog'lik holda namoyon bo'ladilar. Shuning uchun bir xarakter xislatining o'zi ham turlicha odamlarda turlicha namoyon bo'lmog'i mumkin. Chunonchi, dadillik bilan kilinadigan bir xatti-harakatning o'zi ma'kul yoki noma'kul, axlokda muvofik yoki nomuvofik bo'lmog'i mumkin. Kishidagi mardlik singari xarakter xislati fakatgina undagi iroda bilan bog'lik bo'lmay, balki akl-idrok va tuyg'u-hissiyotlar bilan bog'likdir. Mardlik ayni vaktida axlokiy xislat hamdir. Har bir kishining xakteri kishi shaxsida mujassamlanadigan turlicha xislatlarning alohida bir tarzda birlashuvidir.

Yukorida ko'rib o'tganimizdek, kishi temperamenti uning xakteri tarkibiga kiradi, shu sababli ham xakterning fiziologik asosi nerv sistemasining tipidan iborat.

Ijtimoiy muhitning ta'siri, tarbiya va mehnat faoliyati jarayonida kishi xakterining tarkib topishida, shubhasiz uning nerv sistemasida ham o'zgarishlar yuz beradi. Bunday o'zgarishlar nerv sistemasining plastiklik deb ataluvchi xususiyatiga ko'ra yuzaga keladi.

Kishi xakteri tabiiy, tug'ma bo'lmay, balki keyin hosil bo'ladi va tarbiyalanib etishadi. «Xakter tarkib topadi, xakter hosil bo'ladi» degan iboralar shuni ko'rsatadiki, odamlar kishi xakterining tarbiya ta'siri bilan o'zgarishi xususiyatiga ega ekanligini o'zlarining kundalik oddiy ku-zatib borishlaridan bilib olganlar.

Burjua olimlaridan bir kanchasining Krechmer va uning izidan boruvchilar, odam xarakteri va uning tarakkiysi tamomila kishining tana tuziishi bilan, fakat shu bilan belgilanadi, deb isbotlashga urinishlari fanga xilof reaksiyon urinishdir. Bunday olimlar xarakterning tarkib topishida, shuningdek, shaxsning psixik hayotining tarakkiy etishida ijtimoiy sharoit ham, insonning faoliyati ham, tarbiya ham hech kanday rol o'ynamaydi, deb da'vo kiladilar.

Kishining xarakteri tug'ma, doimiy va o'zgarmaydigan narsa emas. Hech bir bola mehnatsevar yoki dangasa, rostgo'y yoki munofik, botir yoki ko'rkok, intizomli yoki intizomsiz bo'lib tug'ilmaydi.

Har bir odamning xarakteri temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan, tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishi o'z-o'zini tarbiyalash bilan tarakkiy kilib, o'zgarib boradi.

Xaraklarning tarakkiysi kishining irodasi, akl-idroki va hissiyotlarining tarakkiy kilib borishi bilan mustahkam bog'likdir. Shu sababli, kishining irodasi, akl-idroki va tuyg'u-hissiyotlarining tarakkiy kilib borishi va ularning tarbiyalanishi hakida aytilgan fikriarning hammasi kishi xarakterining tarakkiysiga ham tegishlidir.

Xarakterning tarakkiyotida ijtimoiy muhitning roli

Kishining butun hayoti davomida uning xarakterining tarkib topishi-ga ijtimoiy muhit, avalo, shu kishi birga yashab va ishlab kelgan jamoa katta ta'sir ko'rsatadi.

Xarakterning tarakkiysida muhitning roli kishining bolalik chog'laridan boshlabok nihoyat kattadir. Ma'lumki, bola kichik yoshdan boshlabok taklidchan bo'ladi. Bolalar ota-onasiga va atrofdagi boshka yakin kishi-lariga o'xshashlikka moyil bo'ladilar. Ular kattalarning yurish-turishlari, xulk-atvori, imo-ishoralari, dasturxon ustida o'zlarini kanday tutishlari va kichkina bolalarga munosabatda bo'lishlariga va ularning gap-so'zlariga, hattoki, ularning gap ohanglarigacha hamma mayda narsalarigacha taklid kilishga urinadilar.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga xarakterning kasbiy sifatlari haqida tushuncha berish. Xarakterning kasbiy sifatlarini ajratish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Xarakterning kasbiy sifatlari haqida tushuncha beradi.
2. Xarakterning kasbiy sifatlarini ajratadi.

Uchinchi savolning bayoni **Xarakterni kasbiy sifatlari.**

Yuksak irodaviy va axlokiy sifatlari bilan hammaga manzur bo'lgan kishilar namunasi o'z-o'zida xarakter tarbiyalashning (umuman o'z-o'zini tarbiyalashning) juda muhim vositasidir. Odamlar o'z intilishlari va xatti-harakatlarida o'sha hammaga manzur bo'lgan kishilarga taklid kilishlari kerak.

Yoshlarda xarakter xislatlarni shakllanishida, uni tarbiyalashda ota-bobola-rimiz bosib o'tgan mashakkatli yo'llariga e'tikodli bo'lishni o'rgatish, ular hakida bilim berish ahamiyatlidir. Chunki ular o'z Vatani, xalkining farovonligi yo'lida hatto o'limdan ham ko'rkmanlar, o'z oldiga ko'rgan maksadni amalga oshirish imkoniyati bo'lmaganda ham imkoniyat topganlar.

Komusiy olim, shark mutafakkiri, tabobat ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sino o'z davrida kasallik sirlarini (o'rganish man etilganiga karamay) kechalari, sham yorug'ida kabristonda yangi ko'milgan murdalar kabrini ochib, ularni kesib (operatsiya) kasallik sababini o'rgangan. Ulug'bek esa osmoniy jismlarni o'rganish Xudoga shak keltirishi deb karalgan davrda osmoniy jismlarni o'rgangan.

Bashoratchi shoirning jismini millatimiz, mustakilligimiz, ozodligimiz dushmanlari kora erga tikkan bo'lsalar-da, uning jarangdor she'riyatini, ozodlikka chorlovchi Erkin ruhini yo'kota olmadilar Toki yurtimizda hakikatga tashna, go'zal so'zga intik, erkka chankok kishilar bor ekan Usmon Nosirning ismi bokiyydir. Uning hayot yo'li yoshlar uchun namuna* dir. Ulardan yoshlarimiz ibrat olib o'z-o'ziga, xalkiga, yurtiga, mehnat va o'kishga bo'lgan munosabatlarida, o'z xarakterini tarbiyalashda ularga taklid kiladilar. Yoshlarimiz zahmatkash xalkimizni kechani-kecha, kun-duzni-kunduz, kishning chillasi, yozning issig'i demay ko'rsatgan jasorat-lari yoshlar uchun namuna bo'lib kolaveradi.

**15 mavzu : “Shaxsni kasbiy kamoloti “ mavzusidagi ma’ruza
mashg’ulotining texnologik xaritasi**

TG 'r	Boskichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruv hi shaxs, vakt
1	Tayyorlov boskichi: Dars maksadi: Talabalarga shaxsning kasbiy o'zligini anglashni tushuntirish. Shaxsni o'z-o'ziga baho berishini ko'rib chikish va kasbiy o'zlikni anglashni o'rgatish. Kasbiy kamolotdagi shaxsning kasbiy motivlarini belgilash. Kasbiy o'zlikni anglashdagi ziddiyatlarni bayon kilish. 1.2.Identiv o'kuv maksadlari. 1. Shaxsning kasbiy o'zligini anglashni tushuntiradi. 2. Shaxsni o'z-o'ziga baho berishini ko'rib chikadi. 3. Kasbiy o'zlikni anglashni o'rgatadi. 4. Kasbiy kamolotdagi shaxsning kasbiy motivlarini belgilaydi. 5. Kasbiy o'zlikni anglashdagi ziddiyatlarni bayon kiladi. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Kasbiy o'zlikni anglash, o'z-o'zini anglash, Kasbiy motiv, kasbiy ziddiyatlar.	O'kituv hi

	1.3. Dars shakli: kirish-axborotli ma'ruza 1.4. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, baxs, videousul, ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, suhbat, tushuntirish, takdimot. 1.5. Kerakli jihoz va vositalar: darslik, ko'rgazmali kurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarkatma materiallar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali materiallar.	
2	O'kuv mashg'ulotni tashkil qilish boskichi: 2.1. Mavzu e'lon kilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon kilinadi.	O'kituvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash boskichi: 3.1. Talabalarga shaxsning o'zligini anglashga oid muammoli savol beriladi. 3.2. Talabalarning shaxsning o'zligini anglashga oid fikri eshitiladi va boshka talabalar baxsga chakiriladi. 3.3. Talabalarning kasbiy kamolotdagi shaxsning kasbiy motivlarini hakidagi fikri tinglanib, umumiy xulosalar chikariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosani o'kituvchi bayon kiladi.	O'kituvchi-talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash boskichi: 1. Shaxsning kasbiy o'zligini anglashni tushuntiring? 2. Shaxsni o'z-o'ziga baho berishini bayon kiling? 3. Kasbiy kamolotdagi shaxsning kasbiy motivlarini ta'riflang?	O'kituvchi, 15 minut
5	O'kuv mashg'ulotini yakunlash boskichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil kilinadi. 5.2. Mustakil ish topshiriklari beriladi va tanaffus e'lon qilinadi.	O'kituvchi, 10 minut

Asosiy savollar

1. Shaxsning o'z-o'ziga baho berishi va kasbiy o'zligini anglashi.
2. Kasbiy kamolotdagi shaxsning kasbiy motivlari.
3. kasbiy o'zlikni anglashdagi ziddiyatlar.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Kasbiy o'zlikni anglash, o'z-o'zini anglash, Kasbiy motiv, kasbiy ziddiyatlar.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga shaxsning o'z-o'ziga baho berishi kasbiy o'zligini anglashi haqida tushuncha berish. Kasbiy o'zligini anglashni ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Shaxsning o'z-o'ziga baho berishini tushuntiradi.
2. Shaxsning kasbiy o'zligini anglashi haqida tushuncha beradi.
3. Kasbiy o'zlikni anglashni ta'riflaydi.

Birinchi savolning bayoni

Shaxsning o'z-o'ziga baho berishi va kasbiy o'zligini anglashi.

Odamning shaxs sifatidagi asosiy belgisi uning ijtimoiyligi, shu bilan birga psixik hayotning yuksak shakli bo'lgan ongi va kishilarning o'zaro so'zlashib aloqa kilish vositasi bo'lgan tilidir. Inson hayotida o'zaro munosabatlar muhimdir.

Jamiyatdan tashkarida odam odam bo'lolmaydi va kishilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqa ularning amaliy faoliyatidagi, ijtimoiy ishlab chikarish jarayonidagi munosabati bilan belgilanadi. Odam boshka kishilarga munosabatda bo'lish tufayligina onglirok bo'lib koladi va uning psixik hayoti muayyan mazmunga ega bo'ladi. Ana shu munosabatlar nechog'li mazmundor va rang-barang bo'lsa, odamning psixik hayoti ham shunchalik mazmundor va rang-barang bo'ladi. Odam ongining yuksak belgisi uning o'zini anglashidir, odamning o'zini anglashi ham shaxsning muhim belgisidir. Shaxsning o'zini anglashi shundan iboratki, odam jamiyatda tarakkiy etar va ishlar ekan, tevarak-atrofdagi muhitda o'zining individligini, subektligini ajrata-di. Odam tevarak-atrofdagi olamni biluvchi va shu dunyoga ta'sir etuvchi zot sifatida har bir odam subektdir, odamning idrok etadigan, tasavvur kiladigan, fikr yuritadigan, tilga oladigan va ta'sir ko'rsatadigan narsasi uning uchun obektdir. Odamning o'zini anglashi subektiv ravishda o'zini «men» deb his kilishida ifodalanadi.

Odam ijtimoiy zot bo'lganligidan unga o'zini anglash kobiliyati xosdir. Ammo odam jamiyatning bir a'zosi va olamning bir kismidir, shu sababli odam tevarak-atrofidagi olamdan ajratsa ham, ayni vaktida shu olam bilan bog'langanligini anglaydi. Odam o'z tevarak-atrofidagi olamdan o'zini ajralgan holda o'zini «men» deb anglay olmaydi, chunki odam ongining, o'zini anglashining, «men»ining mazmuni o'sha odam atrofidagi real-vokelik in'ikosidir.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Kasbiy kamolot va kasbiy motivlar haqida tushuncha berish. Kasbiy motivlarni ta'riflash. Talabalarni kasbiy kamolotdagi shaxsning kasbiy motivlari bilan tanishtirish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Kasbiy kamolot va kasbiy motivlar haqida tushuncha beradi.
2. Kasbiy motivlarni ta'riflaydi.

Talabalarni kasbiy kamolotdagi shaxsning kasbiy motivlari bilan tanishtiradi.

Ikkinchi savolning bayoni

Kasbiy kamolotdagi shaxsning kasbiy motivlari.

Mexnat faoliyati motivlari xilma-xil bulib, ular uziga xos omillar bilan belgilanadi. Birinchi gurux omillariga jamoaviy xarakterning uygonishi bilan bogliklari kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshka insonlarga yordam berish istagi, mexnat faoliyatida ijtimoiy ustanovkaning zarurligi va boshkalarga nisbatan tobelikni xoxlamaslik kabi motivlar xisoblanadi.

Ikkinchi gurux omillari uzi va oilasi uchun moddiy mablagning o'rttirilishi, moddiy va ma'naviy extiyojlarning kondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir.

Uchinchi guruxga umni uzi faollashtirish, rivojlantirish, uzini namoyon qilish extiyojlarining kondirilishi va boshkalar kiradi. Ma'lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shugullanmasdan turolmaydilar.

Mexnat faoliyatining umumiy motivlari yukorida aytib utilganidek, anik kasblar doirasida amalga oshadi. Kasb tanlash anchagina kiyin va motivatsion jarayondir. Axir shaxsning tugri kasb tanlashi kupincha insonning xayotdan konikishga xam sabab bo'ladi.

Insonning kaysi faoliyatini tanlashi kuprok tashki omillar xakidagi karorning kabul kilinishi jarayoni xakida tuxtalishi muximdir. Bu asosan tashki xolat baxolariga, uzining imkoniyat va kobiliyatlariga, kasb tanlashdagi kizikish va moyilliklariga boglikdir.

Uz imkoniyatlarini baxolash soglomligi, ishga yarokliligi, kasbi buyicha muxim sifatlariga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yukori shovkinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni uz ichiga oladi.

Kizikishlarga moe ravishda tanlangan ish joyini baxolash, ayni vaktida ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat t^siklari, ishni boshkarish, kasbiy usish, tashabbusning paydo bulishi muxim axamiyatga ega. Ba'zan kizikish buyicha ish joyini tanlash muxim axamiyat kasb etadi.

Insoniyat o'zining mehnati tufayli ongli mavjudodga aylangan, jamiyatda mo'l-ko'lchilikni yaratgan, tabiatda esa ayrim o'zgartirishlarni amalga oshirgan, borlik to'g'risidagi ma'lumotlarni egallashga musharraf bo'lgan. Mehnat faoliyatining tarkibida mehnat, ish-harakat yotadi.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan kasb-kor ko'nikmalarini avlodlarga o'rgatish mehnat faoliyati yordamida amalga oshiriladi. Kasbiy malakalarni shakllantirish, takomilashtirish, mahsulot yaratish va undan maksadga muvofik ravishda foydalanish mehnat faoliyati orkali ro'yobga chikariladi. Mehnat faoliyatida amaliy ko'nikmalar barkarorlashadi, nazariy fikr, g'oya, mulohaza vujudga keladi.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga kasbiy o'zlikni anglashdagi ziddiyatlar haqida tushuncha berish. Ziddiyatlarni aniqlash va hal qilish yo'llarini ishlab chiqish. Kasbiy o'zlikni anglashdagi ziddiyatlarni hal qilish usullarini tekshirish.

Identiv o'quv maqsadi:

- 1.Kasbiy o'zlikni anglashdagi ziddiyatlar haqida tushuncha beradi.
- 2.Ziddiyatlarni aniqlaydi va hal qilish yo'llarini ishlab chiqadi.
- 3.Kasbiy o'zlikni anglashdagi ziddiyatlarni hal qilish usullarini tekshiradi.

Uchinchi savolning bayoni **Kasbiy o'zlikni anglashdagi ziddiyatlar.**

Kasbiy o'zlikni anglashda hal kiluvchi ahamiyatga ega bo'ladigan va kasb tanlash muammosini hal kilishda aniklanishi lozim bo'lgan insoniy xususiyatlar va hislatlar quyidagilardan iborat

1. Mulokatchanlik, hamdard bo'la olish -- vrach, o'kituvchi, tarbiyachi, xukukshunos, jurnalist, psixolog, rahbar.
2. Tashkilotchilik, tashabbuskorlik, mas'uliyat hissi -- rahbar, boshkaruvchi, menedjer, trener.
3. Moslashuvchanlik -- o'zgaruvchan muhit va jamoalarga xos kasblar, ko'p safar kilish bilan bog'lik ishlar (geolog, ta'minotchi, styuardessa, provodnik, yuk kuzatuvchisi,
4. Murosachilik, kelishuvchanlik, sabr-tokat, kunt -- sotuvchi, tarbiyachi, sekretar, dallol, hizmat ko'rsatish soxasi hodimlari.
5. Iroda, sovukkonlik -- xarbiy va xarbiylashtirilgan kasblar, sport, favkulotda holatlarda ish bajarishi mumkin bo'lgan kasblar (tez yordam, o't o'chiruvchilar, militsiya
6. Yaxshi xotira, hozirjavoblik -- ko'p odamlarni, narsalarni, matnlarni, belgilarni esda tutish bilan bog'lik kasblar (tarjimon, turli axborot byurolari, arxiv xodimi, tarixchi, suxandon, so'z ustasi).
7. Yangilikka intilish, yaratuvchanlik va ijod kilish kobiliyati -- adabiyot va san'at, konstruktor, ixtirochi
8. Mavhum tafakkur -- xisob-kitob, loyihalash, dasturlash bilan bog'lik ishlar, dizayner, rassom, modeler.
9. Taxlil kila olish (analiz) va umumlashtirish (sintez) -- olim, tadjikotchi, tergovchi.

10. Yaxshi jismoniy rivojlanganlik -- jismoniy mehnat bilan bog'lik kasblar,
 Zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashdagi asosiy muammolar orasi^' ikkita predmetli soxani aloxida ajratib kursatish muximdir: "kasbi sifatlar"* va "kasbiy tarakkiyot". Kasbiy sifatlar insonning butun umri unga xamrox, bug'ladigan va xayot faoliyati davomida muxim urin tutadigan "Me; kimman?" degan ongli savolga asosiy e'tiborni karatadi. Tarakkiyot es< kasbiy usishga, ishning sifatini ortishiga, izlanishlardagi kashfiyotlarga,' karor kabul kilishdagi egiluvchanlikka yunaltirilgan buladi.


Kasbiy shakllanishda kasbiy sifatlar va tarakkiyot bir-biri bilan chambarchas boglivdir: kasbiy sifatlar bir tomondan kasbiy tarakkiyot jarayonida shakllansa, boshka tomondan - shaxsning mutaxassis sifatida namoyon bulishining muxim kursatkichi xisoblanadi. Amaliy jixatdan bu kuyidagilarni anglatadi: yangi ijtimoiy-iktisodiy dinamik sharoitda uz; sha'niga ega bulish uchun, rakobatda sinmaslik uchun, farovon kelajakni ta'minlash uchun mutaxassis doimiy rivojlanishda bulishi, kolaversa, ijtimoiy va mexnat sharoitida uzining mavkeini taxlil kilib borishi lozim. Shuning uchun kasbiy sifatlarni tadjik kilishning zamonaviy yunalishi shaxsning ijtimoiy va kasbiy tarakkiyoti jarayoni bilan boglik jixatlarni urganish xisoblanadi.


Kasbiy shakllanish individning mutaxassisga aylanishi sifatida insonning uzi xakidagi, kasbiy va ijtimoiy muxitdagi mavkei xakidagi tasavvurlarining uzgarishi, kolaversa, yangi kasbiy sifatlarni uzida tarkib toptirishi, keng ma'noda aytadigan bulsak - shaxsning kasbiy Uzini uzi anglashi bilan

xamoxanglikda kechadigan jarayondir. Kasbiy shakllanish inkrozlari davrida kasbiy sifatlar yakkol namoyon buladi.

Kasbiy sifatlar muammosiga kizikishlarning ortishiga karamasdan, bu fenomenning tabiati, tuzilishi, dinamikasi va funktsiyalari xakidagi savollar bir kancha chalkashliklarga egadir. Bunga asosiy sabab bu muammoning, ayniksa, shaxe umumiy tuzilishida kasbiy sifatlar urnida kullaniluvchi ijtimoiy sifatlarni kam urganilganligi bilan boglikdir. Kasbiy sifatlar muammosini tadkik kilish uchun eng avvalo bu

Инсондаги ижобий ҳислатларнинг ўзаро боғлиқлиги ва муносабати.





Har kanday insonga u yoki bu darajadagi moslashuvchanlik xos. Shuning uchun odatda odamlar ancha keng doiradagi, tabiati jihatidan bir-biridan ancha fark kiladigan kasblarni o'zlashtirishlari va muvaffakiyatli ado etishlari mumkin. Shuning uchun o'smirga eng ko'p mos keladigan biror-bir kasbni katta ishonchlilik bilan aniklash va tavsiya etish kiyin ish.

Shaxsning xayotiy va kasbiy shakllanishini dinamik xarakterini haxsning uziga xos filogenetik va ontogenetik xususiyatlarini, kolaversa, undagi mexnat faoliyatining rolini, sub'ektning kasbiy shakllanishini uziga xos xususiyatlarini xisobga olgan xolda bu jarayonni "professiogenez"*-atamasi bilan atash mumkin. Shaxe faoliyatini tashkil kilish va taxlil kilishga

nisbatan professiogenetik yondashuv shaxs mexnat faoliyatini o'rganuvchi psixologiyaning kator soxalari va boshka fan soxalari uchun metodologik, nazariy va metodik asos bo'lib xizmat kiladi.

Mutaxassis shaxsining shakllanishini o'ziga xos xususiyatlari mehnat sub'ekting kasbiy shakllanishiga nisbatan professiogenetik yondashuvning asosiy xususiyatlarini aniklab beradi. Bu yondashuv mexnat sub'ekting kasbiy faoliyati davomida ijtimoiy va psixologik rivojlanish konuniyatlarini urganish asosiga kurilgan. Bunda kasbiy tarakkiyot jarayonini faol boshkarish imkoniyatlari va shaxsning mexnat faoliyatiga yarokliligi kurib chikiladi. U fakatgina shaxs tarakkiyoti xususiyatlarini va mutaxassis shakllanishini urganishga karatilgan bulmay, balki mavjud faoliyat turlarini, faoliyatga moslashish jarayonini psixik boshkarish mexanizmlari va shaxsning mavjud imkoniyatlari xamda kasbiy talablar orasidagi muvofiklikni psixologik taxlil kiladi, kolaversa, obruli kasb va faoliyat turlarining psixologik xususiyatlarini taxmin kiladi.

Professiogenezning markaziy nuktasida mexnat sub'ekting kasbiy shakllanishi va uni bir necha aspektlarini keng kulamda kurib chikish maksadga muvofikdir:

Birinchidan, *shaxe tarakkiyoti* sifatida - bu muayyan mexnat sub'ekting faollik darajasiga boglik va etakchi faoliyat xarakteriga asoslangan xolda anik bir yosh davrida namoyon buladi. Psixik tarakkiyot eng avvalo, mexnat motivlarining shakllanishi, kasbiy muxim sifatlarning faollashishi va anik bir faoliyatning talablariga muvofik ravishda shaxe kobiliyatlarining tarkib topishi bilan yakunlanadi.

Ikkinchidan, *sub'ekt ijtimoiylashuvi* sifatida — bu individ tomonidan ijtimoiy normalarning uzlashtirilishida, ijtimoiy tajribani shaxeiy kasbiy ustanovkalar tizimida kullashda, kadriyatlar va faoliyat dasturida, ijtimoiy rollarni kabul kilish va ijtimoiy masalalarda namoyon buladi.

Uchinchidan, *sub'ektning kasbiy uzini uzi anglashi, uzini uzi namoyon kilishidir.*

Ayrim kasblar shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan «universal» tabiatga ega, ya'ni bunday kasblarni har kanday fe'l-atvordagi, turlicha kobiliyat-layokatga ega bo'lgan istalgan kishi egallashi mumkin. Lyokin ko'pchilik kasblarni egallash uchun oddiy kizikishdan tashkari yana odamning fe'l-atvori va kobiliyat-layokati tanlagan kasbiga mos bo'lishi talab etiladi. Yoshlar kasb tanlashda ko'pincha shu omillarda xato kilishadi. Natijada yo ularning shu kasbni egallashlari juda kiyin kechadi, yo bo'lmasa ular o'rtamiyona, past malakali kasb egasi bo'lishadi. Keyinchalik ular o'zlari egallagan kasb bo'yicha ishlaymay boshka kasblarga o'tib ketishlari ham mumkin.

Informatsion-metodik ta'minot

O'kuv – uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati.

Asosiy darsliklar va o'kuv ko'llanmalar

1. Qodirov B.R., Qodirov I.B. “Kasbiy tashxis metodikalari to'plami” Toshkent, 2003 yil
2. G'oziev E.G'., Mamedov K.K. “Kasb psixologiyasi” Toshkent 2003 yil
3. Kondakov I.M. “Diagnostika professionalno'x ustanovok podrostkov” 1997 g.
4. A.F. Kudryashova «Luchshie psixologicheskie testo' dlya profotbora i proforientatora» Moskva, 1992 g.
5. E.A.Klimov «Kak vo'brat professiyu», Moskva 1990 g.l

Ko'shimcha adabiyotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iktisodiy inkirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2009 y.
2. Sunnatova R.I., Parpiev U. «Kasbga yo'naltirish maslahatlari: metodlar, muammolar, imkoniyatlar», Toshkent 2001 yil.
3. Kodirov K.B. “Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis”, Toshkent 2001 yil
4. Rashidov F.X., Xodjaboev A.R., R.K.Jo'raev, X.F.Masudov va boshkalar “O'rta maxsus, kasb-hunar talimdagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi” Toshkent 2000 yil
5. Sog'inov N., Ubaydullaev F. “O'kuvchilar bilan olib boriladigan kasb tanlash, kasbga yo'llash ishlarini tashkil kilishda psixodiagnostika metodlaridan foydalanish” Toshkent, 1996 yil.

Elektron ta'lim resurslari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)